K. Mavlonova,
S. Qo‘ldosheva, N. Hakimova, M. Siddiqov

Ona tili
5-sinf
I qism

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
TASDIQLANGAN

novda
edutainment

MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

Toshkent – 2024

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 811.512.133:373.3.016(075.3)
BBK 81.2O‘zb ya72
O-58

Ona tili 5-sinf (1-qism) [Matn] : darslik / K.M. Mavlonova, N.S. Hakimova, M.R. Siddiqov, S.H. Qo‘ldosheva; muharrir O.T. Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.

Mas’ul muharrir:

G‘. Hamroyev – pedagogika fanlari doktori.

Taqrizchilar:

G. Yo‘lchiyeva – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 6-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

N. Salimova – Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 110-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

I. Qudratova – Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

G. Eshmirzayeva – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 21-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Shartli belgilar:



og‘zaki bajaring



savollarga javob bering



topshiriqni xattaxtada bajaring



yodda tuting



videolavhani ko‘ring



audiomatnni tinglang



matnni o‘qing



uyga vazifa



o‘ylab ko‘ring



loyiha ishi uchun taqdimot



yozma bajaring



guruh bo‘lib ishlang

ISBN 978-9943-07-945-8

© “Novda Edutainment”, 2024

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Abdulla Oripov so‘zi *Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!


Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



1. **“Vatan” so‘zini eshitganingizda xayolingizga keladigan 5 ta so‘zni ayting.**

2. **Xaritani diqqat bilan kuzating va savollarga javob bering.**



1. Xarita asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning joylashuv o‘rni haqida gapiring.
2. Siz yashayotgan joy O‘zbekistonning qayerida joylashgan? Qaysi viloyatlar bilan qo‘shni?
3. Yashayotgan hududingizning o‘ziga xos jihatlari: iqlimi, tabiati, hayvonot va o‘simlik olami, odamlarining fe’l-atvori haqida nimalarni bilasiz?

3. **Xaritadagi joy nomlarini alifbo tartibida yozing.**

Harflarning ma’lum bir tartibda joylashuvi **alifbo** deyiladi.

Alifbo so‘zi arab yozuvidagi harflar tartibining birinchi va ikkinchi harflari – alif va bo (be) nomlarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Alifboni “Alifbe”dan farqlash kerak. “Alifbe” – siz birinchi sinfda o‘qigan savod kitobi.

Hozirgi o‘zbek alifbosi lotin yozuviga asoslangan.

4. **Berilgan so‘zlarning qarama-qarshi ma’nosini toping.**
Diqqat! Bu so‘zlar yarim doirada ko‘rsatilgan harfdan boshlanadi.

A	B	D	E	F	G	H
shirin ***achchiq***	qo‘rqoq * * *	nodon * * *	yangi * * *	zararli * * *	xunuk * * *	quruq * * *

I	J	K	L	M	N	O
yo‘g‘on * * *	savol * * *	manman * * *	uddaburon * * *	ishyoqmas * * *	pakana * * *	semiz * * *

P	Q	R	S	T	U	V
baland * * *	yupqa * * *	yolg‘on * * *	tez * * *	sun’iy * * *	qisqa * * *	bunyodkor * * *

X	Y	Z	O‘	G‘	Sh	Ch
saxiy * * *	qattiq * * *	kuchli * * *	yonmoq * * *	mag‘lub * * *	yuvosh * * *	sayoz * * *

5. **Jadvalda yurtimizdagi joy nomlari keltirilgan. Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib, ularni ko‘chiring. Har bir so‘zning to‘g‘ri yozilishi va talaffuzini mashq qiling.**

Andijon	B…	Do‘ngqishloq	Egizqum	F…
G…	Hazorasp	Izboskan	J…	Kosonsoy
Langartepa	Muzrabot	N…	Olmaliq	Parkent
Q…	Rishton	Samarqand	T…	U…
Vobkent	X…	Yangiyo‘l	Zarafshon	O‘rtasaroy
G‘ijduvon	Shahrisabz	Ch…	Mingbuloq	Ellikqal’a

Yurtimizdagi joy nomlaridan 4 tasining ma’nosini izohli lug‘at yoki yoshi katta kishilar yordamida aniqlab, yozib keling.



Vatan faqat insonda bo‘ladimi? Javobingizni izohlang.

Yagonadir Vataning sening!



Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir. Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa – ona qishloq dalalariga, ko‘klam chog‘ida lolazorga aylanadigan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog‘larga, hatto yantog‘-u saksovuldan boshqa giyoh unmaydigan dasht-u sahrolarga muhabbatdan boshlanadi.

Qadimda dushmanlar Turk davlatining xoqoni O‘g‘uzxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan bir parcha yerni talab qilishadi. Shunda


1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 6 21/08/24 12:29

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

bobomiz: “Vatan yolg‘iz bizning mulkimiz emas. Bu muborak tuproqda qabristonda yotgan otalarimiz va qiyomatga qadar tug‘ilajak avlodlarimizning haqqi bor. Vatandan ozgina bo‘lsa ham, bir qarich bo‘lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo‘qdir”, – deb javob beradilar. Biz Vatanni sevmoqni dono bobolarimizdan o‘rganmog‘imiz kerak.

Yodingizda bo‘lsin, Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do‘st-birodarga mehr bilan qo‘shilib ketadi. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o‘z yurtini sog‘inadi. Dov-daraxtlar o‘z yurtini qo‘msaydi.

Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko‘radigan daraxt bo‘lar ekan. Fransuzlar



uni havas bilan o‘z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o‘sib, ko‘kka bo‘y cho‘zibdi... Yillar o‘tib, bog‘ o‘rmonga aylanibdi. Ammo oradan o‘ttiz-qirq yil o‘tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o‘z-o‘zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqa ushlashibdi. Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit’asida qattiq qurg‘oqchilik bo‘lgan ekan. U yerdagi shu navli daraxtlar qurib qolgan ekan. Shunda olimlar bir-biridan ancha olisda bo‘lgan daraxtlarni birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan, degan xulosaga kelishibdi.

Ko‘rdingizmi, aql anglashga ojiz bu sirli aloqa Vatan tuyg‘usi bilangina izohlanishi mumkin. Vatan ona kabi yagonadir. Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram, yagonaligi bilan bebaho va beqiyosdir!

Xurshid Davron

6. Quyidagi so‘zlarning izohini aniqlab, daftaringizga yozing.

1	mo‘tabar		A	dala, cho‘l, sahro
2	yantoq		B	e’tibor topgan, muqaddas
3	dasht		D	hurmatli, aziz, izzat-ikrom qilinuvchi
4	xoqon		E	musibat, ko‘ngilsiz voqea
5	falokat		F	hukmdor, podshoh
6	mukarram		G	cho‘lda o‘sadigan, tikanli, ko‘p yillik begona o‘t

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 7 21/08/24 12:29

1. Kimlar yoki nimalar inson uchun aziz hisoblanadi? Nima uchun?
2. Vatanga muhabbat nimadan boshlanadi?
3. *“Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do‘st-birodarga bo‘lgan mehr bilan qo‘shilib ketadi”* deganda muallif nimani nazarda tutgan?
4. Turk xoqoni O‘g‘uzxon haqidagi rivoyatning ushbu matnga kiritilishi sababini ayting. Siz ham shunday rivoyatlar eshitganmisiz? Javobingizni izohlang.
5. O‘sib turgan daraxtlarning qurib qolishi sababi haqida o‘ylab ko‘ring. Siz ham shunga o‘xshash hodisalarni kuzatganmisiz? Aytib bering.

7. Matn sarlavhasini qayta o‘qing. Sarlavhani izohlay oladigan xatboshini toping. Ushbu matn uchun yana qanday sarlavha qo‘yish mumkinligini ayting.

Nima uchun Vatanni onaga qiyoslaymiz, ya’ni “ona Vatan” deb ataymiz? Shu savolga javob yozing. Quyidagi boshlanmalardan foydalanishingiz mumkin:

- Vatanni onaga qiyoslashimizga sabab shuki, …
- Vatan onaga o‘xshaydi. Chunki …
- Haqiqatan ham, Vatan …



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 8 21/08/24 12:29

8. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring va javoblarni daftaringizga yozing.

1. Muallif matnda Vatanga oid qaysi tushunchalar haqida so‘z yuritgan?

ona tuproq | Vatan tuyg‘usi | yurt qadri | Vatan tarixi | Vatanga xizmat | Vatan kelajagi

2. Muallifning Amerikada o‘suvchi daraxtlar haqidagi hikoyani matnga kiritishdan ko‘zlagan asosiy maqsadini toping.

- Vatan tuyg‘usi faqatgina insonlarga xos tushuncha ekanini batafsil izohlash
- Chetdan keltirilgan o‘simliklarni parvarishlash qoidalarini tushuntirish
- O‘simliklarning ham Vatani borligiga ishora qilish
- Insonlar uchun Vatanidagi dov-daraxtlar ham aziz ekaniga urg‘u berish



9. Matn asosida bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirib, gaplarni ko‘chiring.

- Har bir insonning Vatanga muhabbati ... boshlanadi.
- Qushlar va dov-daraxtlarning ham ..., chunki ular ham tug‘ilib o‘sgan yerini sog‘inadi.
- Vatan – ... .

10. Matn orqali tanishilgan, ma’nosi izohlangan quyidagi so‘zlar ishtirokida 6 ta gap tuzib, yozing.

mo‘tabar | yantoq | dasht | xoqon | falokat | mukarram

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 9 21/08/24 12:29

11. **Vatan tuyg‘usini his qilish mumkin bo‘lgan uchta hayotiy vaziyatni yozing. Nima uchun aynan shu vaziyatlarni tanladingiz? Izohlang.**

Namuna

Yurtdoshlarimiz xalqaro musobaqalarda g‘oliblikni qo‘lga kiritganida. Chunki ...



12. **“Sinkveyn” topshirig‘i. Berilgan so‘zlardan 2 tasini tanlang. Yo‘riqnoma va namuna asosida topshiriqni bajaring.**

Yo‘riqnoma:
1-qatorga bitta so‘z (ot) yoziladi.
2-qatorga kalit so‘zga mos ikkita sifat yoziladi.
3-qatorda mavzuga oid xatti-harakat uchta so‘z orqali ifodalanadi.
4-qatorga to‘rtta so‘zdan iborat gap yoziladi.
5-qatorga kalit so‘zning ma’nodoshi yoziladi.

Namuna

Vatan

aziz, jonajon

jonajon Vatanni sevmoq

Men jonajon Vatanimni sevaman.

yurt

So‘zlar:
Vatan, mehr, osmon, do‘st, nihol.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 10 21/08/24 12:29

Harflar zanjiridagi so‘zlarni toping va alifbo tartibida yozing.



13. Quyidagi gaplarni o‘qing va ularning qurilishida bir-biridan qanday farqi borligini ayting.

1. Vatan nima?
2. Vatan ona tuproqdan boshlanadi.
3. Dunyo ko‘raman desang, o‘qi!
4. Qaniydi men ham o‘qib, olim bo‘lsam...

Siz o‘zingiz bilmagan narsalarni boshqalardan so‘ramoqchisiz yoki o‘zingiz bilgan axborotni boshqalarga yetkazmoqchisiz. Bunday vaziyatda maqsadingizga mos keladigan gap shakllaridan birini tanlaysiz.

Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra to‘rtta turi bor:

1) darak gap; **2)** so‘roq gap; **3)** buyruq gap; **4)** istak gap.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 11 21/08/24 12:29

14. Gaplar oxirida qo‘llangan tinish belgilariga e’tibor bering. Gap turlarini aniqlab, yozing.

Yodingizda bo‘lsin, Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do‘st-birodarga bo‘lgan mehr bilan qo‘shilib ketadi.	nuqta	...
Vatan yagonaligi bilan muqaddas va mukarram, yagonaligi bilan bebaho va beqiyosdir!	undov	...
Qani edi dunyoda hech qachon urush bo‘lmasa.	nuqta	...
Ona yurtingni ko‘z qorachig‘idek asra!	undov	...

Darak gaplar xabar ma’nosini bildiradi. Bunday gaplar oxiriga yozuvda nuqta qo‘yiladi. **Masalan:** *Vatan ostonadan boshlanadi.*

Darak gap his-hayajon bilan aytilsa, gap oxiriga undov belgisi qo‘yiladi. **Masalan:** *Vatanimga xizmat qilaman!*

15. “Yagonadir Vataning sening!” matnidan uchta darak gap topib, daftaringizga ko‘chiring.

16. So‘roq gaplarni darak gaplarga aylantirib ko‘chiring.

So‘roq gap	Darak gap
Vatan ostonadan boshlanadimi?	Vatan ostonadan boshlanadi.
Mahallada bilimdon yoshlar ko‘pmi?	...
Har bir inson Vatanini ham ota-onasidek qadrlashi kerakmi?	...
Vatanini yomon deyishsa, kim ham chidab turardi?!	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 12 21/08/24 12:29

17. **Quyidagi so‘zlarni o‘zaro bog‘lab, maqollar hosil qiling. Ularni yozing. Ifoda maqsadiga ko‘ra gapning qanday turi ekanini aniqlang.**

Namuna: *el, himmat, oliy, xizmat: Elga xizmat – oliy himmat.*

baxt, bor, Vatan, bor	Vatan, yagona, kabi, ona	sevar, bulbul, chaman, odam, Vatan	o‘lmoq, Vatan, sharaf, uchun	yurt, oltin, ona, beshik

Matndagi gaplar chegarasini, qaysi so‘zlar bosh harfda yozilishini aniqlang. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo‘yib, xatolarni to‘g‘rilab, matnni ko‘chiring.

Men samarqand yaqinidagi qishloqlardan biri – chordarada tug‘ilganman hali bu qishloq paydo bo‘lmasdan oldin bu yerda onam – fuzallobegimning bobolari hikmatxo‘ja maxdum qo‘rg‘on tiklagan qo‘rg‘onning atrofini mevazor-u uzumzorlar o‘rab turgan qo‘rg‘onning to‘rt tomonida darvozalari bo‘lgan, shu sababdan bu joyni odamlar “chordara” (“to‘rt eshikli”, “to‘rt darvozali”) deb atay boshlagan vaqt o‘tib qo‘rg‘on atrofida paydo bo‘lgan qishloq ham chordara nomini olgan

Changqovuz haqida eshitganmisiz? Rasmdagi qaysi musiqa asbobini changqovuz deb o‘ylaysiz?



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 13 21/08/24 12:29

Changqovuz

Sakson bilan sirlashgan, ko‘zoynaksiz kitob o‘qiydigan buvim bor edi. Har gal pochtachi amaki pensiya pulini olib kelganida jonajon changqovuzini labga qo‘yib, kuy chalib berardi. Biz kuydan zavqlangancha atrofiga to‘planardik. Pochtachi amakining kelishi biz uchun ikki hissa bayram edi.

Yuqori hovlining burchagidagi uyga onda-sonda kirib qolsam, taxmondagi javonda turgan qalin kitoblar, taxlam-taxlam gazeta-jurnallardan boshim aylanib, bir zum to‘xtardim. Shu kitoblar qatorida buvimning hech kimga ishonmaydigan, bobosidan qolgan kichkinagina, baxmal matoga o‘ralgan changqovuzi turardi. Uni chalishga juda ishtiyoqmand edim. Kunlardan bir kuni bolalik qilib o‘sha changqovuzni olib, dalaga chiqib ketdim.

“O‘g‘irlab olganim”ni buvim ko‘rgan ekan. Kechki payt echkilarni daladan haydab kelib, qo‘raga qamayotganimda “qo‘lga tushdim”.

– Bolam, tunov kuni kitoblar orasiga qo‘ygan changqovuzimni ko‘rmadingmi?

Tilim aylanmay qoldi. Chunki uni dalada bolalar bilan mushtlashib, oldirib qo‘ygan edim. Rangim oqarib ketdi. Zo‘rg‘a: “Yo‘q, joyida turgandir...” – dedim yerga qaragancha...

Chidab turolmadim, nima bo‘lsa bo‘lar, dadamga aytib bersa, nari borsa, bir tarsaki yerman yoki pensiyadan menga beriladigan maktab pulidan mahrum bo‘larman, degan o‘yda kechki ovqatdan so‘ng hammasini aytib berdim. Avvaliga ishonqiramay qaradi, so‘ng peshonasi tirishib kuldi: “Chalib ko‘rdingmi o‘zi? Agar qiziqsang, chalishni o‘zim o‘rgataman...”

Ertasi kuni mendan changqovuzni tortib olgan bolaning dadasi uni buvimga olib kelib, uzr so‘rab ketdi. Shundan keyin buvijonim menga changqovuz chalishni o‘rgata boshladi. Juda yosh edim. Har qancha harakat qilsam ham o‘rgana olmasdim. Lekin uning sehrli navosi yuraklarni titratib yuborar, buvim esa kuy yangray boshlaganda ko‘zlariga yosh olardi.

Buvimning bolaligi ayni Ikkinchi jahon urushi davriga to‘g‘ri kelgan, unda ikki akasi va otasini yo‘qotgan. Ehtimol, bizga chalib beradigan kuylarida ana shu tarix, ayovsiz urush dahshatlari aks etgandir. Biz yosh bo‘lganimiz bois buni ko‘p ham tushunmas edik.

Buvimning vafotidan keyin to‘plagan kitoblari va sevimli changqovuzi menga qoldi. Har gal qishloqqa borib, mo‘jazgina kutubxonamga kirsam, buvim bilan o‘tkazgan damlarga xayolan sayr qilaman. Kitoblarga qarab, xotiralarga cho‘maman. Ichim to‘lib ketsa, changqovuz chalaman, kuy ta’sirida beixtiyor pinhona yig‘lab, yengil tortaman.

Islom Asilbekov

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 14 21/08/24 12:29

18. **Quyidagi so‘zlar va ularning izohini o‘zaro moslab yozing.**

1	taxmon		**A**	atrofi o‘ralgan, asosan qo‘ylarni saqlashga mo‘ljallangan maxsus joy
2	baxmal		**B**	ipak tuklar bilan qoplangan mato, duxoba
3	qo‘ra		**D**	shon-sharafga ega, dong taratgan, shuhratli
4	tarsaki		**E**	ayamay, rahm-shafqatsiz
5	shonli		**F**	yashirincha, maxfiy
6	ayovsiz		**G**	sandiq qo‘yib, ustiga o‘rin-ko‘rpa yig‘iladigan tokchasimon joy
7	pinhona		**H**	ochiq kaft bilan yuzga berilgan zarb, shapaloq

1. Hikoya qahramoni hayotining qaysi davriga oid voqealarni eslamoqda?
2. Changqovuzni o‘g‘irlagan qahramon nima uchun aybini tan olishga qaror qildi?
3. “Ertasi kuni mendan changqovuzni tortib olgan bolaning dadasi uni buvimga olib kelib, uzr so‘rab ketdi”. Bolaning otasi to‘g‘ri ish tutdimi? Nima uchun?
4. Qahramonning aytishicha, buvisi changqovuz chalganida nimalarni xotirlardi?
5. Hikoya qahramoni hayotida changqovuzning qanday o‘rni bor? Changqovuz bilan bog‘liq xotiralar unga nimalarni eslatadi?

19. **Berilgan so‘zlarning qaysi biri gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z bilan ma’nodoshlik hosil qila olishini aniqlang.**

1. Har gal pochtachi amaki pensiya pulini olib kelganida *jonajon* changqovuzini chalib berardi.

yoqimli | qadrdon | quvnoq

2. Kechki *payt* echkilarni daladan haydab kelib, qo‘raga qamayotganimda “qo‘lga tushdim”.

mahal | kun | zamon

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 15 21/08/24 12:29

3. Kechki *ovqat*dan so‘ng hammasini aytib berdim.

taom | yegulik | tushlik


4. Lekin uning sehrli *navo*si yuraklarni titratib yuborar, buvim esa kuy yangray boshlaganda ko‘zlariga yosh olardi.

ohang | qo‘shiq | soz

5. Har gal qishloqqa borib, *mo‘jazgina* kutubxonamga kirsam, buvim bilan o‘tkazgan damlarga xayolan sayr qilaman.

kichik | ajoyib | mo‘jizali

1. Tanlab olgan so‘zlaringizni qo‘yib, gaplarni yozing. Gap mazmunida qanday o‘zgarishni sezdingiz?
2. Quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. Aytilishi va yozilishida qanday farq borligini yozing.



20. Matn asosida berilgan savollarga javob bering va to‘g‘ri javoblarni daftaringizga yozing.

1 Hikoya qahramoni buvisining ko‘zoynaksiz kitob o‘qiy olishini aytish orqali nimaga ishora qilgan?	**A**	Kitoblarni qadrlashiga
	B	Ko‘zi ravshanligiga
	D	Ko‘zoynakni yoqtirmasligiga
	E	Ko‘p kitob o‘qishiga

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 16 21/08/24 12:29

2 Hikoya qahramoni changqovuzni buvisidan so‘roqsiz olib ketishiga nima sabab bo‘ldi?	**A**	Changqovuzni chalish ishtiyoqi
	B	O‘rtoqlariga ko‘rsatib maqtanish
	D	Baxmalda nima borligiga qiziqish
	E	Changqovuzni sotishga intilish

3 Hikoya qahramoni changqovuz chalishni o‘rgana boshlashiga nima sabab bo‘ldi?	**A**	Buvining bolada changqovuzga qiziqish borligini sezib qolishi
	B	Buvi o‘zidan keyin bu changqovuzdan nabirasi foydalanishini istashi
	D	Changqovuz chala olishini boshqalar oldida ko‘rsatishga intilishi
	E	Buvining changqovuz chalish an’anasini saqlab qolishni istashi

Quyidagi fikrlarning qaysilari to‘g‘ri ekanini aniqlang. Javobingizni izohlang.

1. Qahramonning buvisi changqovuzni juda avaylar, uni hech kimga ishonmas edi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

2. Buvisi doimo pensiyasidan bolaga maktabi uchun pul berar edi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

3. Nevarasi changqovuzni so‘roqsiz olganidan buvining jahli chiqdi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

4. Buvining bolaligi urush davriga to‘g‘ri kelgan.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

5. Buvisi boshqa nabiralariga nisbatan hikoya qahramonini ko‘proq yaxshi ko‘rar edi. Shu sababli vafotidan so‘ng kitoblari va sevimli changqovuziga uning egalik qilishini xohlagan.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 17 21/08/24 12:29

21. **Nima uchun changqovuz chalishni boshlaganda buvining ko‘ziga yosh kelardi? Matndan buning sababi izohlangan qismni topib, daftaringizga yozing.**

22. **Matndan qahramonning buvisiga xos quyidagi sifatlar ifodalangan jumlalarni topib, daftaringizga yozing.**

kitobxon	...
san’atsevar	...
mehribon	...
dardli	...

Quyidagi jumlalarni qayta o‘qing. Tinchlik haqidagi tasavvurlaringizni rasm orqali ifodalashga harakat qiling. Chizgan rasmingizga nom qo‘ying. Bunda oila a’zolaringizdan maslahat olishingiz mumkin.

Buvimning bolaligi ayni Ikkinchi jahon urushi davriga to‘g‘ri kelgan, unda ikki akasi va otasini yo‘qotgan. Ehtimol, bizga chalib beradigan kuylarida ana shu tarix, ayovsiz urush dahshatlari aks etgandir. Biz yosh bo‘lganimiz bois buni ko‘p ham tushunmas edik...



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 18 21/08/24 12:29

23. “Changqovuz” matnining birinchi gapini o‘qing va topshiriqlarni bajaring.

Sakson bilan sirlashgan, ko‘zoynaksiz kitob o‘qiydigan buvim bor edi.

1. Ajratib ko‘rsatilgan bo‘lakdan qanday ma’noni anglash mumkin?
2. Ushbu ma’noni yana qanday so‘zlar yordamida ifodalash mumkinligini o‘ylab ko‘ring, bir nechta namuna yozing.
   Sakson bilan sirlashgan – sakson yoshga kirgan, ...
3. Nima uchun muallif aynan yuqoridagi jumladan foydalanganini tushuntiring.

So‘zni yakka holda ko‘rganda yoki eshitganda anglanadigan birinchi ma’no **bosh ma’no** sanaladi.

Masalan: *bosh – odam a’zosi, oq – rang*.

Agar so‘z boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib kelsa, uning ko‘chma ma’nosi hosil bo‘lishi mumkin. Ko‘chma ma’no bosh ma’nodan farqli, unga qo‘shimcha ma’nodir.

Masalan: *ko‘chaning boshi – ko‘chaning boshlang‘ich qismi, oq yo‘l – xatarsiz yo‘l*.

24. Birikmalar tarkibidagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar ma’nosini aniqlang.

ko‘ylakning **etagi**	**toza** qalb	qozonning **qulog‘i**	odamning **ko‘zi**
tog‘ning **etagi**	**toza** kiyim	odamning **qulog‘i**	buloqning **ko‘zi**

25. “Changqovuz” matnidan olingan birliklarni o‘qing. Ular bosh yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanayotganini ayting.

ko‘zi tushmoq | tarsaki yemoq | ko‘zlariga yosh olmoq | yengil tortmoq

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 19 21/08/24 12:29

26. Ajratib ko‘rsatilgan birliklar qanday ma’noni ifodalashini berilgan izohlar yordamida aniqlang. Ushbu birliklarni izohlari bilan moslab ko‘chiring. Ustozingiz yordamida ularning qaysilari ko‘chma ma’noni ifodalashini tahlil qiling.

1. Yuqori hovlining burchagidagi uyga onda-sonda kirib qolsam, taxmondagi javonda turgan qalin kitoblar, taxlam-taxlam gazeta-jurnallardan **boshim aylanib,** bir zum to‘xtardim.
2. **“O‘g‘irlab olganim”**ni buvim ko‘rgan ekan. Kechki payt echkilarni daladan haydab kelib, qo‘raga qamayotganimda **“qo‘lga tushdim”**.
3. **Tilim aylanmay qoldi**. Chunki uni dalada bolalar bilan mushtlashib, oldirib qo‘ygan edim. **Rangim oqarib ketdi**. Zo‘rg‘a: “Yo‘q, joyida turgandir...” – dedim yerga qaragancha...

qo‘rqib ketmoq, vahimaga tushmoq

biror nojo‘ya ish bilan tutilmoq

biror gap-so‘z ayta olmay qolish

ruxsatsiz, so‘ramay olish

muvozanat buzilib, atrofdagi narsalarning aylanayotgandek tuyulishi

27. Quyidagi so‘zlarni bosh va ko‘chma ma’nolarda qo‘llab, gaplar tuzing.

Namuna

Qaynamoq – 1. Qozonda sho‘rva **qaynayapti**.
2. Dalalarda ish **qaynaydi**.

oyoq, og‘iz, qattiq, sovuq,
to‘qimoq, erimoq



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 20 21/08/24 12:29

She’rni ifodali o‘qing. Matndan ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni toping. Ularni o‘z ma’nosida qo‘llab, gaplar tuzing.

Otamning bog‘i

Sayr qilsang bu bog‘da,
Chiroyi ko‘zing olar.
Hayratlanib shu chog‘da
Og‘zing ochilib qolar.

Kular xandonpistalar –
Bog‘ning quvnoq qizlari.
Iboli giloschalar
Turar cho‘g‘day qizarib.

Bu xo‘b odobli tok-da,
Egilib tutar uzum.
Qara lampochka nokka,
Yorishib ketar yuzing.

Qandday deysan totisang,
Ana shu – qandak o‘rik.
Yodingga tushar choynak,
Anov behini ko‘rib.


Pishib yorilgan anor –
Yoyilib kulgan pari.
Ko‘rinar qator-qator
Yoqut misol tishlari.

Bu yoqqa boq, bu yoqqa,
Ko‘rsatay bog‘ go‘zalin.
So‘zim kirmas quloqqa,
Olma terar ko‘zlaring.

Qay biriga qarashni
Bilmay shoshib qolding-a?
Shaftolini aytolmay,
“Shap-shap-shap” deb tolding-a?

Shunday, mevasin totib
To‘yarsan o‘zing, do‘stim.
Lekin bu bog‘ga boqib,
To‘ymasdi ko‘zing, do‘stim.

Dilshod Rajab



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 21 21/08/24 12:29

Ayting-chi, sizga gullar yoqadimi? Ularni o‘stirish, parvarishlash-chi? Nima uchun?

Dunyoni gullarga burkagan bola



Bolakay tabiatni yaxshi ko‘rarkan. Ayniqsa, bir-biridan go‘zal, rang-barang xushbo‘y gullarni ko‘rganda beixtiyor yayrab, quvonib, bahridili ochilib ketarkan. Gullarni ona zaminning bor nafosatini o‘zida jamlagan nozik bo‘lagi deb bilib, ularni ko‘paytirishni o‘ylab yurarkan.

Kunlarning birida onasi olib kelgan gultuvaklarni ko‘rib, orzusini amalga oshirish uchun birinchi qadamni tashlashga ahd qilibdi. Tuvakka gul urug‘larini ekib, mehr bilan parvarish qila boshlabdi. “Gullarim gurkirab o‘sib, ochilsa, uyimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shiladi, ota-onam ham xursand bo‘ladi”, – degan fikr uni yanada ilhomlantiribdi.

Oradan bir necha kun o‘tib, tuvakdan nafis gullar unib chiqibdi. Ularning go‘zalligi barchaning havasini keltiribdi. Buni ko‘rgan ota-onasi mamnun bo‘lib, “Balli, o‘g‘lim!” – deya bolakayni maqtashibdi.

Maqtovlardan ruhlangan kichik bog‘bon katta ishlarga bel bog‘labdi. Qo‘liga belkurakchasini olib, hovlining bir burchagiga tuvakdagi gullardan o‘tqazibdi. Natijada mo‘jazgina chamanzor paydo bo‘libdi.

Mehnatsevar bolakay bor kuchini ishga solib, hovlisini gulzorga aylantirishga kirishibdi. Unga ba’zan otasi, gohida onasi yordam beribdi. Jajji singlisi Rayhona ham qo‘liga chelakchasini olib, gullarga suv quyibdi. Vaqt o‘tib, bolakay orzu qilganidek, hovlisi gullarga burkanibdi.

Qo‘ni-qo‘shnilar gulzorga aylangan hovliga havas bilan qarasharkan. Mahalladosh qizaloqlar bolakaydan “Bilimlar kuni”ga gullar berishini iltimos qilishibdi. Bolakay o‘zi parvarishlagan gulzordan ajoyib guldastalar yasab beribdi.

Mehnatlari ortidan rahmatlar eshitgan kichik bog‘bon erta bahor uyining yonginasidan o‘tgan ariq bo‘yini chopa boshlabdi. Shu payt yo‘l chetida yig‘ilib turgan bekorchi bolakaylardan biri uni so‘roqqa tutibdi:

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 22 21/08/24 12:29

– Ha, nima qilmoqchisan?

– Ko‘chamizni gulzorga aylantiraman, – dadil javob beribdi gulsevar bolakay.

– Bo‘ladigan ishni qilsang-chi?! – debdi o‘yinqaroq bolalardan biri.

– Ko‘cha juda katta bo‘lsa, bu ishni eplolmaysan, – suhbatga qo‘shilibdi koptok tepayotgan bola.

Bolalarning savol-javobini eshitib turgan qo‘shni otaxon suhbatga aralashibdi:

– Men bu bolakayni yaxshi bilaman, u hovlisini gulzorga aylantirgan. Ko‘chamizni ham gullarga burkashiga ishonaman.

Kichik bog‘bon ter to‘kib mehnat qilibdi. Dadasi uning belkurakchasini qayrab, o‘tkirlab berarkan. Onasi esa bolakay va uning singlisi Rayhonaga yangi chelakchalar olib kelibdi.

Ikki-uch oyda ko‘chadagi ariq yoqasi xushbo‘y gullarga to‘libdi. Rang-barang gullarga to‘la chamanzor ko‘chadan o‘tayotgan har bir odamga zavq bag‘ishlarkan.

Katta-kichik mahalladoshlar bu chamanzor oldida suratga tushishga odatlanishibdi. Gulzorni ko‘rganlarning barchasi bolakayga tasannolar aytibdi.

Shukrullo Abdullayev

1. Ayting-chi, tabiat shaydosi deganda qanday inson ko‘z oldingizga keladi?
2. Bolakay nima maqsadda bo‘sh tuvakka gul ekishga qaror qildi?
3. Nima uchun bolakay ko‘chaga ham gul ekishni istab qoldi?
4. Bekorchi bolalar hikoya qahramonining bu ishiga qanday munosabatda bo‘ldi?

28. Hikoyadan bolaga xos quyidagi sifatlarni ifodalovchi jumlalarni topib, yozing.

mehnatsevar	...
tabiat shaydosi	...
ezgulik ulashuvchi	...

29. Bolaning qiziqishiga ota-onasi qanday munosabatda bo‘ldi? Matndan shu bilan bog‘liq ikkita jumlani topib, yozing.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 23 21/08/24 12:29

30. **Matnda qo‘llangan quyidagi so‘zlarning ma’nodoshlarini topib, ayting. Ularni o‘zaro taqqoslang. Nima uchun muallif aynan ushbu so‘zdan foydalangan deb o‘ylaysiz?**

1	burkamoq	* * *
2	parvarish qilmoq	* * *
3	jajji	* * *
4	bekorchi	* * *

Hikoya mazmuni asosida bolakayning hovlisini ko‘z oldingizga keltiring. Uni tasvirlab 5–6 gapdan iborat kichik matn yozing.

31. **Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring va to‘g‘ri javoblarni daftaringizga yozing.**

1. Matnda gullar bilan burkangan yerga nisbatan qanday so‘zlar qo‘llanganini aniqlang. Bir nechta javobni tanlashingiz mumkin.

- gulzor
- guliston
- chamanzor
- gulbog‘
- chechakzor
- gulshan

2. Ushbu jumla orqali o‘yinqaroq bola gulchi bolaga nima demoqchi bo‘ldi? Javobingizni daftarga yozing.

– Bo‘ladigan ishni qilsang-chi?! – debdi o‘yinqaroq bolalardan biri.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 24 21/08/24 12:30


3. Matnni bolalar jurnalining qaysi ruknida berish mumkin deb hisoblaysiz? Nima uchun?



32. Quyidagi gaplarni ko‘chiring. Ulardagi ko‘chma ma’noli so‘zni aniqlab, tagiga chizing. Bosh ma’nosini ham yozib qo‘yishni unutmang.

1. Ayniqsa, bir-biridan go‘zal, rang-barang xushbo‘y gullarni ko‘rganda beixtiyor yayrab, quvonib, bahridili ochilib ketarkan.
2. Maqtovlardan ruhlangan kichik bog‘bon katta ishlarga bel bog‘labdi.
3. Mehnatlari ortidan rahmatlar eshitgan kichik bog‘bon erta bahor uyining yonginasidan o‘tgan ariq bo‘yini chopa boshlabdi.
4. Yo‘l chetida yig‘ilib turgan bekorchi bolakaylardan biri uni so‘roqqa tutibdi.
5. Ikki-uch oyda ko‘chadagi ariq yoqasi xushbo‘y gullarga to‘libdi.

33. Berilgan kichik sarlavhalar yordamida matnni uch qismga ajrating.



34. Matndan olgan uchta xulosangizni yozing.

Namuna — *Tabiat shaydosi bo‘lgan odam ezgu ishlarni amalga oshiradi.*

Tabiatni asrab-avaylashga undovchi rasm chizing va uni nomlang.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 25 21/08/24 12:30

35. **Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Ulardagi harakat va holatni ifodalovchi so‘zlarni topib, yozing. O‘zingiz ham xuddi shunday fe’llarga misol keltiring. Buni musobaqa shaklida bajarishingiz ham mumkin.**



36. **Rasmlardagi harakat va holatni ifodalovchi so‘zlar ishtirokida 3 ta gap tuzib, yozing.**

Namuna

Uchqun dars tayyorlayapti.

Fe’llar harakat va holatni ifodalaydi.

Masalan: *Hasharda yigitlar meva **uzdi**, qizlar yer **supurdi**. (harakat) Keksalar yoshlarning mehnatsevarligini ko‘rib **quvondi**. (holat)*

Harakat yoki holatni shaxs yoki narsa bajaradi. Ushbu shaxs yoki narsa ***bajaruvchi*** deyiladi. **Masalan:** ***Mevalar** pishdi. **Bog‘bon** ularni qushlardan himoya qilmoqda.*

37. **Bo‘sh o‘rinlarga fe’llarni qo‘yib, matnni ko‘chiring. Fe’llarning nutqimizdagi o‘rni haqida fikr yuriting.**

Bir tezuchar kabutar bor ekan. U juda uzoq-uzoqlarga ... ekan. Kunlardan bir kuni bir podsho uni ... ... va qafasga ... . (Qafas juda chiroyli ekan. Kabutarga don va suv ... . Lekin kabutar donni ..., suvdan ... . Chunki u juda xafa ekan. Ko‘zlarini ... , osmonda maza qilib ... kunlarini eslab, ...). Falakning gardishi bilan bechora qush ko‘p yillar qafasda ... . Bir kuni (qafasning eshigi ochiq qolgan ekan) kabutar (paytdan foydalanib) ... . U osmonga ..., xursand bo‘lganidan gir-gir ... . Keyin o‘z uyi tomon ... . Kabutar bir necha kunlik yo‘lni birpasda ... . Uyiga ... . Qarasa, uychasi buzilib, vayron bo‘lgan ekan. Kabutar qattiq ... . Ammo qaytib podshohnikiga ... . “Podshohning qafasida nima qilaman? U yer menga begona. Bu yer esa buzilgan, vayrona bo‘lsa ham, o‘z uyimdir”, – deb uyini tuzatishga kirishibdi.

“Saddi Iskandariy” dostonining nasriy bayonidan

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 26 21/08/24 12:30

38. **Hikoyatga mos maqollarni tanlang. Fikringizni izohlang.**

Vatani borning baxti bor, Mehnati borning – taxti.	Har qush o‘z uyasiga qarab uchar.
Bulbulga bog‘ yaxshi, Kaklikka – tog‘.	Vataning tinch – sen tinch.

Maktabga kelgan ilk kuningizni yodga oling. Bu haqda “Maktabga kelgan ilk kunim” mavzusida kichik matn yozing.

39. **Berilgan fe’llarni ikki guruhga ajratib yozing.**

Jismoniy harakatni ifodalovchi so‘zlar	Holatni ifodalovchi so‘zlar
sakramoq	qizarmoq

yayramoq, quvonmoq, bilmoq, ulashmoq, parvarishlamoq, ochilmoq, xursand bo‘lmoq, boshlamoq, ekmoq, solmoq, quymoq, aylanmoq, hayron qolmoq, eplamoq, hayratlanmoq

Fe’llar nimani atab kelishiga ko‘ra **harakat** va **holat fe’llari**ga bo‘linadi.

Harakat fe’llari jismoniy faoliyat natijasida ro‘y bergan harakatni bildiradi. **Holat fe’llari** esa shaxsning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchisiga o‘tish jarayonini ifodalaydi.

Masalan: *o‘stirmoq* – harakat fe’li, *isimoq* – holat fe’li.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 27 21/08/24 12:30

40. **Quyidagi fe’llarni ikki guruhga ajrating.**

Harakat fe’llari	Holat fe’llari
yozmoq	sarg‘aymoq

yozmoq, yugurmoq, sarg‘aymoq, xafa bo‘lmoq, gaplashmoq, qimirlamoq, qizarmoq, yasamoq, ikkilanmoq, hayratlanmoq

Har qanday mazmundagi gaplar yig‘indisini matn deya olamizmi? Nima uchun?


Matn bir nechta gapdan tuziladi. Gaplar matnni hosil qilishi uchun:
1) biror mavzu doirasida birlasha olishi;
2) mazmun va grammatik jihatdan bog‘langan bo‘lishi lozim.

Masalan: *Mahallamizda ikkita do‘kon bor. Ular yonma-yon joylashgan. Lekin ko‘pchilik o‘ng tomondagi do‘kondan savdo qiladi. Chunki u yerda mahsulot turlari ko‘proq.*

Yuqoridagi matn mahalladagi do‘konlar mavzusida bo‘lib, gaplar mazmunan va grammatik jihatdan (*ular, u yerda, lekin, chunki* so‘zlari yordamida) bog‘langan.

41. **Quyidagi diagrammada yurtimizdagi teatr, muzey va mehmonxonalar soni haqida ma’lumot keltirilgan. Savollarga javob berish orqali ma’lumotlarni yozma shaklda ifodalang.**

	Soni
Teatr	50
Muzey	134
Mehmonxona	1167



stat.uz saytidan (2023-yil)

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 28 21/08/24 12:30

1. Diagrammada qanday ma’lumotlar aks ettirilgan?
2. Ular qaysi manbadan olingan?
3. Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda nechta muzey, teatr va mehmonxona bor?
4. Ularning foiz bo‘yicha ulushi qanday?
5. Ularning qaysi biri son jihatidan ko‘proq?
6. Qaysi biri kamroq?

Rasmda ifodalangan voqealar ketma-ketligi asosida hikoya yozing. Atrofni tasvirlashni ham unutmang. Hikoyangizga sarlavha qo‘ying.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 29 21/08/24 12:30

42. **Orif To‘xtashning “Vatan degan so‘z” she’rini tinglang.**

1



43. **Quyidagi so‘zlarning matnda ifodalagan ma’nosini aniqlab, yozing.**

So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda
qarog‘	...	...
shoyad	...	...
almisoq	...	...
to‘p	...	...
zang	...	...
muddao	...	...
xolis	...	...

1. Shoir “Vatan” so‘zini anglashni qanday jarayonlar bilan bog‘lamoqda?
2. O‘tmishda Vatan sarhadlari va tinchligi uchun kurashgan ota-bobolarimiz haqida nimalarni bilasiz?
3. Nima uchun shoir urushni “almisoq mavzu” demoqda?
4. Vatanni madh etish deganda nimani tushunasiz?

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 30 21/08/24 12:30

44. **She’rdan olingan ushbu misralarni o‘qituvchingiz yordamida sharhlab yozing.**


Tuprog‘ini tilloday suyib, Tasavvurni ranglamoq kerak.	?	Shahid jonlar haqqi bemalol – Qarog‘larni namlamoq kerak.	?
U baxt axir, bedavo dardmas, Otin aytib hayqirish shartmas.	?	Bo‘yni uzun to‘plarning og‘zi – Muzeylarda zanglamoq kerak.	?

45. **She’rdan olingan quyidagi so‘zlarni harakat va holat fe’llariga ajrating.**

Harakat fe’llari	Holat fe’llari

anglamoq, suymoq, ranglamoq (rang bermoq), hayqirmoq, nazar tashlamoq, jamlamoq, kurashmoq, namlamoq, zanglamoq, olmoq, o‘ylamoq, so‘ylamoq, yashamoq, unutmoq, yozmoq, yangramoq

Diqqat, “Jonajon Vatanim” loyihasi!
1-bosqich. Vatanga bo‘lgan muhabbatni ifodalashning turli shakllari mavjud. Quyidagi izohlar bilan tanishing. Vatan mavzusidagi ijodiy ishlarning qaysi shakli sizga ko‘proq ma’qul keladi? Qobiliyatingizga mos ifoda usuli haqida o‘ylab ko‘ring. Fikrlaringizni qisqacha qayd eting.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 31 21/08/24 12:30

46. **Chap ustundagi so‘zlarni o‘ng ustundagi so‘zlar bilan bog‘lab yozing.**

go‘zal	bolakay
xushchaqchaq	bobo
mehnatsevar	tabiat
oqil	xodim
mehribon	qish
kumush	ona
oltin	musiqa
sho‘x	bino
baland	kuz

47. **Yuqoridagi topshiriqda hosil qilingan birikmalar ishtirokida gaplar tuzing va yozing.**

Namuna

Xushchaqchaq bolakayning quvnoq kulgisi dillarni yayratib, hammaga xush kayfiyat bag‘ishlaydi.

48. **Jadvaldagi ko‘rsatmalar asosida topshiriqlarni bajaring.**

1-matn

Matn	Tahlil
Qishlog‘imiz kishi havas qilgulik ajoyib makondan o‘rin olgan. Qishloqning shimoli-g‘arb tomonida qadimgi davrlardan qolgan qizil tuproqli kenglik yastangan. Janubi-sharqiy tarafida esa dunyodagi eng yuksak tog‘lardan biri bo‘lgan Hisor tizmasi savlat to‘kib turadi. Qishloqdan tog‘gacha masofada, ya’ni bir-biriga tutashib, mingashib ketgan ulkan qirliklar, vahimali chuqur jarliklar, odam oyog‘i yetib-yetmagan soyliklardan iborat yovvoyi hududda turli jonivorlar juda serob. *Normurod Norqobilov* *(Matn qisqartirib olindi.)*	*So‘zlarni izohlang:* sarhad, yastangan, savlat to‘kmoq, serob. *Sarlavha:* _____ *Nimalar tasvirlangan?* _____ Matn asosida quyidagi savollarga javob toping: *Qanday makon?* _____ *Qanday kenglik?* _____ *Qanday tog‘?* _____ *Qanday qirliklar?* _____ *Qanday jarliklar?* _____ *Qanday hudud?* _____

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 32 21/08/24 12:30

2-matn

Matn	Tahlil
Hovlimizdan oqib o‘tadigan ariq labidagi bu daraxt qishlog‘imizda yagona hisoblanardi. Daraxtning bo‘yi uyimiz tomi bilan teng edi. U eniga uncha tarvaqaylab ketmagan, xuddi butalganday qaddi tik, tanasi va shoxlari esa rahmatli bobomning hassasiday sip-silliq edi. Daraxtning kishini hayratga soladigan bir jihati bor edi. U yilda ikki marta – bahor va kuz boshlarida gullar, biroq meva tugmas edi. Bahorda daraxtning g‘uj-g‘uj pushti g‘unchalari hovlimizga o‘zgacha fayz baxsh etar, uning shoxlaridan qushlar arimas edi. Kuz boshlarida gullashi, chindan ham, hayratomuz edi. Odamlar bunday paytda uning atrofida o‘ralashib, “Nahot daraxt ham kuzda gullasa?!” – deya ko‘zlariga ishonmay, qo‘llari bilan nafis g‘unchalarni ushlab-ushlab ko‘rishar edi. Yana shunisi qiziqki, hech kim, hatto otam ham uning qanaqa daraxt ekanini bilmas edi. Biz, bolalar, uning ensiz kichik barglariga, tekis shoxlariga qarab gilosga o‘xshatardik va o‘zimizcha uni gilos deb atardik. Aslida gilos emasligini bilardik... Daraxt otamga bobomeros yodgorlik hisoblanar, shu sababli uni nihoyatda avaylardi. *Shodiqul Hamro*	*So‘zlarni izohlang:* tarvaqaylab, butalganday, pushti, hayratomuz, o‘ralashib, fayz, arimas edi, bobomeros. *Sarlavha:* _____ *Nimalar tasvirlangan?* _____ Matn asosida quyidagi savollarga javob toping: *Qanday ariq?* _____ *Qanday daraxt?* _____ *Qanday g‘unchalar?* _____ *Qanday barglar?* _____ *Qanday shoxlar?* _____ *Qanday yodgorlik?* _____



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 33 21/08/24 12:30

49. Quyidagi rasmlarni kalit so‘zlar yordamida tasvirlab bering.



alvon ko‘ylak,
tillarang kamzul,
katta salla,
o‘ychan ko‘zlar…



ko‘k zarchopon,
tillaqosh,
zebigardon,
qora qoshlar,
kitob…

Diqqat, “Jonajon Vatanim” loyihasi!
2-bosqich. O‘zingizga yoqqan usul (she’r, hikoya, surat, qo‘shiq va b.) bilan Vatanga muhabbatingizni ifodalovchi ijodiy ish tayyorlang.

50. Do‘ppi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishing. Ularning qaysilari do‘ppini tasvirlovchi gaplar hisoblanadi?

1. O‘zbeklar qadimdan boy madaniyati bilan atrofdagilarni hayratga solgan.
2. Milliy liboslar va bosh kiyimlar kundalik hayotning ajralmas qismi bo‘lgan.
3. O‘zbek do‘ppilari boshqa xalqlar bosh kiyimlaridan o‘ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi.
4. Zero u o‘zbek madaniyatining bir bo‘lagi, o‘z egasi haqida gapira oladigan bosh kiyimidir.
5. Do‘ppini deyarli hamma: erkaklar, ayollar, keksalar, qizlar va o‘g‘il bolalar kiyadi.
6. Do‘ppi uch qismdan – tepa (aylana va to‘rtburchak shaklida bichiladi), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan tuzilgan.
7. Dastlabki do‘ppilar uchi o‘tkir shaklda, salla bilan kiyishga mo‘ljallab, kizagi (do‘ppining gardish shaklidagi o‘rta qismi) keng, jiyakli qilib tayyorlangan.
8. O‘zbekistonning har bir hududi o‘ziga xos do‘ppisi bilan ajralib turadi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 34 21/08/24 12:30

51. Quyidagi ma’lumotlar bilan tanishing. Berilgan tavsif va rasmlar muvofiqligini aniqlang.

1. Buxoro zardo‘zlarining zardo‘zi-guldo‘zi va zardo‘zi-zamindo‘zi do‘ppilari badiiy jihatdan yuqori baholanadi. Buxoroning do‘ppisi zarrin naqshli bo‘lib, tasmaga tilla va kumush rangli iplar bilan tikiladi.
2. Shahrisabz do‘ppisi kashta iplari sug‘urilib, to‘r holiga keltirilgan matodan tayyorlanadi. Rangli ipak yoki ingichka tolali paxta ipi bilan iroqi chok (terma va bosma usul)da tikiladi. Iroqi do‘ppining eng yaxshilarini Shahrisabz va Kitob do‘ppido‘zlari yaratishgan.
3. Chust do‘ppilari to‘q rangda bo‘ladi. Do‘ppidagi timsollar oq iplarda tikilgan. Bu rang quyosh va musaffolik belgisidir. Do‘ppi atrofida o‘n oltita qubba tasviri bor. Chust do‘ppilarini taxlangan holda saqlash qulay. Har bir tax qismi o‘z nomiga ega: tepa, kizak, jiyak kabi.
4. Boysun (erkaklar) do‘ppisi – ranglarning noodatiy uyg‘unligidagi do‘ppi. Har bir rangning o‘ziga xos ma’nosi bor. Masalan, xantal-sariq rang – paxta gulini, oq rang – paxtaning o‘zini ifodalaydi.

1



2



3



4



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 35 21/08/24 12:30

52. **50–51-topshiriqlardagi ma’lumotlar asosida tasviriy matn yozing.**

53. **Do‘ppi haqida yozgan matningizni ifodali o‘qib bering.**

54. **Tuzgan matningiz uchun sarlavha topib, yozing.**

Do‘ppi – milliylik timsoli | O‘zbek do‘ppisi | O‘zbek milliy do‘ppilari | ...

Diqqat, “Jonajon Vatanim” loyihasi!
3-bosqich. Ijodiy ishingiz taqdimotiga tayyorlaning.

Taqdimot payti quyidagi ko‘rsatmalarga rioya qiling:

- ijodiy ishingizni nima uchun aynan shu shaklda (matn, qo‘shiq, rasm va b.) tayyorlaganingizni izohlang;
- ijodiy ishingizni namoyish etishni qayta-qayta mashq qiling;
- taqdimotingiz 2–3 daqiqadan oshib ketmasligiga e’tibor bering.

55. **Diqqat, “Jonajon Vatanim” loyihasi!**
4-bosqich. Ijodiy ishingizni taqdim eting.

Bir xil mavzuda, ammo ikki xil shaklda tayyorlangan ijodiy ishni o‘zaro taqqoslang. Ularning farqli jihatlari haqida qisqa izoh yozing.

“Jonajon Vatanim” mavzusidagi ijodiy ishlar

she’r | hikoya | surat | ...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 36 21/08/24 12:30

Mustaqil o‘qish uchun

O‘ZBEKISTON

(qasidadan parcha)

Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun
Olam aro atagan tanho.
Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o‘lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston – Vatanim manim!..

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg‘ay olmas barchasin ko‘zim.
Maqtamasman moziyni, biroq
O‘tmishingni o‘ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi buyuk jahongir.
Aytgum bu kun: u manim, manim,
O‘zbekiston – Vatanim manim!

Bobolardan so‘z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug‘ilgan ilk bor
Ko‘ragoniy jadvallarida.
Qotil qo‘li qilich soldi mast,
Quyosh bo‘lib uchdi tilla bosh.
Do‘stlar, ko‘kda yulduzlar emas,
U Ulug‘bek ko‘zidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim,
O‘zbekiston – Vatanim manim!

Ko‘z oldimdan kechar asrlar
Ko‘z-ko‘z etib nuqs-u chiroyin.
Sarson o‘tgan necha nasllar
Topolmasdan tug‘ilgan joyin.
Amerika – sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor
Beruniyning aql mash’ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O‘zbekiston – Vatanim manim!

Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh yer osti.
Lekin, do‘stlar, she’r ahli aro
Jahongiri kam bo‘lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston – Vatanim manim!

Bobolardan so‘zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o‘zingsan buyuk.
Sen o‘zingsan eng so‘nggi nonin
O‘zi yemay, o‘g‘liga tutgan.
Sen o‘zingsan farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o‘tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O‘zbekiston – Vatanim manim!..

Zavol ko‘rma hech qachon, o‘lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo‘l, g‘olib bo‘l, o‘ktam,
Do‘st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug‘ bashar oilasida
Mangu yorug‘ peshonang sening.
Mangu yorug‘ maskanim manim,
O‘zbekiston – Vatanim manim!

Abdulla Oripov

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 37 21/08/24 12:30

Bob yuzasidan takrorlash

56. Insonga xos sifatlarni alifbo tartibida yozishni davom ettiring. Unli va undosh tovushlarning talaffuziga e’tibor bering.

Aqlli	Bilimdon	Dono	Epchil	F…	G…	H…
I…	J…	K…	L…	M…	N…	O…
P…	Q…	R…	S…	T…	U…	V…
X…	Y…	Z…	O‘…	Sh…	Ch…	…ng …

57. She’rni o‘qing. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarni aniqlang. Ularni bosh ma’nosida qo‘llab gaplar tuzing va yozing.

Rahmi kelib bulutning
Yig‘lab to‘kar yoshini.
Qushlar qochar, majnuntol
Ko‘taradi boshini.
Bulutning orasidan
Quyosh kulib qaraydi,
Majnuntolning yuvilgan
Sochlarini taraydi.

Erkin Vohidov



Ko‘chma ma’no

Bosh ma’no

58. Maqollardagi harakat va holat fe’llarini alohida ustunlarga ajratib yozing.

Suv bersang elga,
Yasharasan ming yilga.

Yurt qo‘risang, o‘zarsan,
Qo‘rimasang, to‘zarsan.

Ekin yerida ko‘karar,
Er – elida.

Tug‘ilgan yerdan ko‘ngil uzilmas,
Yurt qo‘riganning yurti buzilmas.

Qush ham ketsa, keladi –
O‘z elini sevadi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 38 21/08/24 12:30

59. **“Jonajon Vatanim” mavzusida tayyorlangan ijodiy ishlardan birini tanlab, quyidagi mezonlar asosida baholang.**

Nima uchun aynan shu shakldagi ijodiy ishni (matn, qo‘shiq, rasm va hk.) tanlaganini izohlab bera olsa	**1 ball**
Ijodiy ishni to‘liq taqdim etsa	**1 ball**
Og‘zaki va yozma nutq qoidalariga rioya qilsa	**1 ball**
Ajratilgan vaqtga rioya qilsa	**1 ball**
Taqdimot sifati yaxshi bo‘lsa	**1 ball**
Jami:	**5 ball**


Rasmdagi narsa-buyumlar nomini toping. Ular ishtirokida 4 ta darak gap tuzib, yozing.






1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 39 21/08/24 12:30

FAN VA TEXNOLOGIYALAR



1. **Matnlarni o‘qing va savollarga javob bering.**



Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy algebra fanining asoschisi hisoblanadi. “Algebra” so‘zi uning “Al-jabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” risolasidan olingan. Bugungi zamonaviy texnologiyalar uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan “algoritm” atamasi esa olimning taxallusidan kelib chiqqan.

Har safar sonlarni yozganingizda Xorazmiyning aql-zakovatidan foydalanayotgan bo‘lasiz. Chunki aynan shu buyuk ajdodimiz hozir butun dunyoda ishlatilayotgan sonlarni yozishning o‘ziga xos usulini muomalaga kiritgan. Xorazmiy Yerning 1 gradusli meridiani uzunligini shu qadar aniq o‘lchaganki, bu o‘lchov undan keyin 700 yil davomida hech qanday o‘zgarishsiz qolgan.

Agar birgina inson butun olam sir-asrorini ochishga qodir bo‘lsa, bu aynan Abu Rayhon Beruniydir.
U birinchilardan bo‘lib Yer sharining o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishini isbotlagan. Mutafakkir bobomiz insoniyat tarixida birinchi bo‘lib globus yasagan va Yerning radiusini yuqori aniqlikda o‘lchagan. Hatto ummon ortida yana bir qit’a mavjudligini Kolumb Amerikani kashf etishidan 450 yil oldin taxmin qilgan. Beruniy Iogann Keplerdan 600 yil avval sayyoralarning oval orbita bo‘ylab harakatlanishi nazariyasini ilgari surgan va trigonometriya faniga asos solgan.



Abu Rayhon Beruniy



Abu Ali ibn Sino

Abu Ali ibn Sino – dunyo tan olgan buyuk qomusiy olim. Alloma G‘arbda “Avitsenna”, Osiyoda “Shayxurrais” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Uning “Tib qonunlari” asari Sharq-u G‘arbda 700 yildan ortiq davr mobaynida tibbiyot uchun asosiy manba bo‘lib kelgan. U insoniyat tarixida ilk bor ko‘z jarrohligi amaliyotini o‘tkazgan va singan suyaklarni gipslash yo‘li bilan davolagan. O‘sha davr kishilari Ibn Sinoni “Olimlar peshvosi”, “Tabiblar podshohi” deb ulug‘lagan.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 41 21/08/24 12:30



Mirzo Ulug‘bek

Mirzo Ulug‘bek turkiydan tashqari arab, fors, mo‘g‘ul va xitoy tillarini ham bilgan. U Samarqandni ilm-fan markaziga aylantirgan. Samarqanddagi mashhur Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrida dunyoning eng zamonaviy inshooti bo‘lgan. Bobomiz osmonni kuzatib, yulduzlar harakatini aniqlagan. “Ziji Ko‘ragoniy” asari o‘sha davrning eng mukammal astronomik jadvali bo‘lib, unda 1018 ta yulduzning aniq joylashuv o‘rni (koordinatasi) keltirilgan. Bu jadvaldan taniqli Yevropa astronomlari ham foydalangan. Olimning ilmiy ishlari nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda tan olingan.

1. Qomusiy olimlarning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi haqida qanday ma’lumotlarni bilib oldingiz?
2. Ushbu qomusiy olimlar haqida yana nimalarni bilasiz?
3. Ularning ilmiy qarashlari qaysi fanlar rivojlanishiga sabab bo‘lgan?
4. Ayting-chi, sizda ham olim bo‘lish istagi bormi? Agar olim bo‘lsangiz, fan-texnika rivojiga qanday hissa qo‘shgan bo‘lar edingiz?

2. Berilgan qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishing. Ularning qaysi fan (matematika, tabiiy fanlar) yoki soha (tibbiyot)ga oid ekanini yozing.

Qiziqarli ma’lumotlar	Fan / soha
1. Eng oddiy teleskop truba va ikkita maxsus shisha, ya’ni linzalardan iborat bo‘ladi.	* * *
2. Cho‘ldagi eng dahshatli va mudhish hodisa samum deb ataluvchi shamoldir. Bu shamol esganda cho‘l kuylayotganga o‘xshaydi.	* * *
3. 1 dan 100 gacha bo‘lgan jami sonlar yig‘indisi 5050 ga teng.	* * *
4. “Lunoxod-1” kosmik apparati Oy sathida 10 kilometrdan ortiq masofani bosib o‘tgan va ma’lumot to‘plagan.	* * *

21/08/24 12:30

www.idum.uz saytidan yuklab olindi


Qiziqarli ma’lumotlar	Fan / soha
5. Inson tanasining qon bilan ta’minlanmaydigan yagona qismi – ko‘zning shoxpardasi. U kislorodni bevosita havodan oladi.	* * *
6. Quyunlar ko‘p hollarda elektr zaryadiga ega bo‘ladi. Shuning uchun quyun vaqtida chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburlaydi.	* * *


3. Yuqoridagi ma’lumotlar tarkibidan matematika, tabiiy fanlar va tibbiyotga doir atamalarni aniqlab, yozing.

Qiziqadigan faningiz qaysi? Uni o‘qib-o‘rganish orqali kelajakda qanday ixtirolar qilish mumkinligi haqida qisqa matn yozing.


Men ko‘proq ... faniga qiziqaman. Bu fanga qiziqishimning asosiy sababi ... . Bu fan orqali ... o‘rganish mumkin.











1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 43 21/08/24 12:30

Ayting-chi, qanday soat turlarini bilasiz? Ular bizga nima uchun kerak?

Soatning paydo bo‘lish tarixi



1 “Aqlli” texnikalar ertaklarda bo‘lgani kabi hayotimizni mo‘jizalar bilan boyitadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Odamlar ko‘zoynak va soatlar g‘ayritabiiy bo‘lib ko‘ringan vaqtlarda televizor, kompyuter imkoniyatlarini tasavvurlariga ham sig‘dira olishmagani aniq. Vaholanki, hozir ulardan bolalar ham foydalana oladi.

Vaqt bo‘ylab sayohat fantastik kitob va kinofilmlarning odatiy mavzusi desak, adashmagan bo‘lamiz. Bu hodisani biz hozircha tasavvur qilib ko‘ra olamiz xolos. Insoniyat uch yarim ming yil oldin vaqtni o‘lchash uchun ilk qadamlarini qo‘ygan, ya’ni turli ko‘rinishdagi ajoyib soatlar bilan vaqtni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan.



2 Dastlabki aniq ishlaydigan quyoshli vaqt o‘lchagich aylana shaklida bo‘lib, vaqt ko‘rsatkichi yarim aylanaga taqsimlab chiqilgan. Aylana markaziga tikka qilib, soyasi soat mili vazifasini bajaradigan o‘q – gnomon joylashtirilgan. Gnomonning soyasi quyoshning harakatiga qarab vaqtni ko‘rsatib turgan. Lekin bulutli havoda bunday soatlar ishlamas edi. Chunki ular aynan quyosh nuri va soyaga asoslangan edi. Shuning uchun olimlar yanada mukammalroq soat ustida bosh qotira boshladi.

Qum va suv soatlari deyarli bir vaqtda yaratilgan. Qadimgi Rimda suv soatlarini “klepsidra” deb atashgan. “Oradan qancha suvlar oqib o‘tdi” iborasi ham aynan ana shunday suv soatlari tufayli kelib chiqqan.



3 Qum soati ichidagi qum bir idishdan ikkinchisiga o‘rtada qoldirilgan kichik tuynuk orqali o‘tadi. Tepa shishadagi barcha qum pastga tushgach, soat teskarisiga to‘nkarib qo‘yiladi va jarayon yana xuddi shu tarzda davom etadi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 44 21/08/24 12:30

4 Mexanik soatlar o‘rta asrlarda Yevropada paydo bo‘lgan. Ular toshlar yordamida harakatga keltirilgan. Toshlar zanjirga bog‘langan va pastga tushishi mobaynida soatning millarini aylantirgan. Toshning zanjiri aylana shaklidagi g‘ildirakka ulangan, bu esa uzluksiz harakatni ta’minlagan. Keyinchalik bu g‘ildirakning chetlari qirrali qilib ishlanishi natijasida millarning aniq vaqt oralig‘ida harakatlanishiga erishilgan. Bu yangilik soatning sekin va barqaror ishlashini ta’minlagan. Natijada vaqtni o‘lchashning aniqligi yanada ortgan.

5 Toshli soatlarni devorga osish mumkin bo‘lgan, biroq ularni olib yurishning iloji yo‘q edi. Ilk cho‘ntak soatlarini XVI asrda nemis ustasi Peter Genleyn ixtiro qilgan. U soat ichidagi toshni prujinaga almashtirgan va bunday soatlarni bo‘yinga osib yoki cho‘ntakda olib yurish mumkin bo‘lgan.

6 Qulayligi bilan ajralib turadigan qo‘l soatlari 1809-yildan ommalasha boshlagan. Istalgan paytda vaqtni bilish imkonini beradigan bunday qo‘l soatlarini odamlar yuqori baholashgan.

“Kashfiyot va ixtirolar” bolalar ensiklopediyasidan



4. Quyidagi so‘zlarning izohlari bilan tanishing. Ularning qaysi biri matndagi so‘z ma’nosiga mos ekanini aniqlab, yozib oling.

Mubolag‘a	
tasvirlanayotgan, ta’riflanayotgan odam yoki narsaning belgilarini orttirib ko‘rsatish	bo‘rttirish, oshirib yuborish, lof
G‘ayritabiiy	
tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydigan, sababini bilib bo‘lmaydigan	sun’iy, yasama; g‘alati
Fantastika	
tasavvurda tug‘ilgan, g‘aroyib, g‘ayritabiiy hodisalarning xayoliy tasviri	g‘aroyib obrazlar bilan tasvirlangan badiiy ijod turi, janr (adabiyot, kino, tasviriy san’atda)

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 45 21/08/24 12:30

Mil

uchi ingichka, keskir temir asbob

soat va boshqa o‘lchov asboblarining ko‘rsatkichi, strelka



5. Matndagi yangi so‘zlarni topib, ularni izohlashga urinib ko‘ring. Bunda matnda keltirilgan ma’lumotlardan foydalaning.

Gnomon –	* * *
Klepsidra –	* * *
...	* * *
...	* * *



1. Muallif “vaqt o‘lchagich” deganda nimani nazarda tutmoqda?
2. Soat bilan vaqtni o‘lchash imkoniyati qachon paydo bo‘lgan?
3. Quyosh nuri va soyaga asoslangan soatlar vaqtni o‘lchashga qay tarzda yordam bergan?
4. Qum va suv soatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Berilgan ma’lumotlar asosida mexanik soatlar qanday ishlashini tushuntiring.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 46 21/08/24 12:30

6. Matndan quyidagi atamalar bilan bog‘liq eng muhim bittadan ma’lumotni daftaringizga namunadagidek yozing.

Namuna — Soatlarning eng qadimgi shakli uch yarim ming yil avval paydo bo‘lgan.

quyosh soati | qum soati | mexanik soatlar | toshli soatlar | cho‘ntak soati

Biror uy-ro‘zg‘or buyumining paydo bo‘lish tarixi haqida o‘ylab ko‘ring. O‘z farazlaringizni yozib keling.

7. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring va javoblarni daftarga yozing.

1. Quyidagi gapga mazmunan mos jumlani aniqlang.

“Aqlli” texnikalar ertaklarda bo‘lgani kabi hayotimizni mo‘jizalar bilan boyitadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

A. “Aqlli” texnikalar biz ertaklardagina tasavvur qilishimiz mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni ham taqdim eta oladi.
B. “Aqlli” texnikalar inson hayotini yanada yaxshilaydi va ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etadi.
D. Bugungi kunda insonlar “aqlli” texnikalarsiz o‘z hayotlarini tasavvur qila olmaydilar.
E. “Aqlli” texnikalar oldin ertaklarda tilga olingan, vaqt o‘tishi bilan ular insonlar hayotiga kirib kelgan va kelmoqda.

2. Ushbu fikr orqali aynan nima nazarda tutilmoqda?

Insoniyat uch yarim ming yil avval vaqtni o‘lchash uchun ilk qadamlarni qo‘ydi.

A. Yerning Quyosh atrofini to‘liq aylanib chiqish vaqti.
B. Soat bilan vaqtni o‘lchay olish imkoniyatining paydo bo‘lishi.
D. Insoniyat bir sutkaning necha soatga teng ekanini aniqlashi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 47 21/08/24 12:30

3. Quyosh soatining eng katta kamchiligi nima edi?

A. Quyosh soatidan ko‘pchilik foydalanishni bilmagan.
B. Quyosh soati vaqtni aniq ko‘rsatmagan.
D. Quyosh soati juda og‘irligi uchun uni ko‘tarib yurish noqulay bo‘lgan.
E. Quyosh soati bulutli havoda ishlamagan.



8. Matn mazmuni asosida berilgan xulosalarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Javoblaringizni asoslang.

1. Quyosh soati aylana shaklida bo‘lib, unda vaqt ko‘rsatkichi yarim aylanaga taqsimlab chiqilgan.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

2. Qum va suv soatlarining yaratilish davri bir-biriga juda yaqin.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

3. Mexanik soatlardagi toshlar zanjirga bog‘lanib, pastga tushishi mobaynida uning millarini harakatlantiradi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

4. Mexanik soatlarning millari tezroq harakatlanishi uchun soat ichidagi aylanalarning cheti qirrali qilib yasala boshlagan.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

5. Toshli soatlarni devorga ilishning ham, cho‘ntakda olib yurishning ham imkoni bo‘lmagan.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri



9. “Soatning paydo bo‘lish tarixi” matniga tayanib quyidagi savollarning qaysilariga javob olish mumkin?

- Qadimgi qum soatlarini kim o‘ylab topgan?
- Dastlabki soatlar qachon paydo bo‘lgan?
- Qadimgi soatlar qanday shaklda bo‘lgan?
- Qadimda ishlatilgan qum soatlarining qanday kamchiliklari mavjud edi?
- Cho‘ntak soatlarini kim nechanchi asrda ixtiro qilgan?

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 48 21/08/24 12:30

10. **Yuqoridagi topshiriqda belgilagan savollaringizga javob yozing. Matndan kelib chiqib yana ikkita qo‘shimcha savol tuzing va partadoshingizga bering. U esa savollarga javob yozsin.**

Rasmlarni taqqoslang. Zamonaviy qo‘l soatlarining imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlardan foydalanib matn yozing.



Mexanik soatlar	“Aqlli” (smart) soatlar
* * * * *	* * * * *
* * * * *	* * * * *

11. **“Soatning paydo bo‘lish tarixi” matnidan olingan quyidagi so‘zlarni talaffuz qiling. Ulardan qaysilari yozilganidek talaffuz etilmaydi?**

ertak | vaqt | televizor | odamlar | millar | kompyuter | gnomon | cho‘ntak | Yevropa | aylana | devor

Nutqimizda ***a*** va ***o*** tovushlarining yozilishi va aytilishi doim ham mos kelavermaydi.

Jumladan, ***a*** tovushi *s**a**vol, z**a**mon, b**a**ho, j**a**hon, n**a**vbat, var**a**q* so‘zlarida ***o*** kabi aytilsa-da, ***a*** yoziladi.

O tovushi *k**o**mpyuter, **o**kean, m**o**nitoring, **o**monim* singari so‘zlarda ***a***, *t**o**nna, Yevr**o**pa, t**o**rt kabi* so‘zlarda ***o‘*** aytilsa-da, ***o*** yoziladi.

*Term**o**s, torm**o**z, direkt**o**r* kabi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inidagi ***o*** tovushi ***i*** ga moyil aytilsa ham, ***o*** yoziladi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 49 21/08/24 12:30

12. **Talaffuzi va imlosi o‘zaro mos bo‘lgan so‘zlarni bir ustunga, mos bo‘lmaganlarini ikkinchi ustunga yozing.**

texnologiya, bozor, texnika, hamon, murvat, tomon, shamol, hujayra, faktor, tamom, mexanika, mutolaa, taajjub, lug‘at, gavda, tizim, vafo, olmos, rux, havo, molekula, bolt, nota, jihoz, traktor, mahorat, direktor

Talaffuzi va imlosi mos	Talaffuzi va imlosi mos emas
* * * * *	* * * * *
* * * * *	* * * * *
* * * * *	* * * * *

13. **Xato yozilgan so‘zlarni imlo qoidalari asosida to‘g‘rilab ko‘chiring.**

komol, ta’rif, zovol, novda, sovdo, tovof, hovola, toqozo, tomon, jamol, matba, tassurot, fanetika, monitor, stomatalogiya, beton, anto‘nim, innovatsiya, ko‘mpas, bialogiya

14. **Yuqoridagi so‘zlardan 3 tasini tanlab, ular ishtirokida gap tuzing.**

Berilgan so‘zlarni yana qanday ifodalash mumkin?

Oftob – ...

Yaratmoq – ...

Sinonim (ma’nodosh)lar bir umumiy ma’noni ifodalaydi. Bir nechta sinonim so‘z **sinonimlar qatorini** hosil qiladi.

Masalan: *osmon, fazo, samo, ko‘k*.

Sinonimlar qatoridagi hammaga tushunarli va nutqda faol qo‘llanadigan so‘z **bosh so‘z** hisoblanadi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 50 21/08/24 12:30

Quyidagi jadvalning 1-ustunidagi so‘zlarga 3-ustundan sinonimlar topib, ularni 2-ustunga yozing.

1	2	3
odam	kishi, inson, kimsa	esli, payt, kishi, miyali, zamon, kallali, narsa, ochiq, fursat, oqil, mahal, chog‘, inson, yaqqol, muddat, dam, lahza, predmet, ravshan, kimsa, ko‘lanka, oydin
aqlli	...	
vaqt	...	
soya	...	
buyum	...	
aniq	...	

15. “Soatning paydo bo‘lish tarixi” matnining qismlari va kichik sarlavhalarni moslab ko‘chiring. Diqqat! Ikkita sarlavha ortiqcha.

Kichik sarlavhalar	Matn qismlari
Vaqtni o‘lchash sari ilk qadam	1
Qum soatlarining ishlash tartibi	2
Qo‘l soatining ommalashishi	
Mexanik soatlarning paydo bo‘lishi	3
Cho‘ntak soatlarining ixtiro qilinishi	4
Quyosh soati	
Qo‘l soatlarining afzalliklari	5
Suv soatlarining foydalanishdan chiqib ketishi sabablari	6

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 51 21/08/24 12:30

16. **“Soatning paydo bo‘lish tarixi” matni uchun yana qanday sarlavha tanlash mumkin?**

?	Soat qanday paydo bo‘lgan?	?

17. **Berilgan so‘zlarning sinonimlarini topib, yozing.**

ixtiro	so‘zlamoq
ilm	avval
o‘qimoq	foydalanmoq
bahs	rivoj
barcha	buyuk
ko‘p	izlamoq

18. **Yuqoridagi so‘zlarning sinonimlari ishtirokida 4 ta gap tuzing. Har bir gapda o‘sha so‘zlardan kamida ikkitasini qo‘llang.**

Namuna

Bobolarimiz bir qancha fanlarni mukammal o‘rganib, ulkan kashfiyotlar qilgan.

“Agar soat bo‘lmasa...” mavzusida ijodiy matn tuzing. Fikrlaringizni dalillashga urining.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 52 21/08/24 12:30

Daraxtlar hosil berish uchun quvvatni ildizlari orqali yerdan oladi. Mobil qurilmalar esa elektr toki yordamida quvvatlab turiladi. Insonlar ham katta kashfiyotlar uchun ana shunday quvvat manbayiga ehtiyoj sezadi. Ayting-chi, insonlar quvvatni kimlardan yoki nimalardan olishi mumkin?



Qadim-qadimdan insoniyat tabiat hodisalari sirlarini anglashni, ularni o‘ziga bo‘ysundirishni, adolatni, baxt va saodatni orzu qilgan. Barcha xalqlarning orzu-niyatlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, turlicha ifodalangan. Ana shu ezgu maqsadlar ifodasi o‘laroq xalq og‘zaki ijodida ertak janri paydo bo‘lgan. “Ertak” so‘zining lug‘aviy ma’nosi – *aytib bermoq*, *hikoya qilmoq*dir. Shundan kelib chiqib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarining eng qadimiy namunalari ham o‘z-o‘zidan dunyoga kelgan emas. Birgina “Ur, to‘qmoq” ertagini olsak, o‘tmishda ota-bobolarimiz zolimlardan ko‘p aziyat chekib, adolatli jamiyatda to‘kin-sochin yashash umidida shunday mo‘jizaviy buyumlar haqida xayol qilgan.

“Ochil, dasturxon”ni tasvirlab, qachondir dasturxonlari to‘kin-sochin bo‘lishini, mazali ovqatlarni to‘yib tanovul qilishni orzulagan. Har qanday orzuga o‘zgalarga yaxshilik qilish va mehnat orqali erishiladi. Laylakni davolagan chol obrazi bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Qadimiy ertaklarimizdan yana biri “Uchar gilam”ni olaylik. Eslasangiz, ertak qahramoni bir cholni uchratadi. Chol unga gilam sovg‘a qiladi. Ushbu gilam sehrli bo‘lib, u bilan istalgan joyga bir zumda yetib olish mumkin edi. Ertakdagi bu majoziy gilam keyinchalik samoda bemalol ucha oladigan samolyot, vertolyot singari texnika vositalarining yaratilishiga asos bo‘lgan.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 53 21/08/24 12:30

Bugun siz texnika asrida yashayapsiz. Samolyot, raketa nima ekanini yaxshi bilasiz. Hatto samolyotning kichikroq nusxasini o‘zim yasab bera olaman desangiz, men ishonaman. Chunki darslik, televizor, turli jurnallar, internet orqali bunday texnik vositalarning yasalishi va ichki mexanizmi haqida ma’lumotga ega bo‘lishingiz mumkin. Ammo ular o‘z-o‘zidan ixtiro qilinmagan. Ularning yaratilish sirini sizga ochsam: olimlar ko‘pgina ixtirolariga asos bo‘lgan g‘oyalarni aynan xalq ertaklaridan olgan! Ha, ishonavering, ertaklardan!

Buning dalil-isbotlaridan biri uchar gilamdir. Axir uchar texnik vositalar haqidagi tushunchalar paydo bo‘lmay turib, juda qadimdan insonlar osmonga parvoz qilish haqida o‘ylay boshlagan. Bu amalga oshirish mumkin bo‘lgan orzu ekanini his etishgan va uchar gilam haqida ertaklar to‘qishgan. Leonardo da Vinchining dastlabki uchish moslamasi bo‘yicha izlanishlar olib borishi, XIX asrga kelib esa ilk samolyotning yaratilishiga uchar gilam haqidagi ertaklar bosh g‘oya bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, ne ajab.

Televizor yaratilishiga ham ertaklarda tilga olinadigan “Oynayi jahonnamo” turtki bo‘lganiga shubha qilmasak bo‘ladi. Zero televizorning hozirgi nomlaridan biri ham oynayi jahon-ku!

Xullas, aytmoqchi edimki:

Yorug‘ olamdagi hech qaysi ertak aslida mutlaq “ertak” emas!

Ertaklar – qadimda yashagan ajdodlarimizning umid va armonlari!

Ertaklar – qadimda yashagan ajdodlarimizning o‘git va nasihatlari!

Ertaklar – dono ajdodlarimizning asrlar osha bizga yo‘llagan g‘oya va kashfiyotlari!

Bayram Ali

19. Matndan olingan so‘zlarga mos izohlarni toping.

So‘zlar	Izohlar
1) aziyat chekmoq	A yo‘q qilmoq, yo‘qotmoq, bartaraf etmoq
2) daf qilmoq	B so‘z yoki iboraning o‘z ma’nosidan boshqa, ko‘chma ma’noda ishlatilishi

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 54 21/08/24 12:30

3) majoziy	**D** qarama-qarshi maqsaddagi kishi, dushman
4) mexanizm	**E** ruhiy va jismoniy azoblanish
5) yov	**F** biror narsaning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va yaxlitlikni tashkil etuvchi qismlari



1. Xalq og‘zaki ijodida ertaklarning paydo bo‘lishiga nimalar sabab bo‘lgan?
2. “Ur, to‘qmoq”, “Uchar gilam” singari ertaklar zamirida qanday g‘oyalar borligi haqida gapiring.
3. Ertaklar chindan ham buyuk ixtirolar uchun asos bo‘la oladimi? Javobingizni izohlang.



20. O‘zaro ma’nodosh so‘zlarni moslashtiring va daftaringizga yozing.

Namuna — daf qilmoq, yo‘qotmoq, haydamoq, quvmoq

tanovul qilmoq		yo‘qotmoq, haydamoq, quvmoq
eslamoq		iste’mol qilmoq, ovqatlanmoq, yemoq
nobud bo‘lmoq		xotirlamoq, yodga olmoq, yod etmoq
daf qilmoq		halok bo‘lmoq, vafot etmoq, qurbon bo‘lmoq
kashf qilmoq		yaratmoq, ixtiro qilmoq, bunyod etmoq

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 55 21/08/24 12:30

21. Matnni o‘qish jarayonida muallif ko‘proq sizga, ya’ni o‘quvchiga murojaat qilayotganini sezdingizmi? Keltirilgan jumlalarning qaysilari shunga ishora qiladi? O‘zingiz ham matndan shunday jumla topib, daftaringizga yozing.

- Qadim-qadimdan insoniyat tabiat hodisalari sirlarini anglashni, ularni o‘ziga bo‘ysundirishni, adolatni, baxt va saodatni orzu qilgan.
- Hatto samolyotning kichikroq nusxasini o‘zim yasab bera olaman desangiz, men ishonaman.
- “Ochil, dasturxon”ni tasvirlab, qachondir dasturxonlari to‘kin-sochin bo‘lishini, mazali ovqatlarni to‘yib tanovul qilishni orzulagan.
- Ularning yaratilish sirini sizga ochsam: olimlar ko‘pgina ixtirolariga asos bo‘lgan g‘oyalarni aynan xalq ertaklaridan olgan!
- Axir uchar texnik vositalar haqidagi tushunchalar paydo bo‘lmay turib, juda qadimdan insonlar osmonga parvoz qilish haqida o‘ylay boshlagan.

22. Berilgan sarlavhalarning qaysi biri ertaklar haqidagi matnga ko‘proq mos keladi? Javobingizni asoslang.

Haqiqatga aylangan ertaklar	Ertaklarda yashirin mo‘jizalar	Ertaklar – buyuk ixtirolar asosi

O‘zingiz o‘qigan ertaklar haqida o‘ylab ko‘ring. Ular qanday ixtirolarga turtki bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni yozing.

23. Berilgan so‘zlarning qaysilari imlo qoidalariga ko‘ra to‘g‘ri yozilganini ertaklar haqidagi matndan tekshiring. Xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab ko‘chiring.

ertak	saodat	aziyat	intrnet	Lianardo Da Vinchi
insoniyat	tushincha	adolat	hikoya	oynayi jahonnamo
tabiyat	tanovil	tilivizor	mexanizm	uchush moslamasi

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 56 21/08/24 12:30

E tovushi *k**e**cha, **e**kran, n**e**’mat* kabi so‘zlarda aniq talaffuz qilinadi. *T**e**l**e**fon, t**e**atr, ok**e**an, mat**e**rial* kabi so‘zlarda **i** ga o‘xshash aytiladi, lekin **e** yoziladi.

U tovushi *kund**u**zi, qov**u**n, tov**u**q* kabi so‘zlarda **i** kabi aytilsa ham, **u** yoziladi.

24. Berilgan so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing.

e’lon, erkin, teleskop, teleboshqaruv, belanchak, ertak, kofe, bemor, kerosin, matematika, e’zozlamoq, real

e kabi talaffuz qilinadi	***i*** kabi talaffuz qilinadi
* * * * *	* * * * *

Urganch, uzum, qunduz, urush, tuvak, sovun, qayg‘u, turna, kurmak, o‘quv, qurut, yozuv, yutuq, butun, sovuq, buzuq

u kabi talaffuz qilinadi	***i*** kabi talaffuz qilinadi
* * * * *	* * * * *

25. Nuqtalar o‘rniga mos unlilarni qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring.

ur...shmoq | mavq... | ...rgimchak | sup...rgi | obr.... | kechqur...n

...lon | be...’tibor | ust...n | mumk...n | t...xtamoq | tel...vizor

I tovushi ***i**lan, **i**r, k**i**r, qirg‘oq, **i**rapcha* kabi so‘zlarda qisqa talaffuz etilsa ham, yozuvda saqlanadi.

O‘ tovushi ayrim shevalarda **u** ga o‘xshash aytilsa ham, ***o‘*** yoziladi.

Masalan: *t**o‘**y, **o‘**rdak, x**o‘**roz.*

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 57 21/08/24 12:30

26. **Berilgan so‘zlarni ikki ustunga ajratib yozing.**

husnixat, bilak, izoh, birov, internet, mexanika, yozgi, optika, haqida, imzo, yorqin, iste’mol, kilogramm, bir, qiziq, tirnoq, orbita, fikr, ilm

i to‘liq talaffuz qilinadi	*i* qisqa talaffuz qilinadi
* * * * * _____	* * * * * _____

27. **Daftaringizga qisqa talaffuz qilinuvchi *i* ishtirok etgan 5 ta so‘z yozing.**

Namuna *kiyik, biroq, ...*

Diqqat, loyiha!
Loyiha ishi 5 bosqichdan iborat bo‘lib, unda har bir guruh lug‘at tayyorlashi lozim.

1-bosqich. To‘rt guruhga bo‘lining. Guruh a’zolari bilan qanday lug‘at yaratish haqida fikrlashing.

Olqish so‘zlar lug‘ati, murojaat so‘zlari lug‘ati, qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar lug‘ati, taom nomlari lug‘ati, uy-ro‘zg‘or buyumi nomlari lug‘ati.

28. **Qaysi gaplarda biror xatti-harakatning bajarilmagani ifodalangan?**

1. So‘z doriga o‘xshaydi – ortiqchasi zarar keltiradi.
2. Ayrilmagin elingdan, quvvat ketar belingdan.
3. Orol o‘sha-o‘sha. Uzoqdan turib qarasang, ko‘z to‘ymaydi.
4. Ipakday mayin, buloq suviday tiniq xayollaringizga hech kim xalal bermaydi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 58 21/08/24 12:30



Fe’llar bo‘lishli va bo‘lishsiz turlarga bo‘linadi. Bo‘lishli fe’llar harakat yoki holatning bajarilishini bildiradi.

Masalan: *ko‘rmoq, ko‘rdi, ko‘radi*.

Bo‘lishsiz fe’llar esa harakat yoki holatning bajarilmasligini bildiradi.

Masalan: *ko‘rmadi, ko‘rmaydi*.



29. Quyida berilgan ma’lumotlar bilan tanishing. Bo‘lishsiz fe’llar ishtirok etgan gaplarni daftaringizga ko‘chirib oling.

Zamonaviy texnologiyalarning ayrim kasblarga ta’siri

Robotlar qanday kasblarning “kushanda”siga aylanishi mumkin? “Ideonomika” sayti robototexnika va zamonaviy texnologiyalar tufayli yaqin bir necha yil ichida eskirishi mumkin bo‘lgan yettita kasbni aniqladi.

1. Haydovchi

Ehtiyoj 2038-yilda kamayadi.

Avtomatik boshqariluvchi mashinalar ustida izlanishlar davom etmoqda. O‘n besh – yigirma yilda nafaqat kirakashlar, balki umuman haydovchilarga ehtiyoj qolmasligi mumkin.

2. Hisobchi

Ehtiyoj 2028-yilda kamayadi.

Sun’iy idrok (SI) asosiga qurilgan buxgalterlik dasturlari shu qadar kuchli va arzon mahsulotga aylanadiki, “jonli” hisobchilar ular bilan raqobatlasha olmaydi.

3. Yurist yordamchisi

Ehtiyoj 2026-yilda kamayadi.

Yuristlarga ham avtomatlashtirilgan yordamchilar ko‘proq asqatadi. Ular tezroq ishlaydi, ko‘proq narsa biladi va hech qachon dam olmaydi.

4. Aviadispetcher

Ehtiyoj 2038-yilda kamayadi.

2034-yilga borib aviadispetcherlar xatosi bilan ro‘y berishi mumkin bo‘lgan halokatlar xavfi tufayli hukumatlar parvozlarni kompyuterlar boshqarishini talab qila boshlaydi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 59 21/08/24 12:30

5. Avtoturargoh xodimi

Ehtiyoj 2028-yilda kamayadi.

Yangi texnologiyalar mashinaning avtoturargohda qancha turganini aniq kuzatish imkonini beradi, bu to‘lov masalasiga oydinlik kiritadi.

6. Turoperator

Ehtiyoj 2025-yilda kamayadi.

Sayyohlik agentligi saytiga kirasiz, safar rejangizni aytasiz, sayt aniqlashtiruvchi savollar yordamida sizga qulay yo‘nalishni tanlab beradi.

7. Tarjimon

Ehtiyoj 2031-yilda kamayadi.

Taxminan 2028-yillarda Google og‘zaki nutqni aniq tarjima qiluvchi dasturiy vositani ishlab chiqadi. Shu bilan “jonli” tarjimonlarga zarurat qolmaydi.

daryo.uz saytidan

30. Quyida berilgan fe’llarni bo‘lishsiz fe’llarga aylantirib yozing.

Namuna

O‘ynamoq – o‘ynamaslik, ixtiro qilingan – ixtiro qilinmagan, ...

o‘ynamoq, ixtiro qilingan, ko‘rib beramiz, so‘zlab beribdi, o‘rganmoq, uchratyapsiz, paydo bo‘lib, kashf etilgan edi, qizidi, tasavvur qilish, tarjima qilmoqchi, sovib qolibdi, bag‘ishladilar

31. Yuqoridagi fe’llar ishtirokida uchta gap tuzing.

Diqqat, loyiha!
2-bosqich. Yaratmoqchi bo‘lgan lug‘atingizni taqdim etish uchun kitobcha tayyorlashni boshlang.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 60 21/08/24 12:30

Rasmlarga qarang va matn asosida savollarga javob bering. Bunday chiroyli tasvirlar deraza oynasida qanday paydo bo‘lgan? Ular sizga nimani eslatyapti?





Nima uchun qishda deraza oynalarida naqshlar paydo bo‘ladi?

Qishi o‘ta sovuq mintaqalarda yashaydigan bolalar deraza oynalaridagi qirovni tomosha qilishni yoqtiradi. Ba’zan qirov daraxt yaproqlariga o‘xshash juda chiroyli naqshlarni hosil qiladi. Deraza oynasida bunday tasvirlar paydo bo‘lishi uchun ham ma’lum shart-sharoitlar kerak. Qirov muzlagan mayda suv tomchilari (kristallar)dan hosil bo‘ladi. Namga to‘yingan havo muzlash nuqtasiga qadar soviganidan keyin qirov hosil bo‘la boshlaydi. Muzlash nuqtasi Selsiy shkalasi bo‘yicha 0 daraja, Farengeyt shkalasi bo‘yicha 32 daraja.

Suv soviyotganda undan bug‘ chiqib, kamaya boshlaydi. Suv bug‘i deraza oynasi kabi yuzalarda kondensatsiyalanadi. Harorat 0 darajaga yetgach, bu tomchilar kristallana boshlaydi, ya’ni suv yuzasini kristallchalar qoplab oladi.

Nima uchun sovuq payti deraza oynasida naqshlar paydo bo‘ladi? Bir tarafdan, kristallar o‘ziga xos tuzilishga ega va bu naqshning shakliga ta’sir ko‘rsatadi. Oyna yuzasidagi qirilgan joylar, chang zarralari va boshqa omillar tufayli esa derazalarda chiroyli naqshlar paydo bo‘ladi.

“Bulduruq” deb ataladigan oq qirovning ikki turi bor: dona-dona qirov va kristallangan qirov. Dona-dona qirov muzlagan tumandir. Kristallangan qirov esa havodagi muzlagan suv bug‘laridir. Qirov gazsimon suv bug‘ining to‘g‘ridan to‘g‘ri qattiq holatga o‘tishidan hosil bo‘ladi.

Sovuq ob-havo qishloq xo‘jaligi uchun xavflidir. U daraxt gullari yoki yetilayotgan mevalarni nobud qilishi mumkin. Aslida sovuq havoning o‘zi emas, o‘simlik tarkibidagi suvning muzlab qolishi zararli. Dehqonlar hosilni muzlashdan asraydigan bir qancha usullarni o‘ylab topgan. Ulardan biri ekinlar ustini yopishdir. Bu holda ulardagi issiqlik saqlanib qoladi. Bog‘larda olov yoqib, quyuq tutun hosil qilish ham ekinlardagi issiqlikni saqlashga yordam beradi.

Siz oynalarda paydo bo‘lgan naqshlarga mahliyo bo‘lib o‘tirgan bir paytda minglab tonna hosilning taqdiri xavf ostida bo‘lishi mumkinligini ham esdan chiqarmang.

“Mo‘jiza kitob” bolalar ensiklopediyasidan

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 61 21/08/24 12:30



1. Siz ham oynangizga tushgan qirovni ko‘rganmisiz? U qanday shakllarda bo‘lgan?
2. Qirovning hosil bo‘lish jarayoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Bulduruq nima, uning qanday turlari bor?
4. Daraxt va o‘simliklarni qattiq sovuqdan himoya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishi haqida so‘zlab bering.



32. Berilgan izohlarga mos so‘zlarni yashil hoshiya ichidan tanlab, nuqtalar o‘rniga qo‘ying va gaplarni ko‘chiring.

kondensatsiyalanish, kristall, Selsiy shkalasi, qirov, Farengeyt shkalasi, bulduruq

ayozli, havo ochiq, sokin (shamolsiz) tunlarda tuproq, o‘t va yerdagi narsalar ustida hosil bo‘ladigan muz kristallari

1. Qattiq sovuq tufayli deraza oynasida naqshli ... paydo bo‘ladi.

zarrachalari muayyan davriy takrorlanuvchi tartibda joylashgan, fazoviy panjara hosil qiluvchi qattiq modda

2. Qirov suvning muzlashi natijasida hosil bo‘lgan mayda ...lardan paydo bo‘ladi.

suvning muzlash nuqtasidan qaynash nuqtasigacha bo‘lgan haroratni ko‘rsatadigan shkala

3. Suv haroratini o‘lchash uchun ikki xil shkaladan, ya’ni ... hamda ...dan foydalaniladi.

nemis olimi Gabriel Farengeyt nomi bilan ataluvchi harorat o‘lchov birligi

bug‘ning suvga aylanishi

4. Deraza oynalaridagi naqshli qirov suvning ...i va kristallanishidan hosil bo‘ladi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 62 21/08/24 12:30

ayozli, sovuq kunlar yoki tuman paytlarida nam havo zarralarining muzlashi natijasida hosil bo‘ladigan mayda qirov

5. Tabiatda oq qirov, ya’ni ...ning ikki turi bor: dona-dona va kristallangan qirov.



33. Matn asosida berilgan topshiriqni bajaring va javoblarni daftaringizga yozing.

I. Muallifning ushbu matnni yaratishdan **asosiy maqsadi** nima bo‘lishi mumkin?

A. Sovuq harorat sababli tabiatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqida ma’lumot berish.
B. Sovuq haroratda havodagi suv tomchilari bilan qanday jarayonlar yuzaga kelishi haqida ma’lumot berish.
D. O‘simliklar va daraxtlarni sovuqdan qanday himoya qilish haqida ma’lumot berish.

II. Matn mazmuni asosida quyida berilgan ma’lumotlarning fakt yoki fikr ekanini aniqlang.

1. Qishi o‘ta sovuq mintaqalarda yashaydigan bolalar oynalardagi naqshli qirovni tomosha qilishni yoqtirishadi.

A. Fikr B. Fakt

2. Suvning muzlash nuqtasi Selsiy shkalasi bo‘yicha 0 daraja, Farengeyt shkalasi bo‘yicha 32 daraja.

A. Fikr B. Fakt

3. Havoda muzlab qolgan suv bug‘i kristallari qirovni hosil qiladi.

A. Fikr B. Fakt

4. Harorat 0 darajadan pastga tushgach, suv kristallana boshlaydi.

A. Fikr B. Fakt

5. Sovuq daraxt gullari yoki yetilayotgan mevalarni nobud qilishi mumkin.

A. Fikr B. Fakt

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 63 21/08/24 12:30

34. Daraxt va o‘simliklarni sovuqdan himoyalashning zamonaviy usullari haqida o‘ylab ko‘ring. O‘z g‘oyalaringiz bilan o‘rtoqlashing. Nutqingiz davomida quyidagi savollarga javob bering:

1. Daraxt va o‘simliklarni sovuqdan qanday himoya qilish mumkin?
2. Buning uchun nimalar kerak bo‘ladi?
3. G‘oyangizni amalga oshirish tartibi qanday?

Diqqat, loyiha!
3-bosqich. Lug‘at kitobchangizning muqovasi va sahifalarini qanday bezash haqida o‘ylab ko‘ring. Guruh a’zolari bilan kelishgan holda ularni bezating.

35. Qishda deraza oynalarida naqshlarning paydo bo‘lishi sabablari haqidagi matn sarlavhasiga e’tibor bering. Uni quyidagi sarlavhalar bilan taqqoslang.

Deraza oynalarida naqshlarning paydo bo‘lishi sabablari	Nima uchun qishda deraza oynalarida naqshlar paydo bo‘ladi?	Deraza oynalaridagi naqshlar siri

1. Berilgan sarlavhalarning har biri ushbu matnga mos keladi deyish mumkinmi? Ular o‘rtasida qanday farq bor?
2. Nima uchun muallif aynan so‘roq gap shaklidagi sarlavhadan foydalangan?
3. Siz ushbu sarlavhalardan qay biri matnga ko‘proq mos keladi deb hisoblaysiz? Tanlovingizni izohlang.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 64 21/08/24 12:30

Matn sarlavhasi satr o‘rtasida bosh harf bilan, qo‘shtirnoqsiz yoziladi. Sarlavhadan keyin nuqta qo‘yilmaydi.

Masalan:

“Aqlli” texnologiyalar

“Mening eng yaxshi ko‘rgan fanim”, “O‘tmishdagi buyuk geografik kashfiyotlarning fan taraqqiyotidagi o‘rni haqida” kabi mavzular quyidagicha sarlavhaga aylantiriladi:

Sevimli fanim

Buyuk geografik kashfiyotlar

36. Quyidagi mavzularni sarlavhaga aylantirib yozing.

Mavzu	Sarlavha
Til o‘rgatuvchi robot ixtiro qilmoqchiman	Til o‘rgatuvchi robot
Maktabimizda ixtirochi bolalar tanlovi bo‘lib o‘tgani haqida	...
Oyga ilk bor sayohat qilgan amerikalik astronavtlar	...
Mening orzularim haqida	...
Masofaga tovush uzatuvchi eng qadimiy vosita haqida	...
Na’matak – immunitetni oshiruvchi eng yaxshi vosita	...

37. Matndan olingan quyidagi qism uchun mos sarlavha tanlang.

* * *

Sovuq ob-havo qishloq xo‘jaligi uchun xavflidir. U daraxt gullari yoki yetilayotgan mevalarni nobud qilishi mumkin. Aslida sovuq havoning o‘zi emas, o‘simlik tarkibidagi suvning muzlab qolishi zararli. Dehqonlar hosilni muzlashdan asraydigan bir qancha usullarni o‘ylab topgan. Ulardan biri ekinlar ustini yopishdir. Bu holda ulardagi issiqlik saqlanib qoladi. Bog‘larda olov yoqib, quyuq tutun hosil qilish ham ekinlardagi issiqlikni saqlashga yordam beradi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 65 21/08/24 12:30

38. **Qisqacha mazmuni berilgan matnlar uchun sarlavhalar topib yozing.**

Mazmuni	Sarlavha
Ertaklar buyuk kashfiyotlarga turtki bo‘lgani haqida ma’lumot	Ertaklar va buyuk kashfiyotlar
Kelajak robotlari qanday vazifalarni bajara olishi haqida	...
Egallamoqchi bo‘lgan kasbim to‘g‘risida	...
O‘simliklar dunyosi haqida ma’lumot	...
Yoshlikdan biror hunarni egallash zarurligi to‘g‘risida	...

39. **Tasavvur qiling, maktabingizda ixtirochi bolalar uchun tanlov o‘tkazilmoqda. Uning nomini sahna devoriga yozib qo‘yish kerak. Tanlov nomi qanday yozilishi lozim?**

“Ixtirochi bolalar – maktabimiz faxri”

Mavzu: “Ixtirochi bolalar – maktabimiz faxri”

Ixtirochi bolalar – maktabimiz faxri

Diqqat, loyiha!
4-bosqich. Lug‘at kitobchangizdan o‘rin olishi mumkin bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing. Ularni alifbo tartibida, izohlari bilan birga yozib chiqing.

Masalan:
Amma – otaning singlisi yoki opasi.
Bobo – otaning yoki onaning otasi.

40. **Berilgan sarlavhalarga e’tibor qarating. “Tabiiy fanlar”, “Tarbiya” kabi darsliklaringizdan darak, so‘roq, buyruq va istak mazmunidagi sarlavhalarga bittadan misol topib, yozing.**

	Namuna	Siz topgan misol
Darak gap	Tomas Edison – qat’iyatli kashfiyotchi	...
So‘roq gap	Tabiiy fanlar nimani o‘rganadi?	...
Buyruq gap	Olovdan saqlaning!	...
Istak gap	Qani edi ixtirochi bo‘lsam...	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 66 21/08/24 12:30

Sarlavha so‘roq gap shaklida bo‘lsa, quyidagicha yoziladi:

Radioteleskop nima?
Muz nega quvurlarni yorib yuboradi?

Sarlavhada his-hayajon ifodalansa, quyidagicha yoziladi:

Bor bo‘lsin yorug‘lik!

Sarlavha mazmunan tugallanmagan gap shaklida bo‘lsa, quyidagicha yoziladi:

Vaqtni tejay desangiz...

41. Berilgan sarlavhalarga tegishli tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.

Ko‘rinmas narsalarni ko‘rish

Qor ko‘chishiga nima sabab bo‘ladi

Xayr, maktabim

O‘zbek kimyogarlarining ixtirosi

Dinozavrlar qanday paydo bo‘lgan

Daraxtlarga qobiq nima uchun kerak

Kunlarning birida

Sog‘lom bo‘lay desangiz

Tabiiy boyliklari behisob o‘lka

42. Berilgan mavzularni darak va so‘roq gap shaklidagi sarlavhalarga aylantirib yozing.

Mavzu	Darak gap	So‘roq gap
O‘simliklarga shudring tushishining foydali jihatlari haqida	O‘simliklarga tushgan shudring foydali	O‘simliklarga shudring nima uchun kerak?
“Ulkan gaz sayyoralari” haqida ma’lumot	...	...
O‘zga sayyoralarda hayot borligi haqidagi qarashlar	...	...
Hayvonlar o‘simliklarga o‘xshashining sabablari to‘g‘risida	...	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 67 21/08/24 12:30

43. **Muayyan mavzudagi ma’lumotni turli manbalarda qanday sarlavha ostida uchratish mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring. O‘z takliflaringizni namunadagidek yozing.**

Namuna	Bolalar ensiklopediyasi	Gazeta va jurnallar
Ovqat hazm qilish jarayonida oshqozon bajaradigan vazifalar haqida ma’lumot	Oshqozon qanday ishlaydi?	Tanamizdagi doshqozon
Inson organizmini turli kasalliklardan himoya qiluvchi immun tizimi haqida ma’lumot	...	...
Quyosh sistemasi va uning tuzilishi haqida ma’lumot	...	...

Diqqat, loyiha!
5-bosqich. Guruhingiz bilan yaratgan lug‘atingizni taqdim etishga tayyorlaning. Taqdimotda lug‘atingiz haqida quyidagi ma’lumotlar aks etishi lozim:

- lug‘atning nomi;
- uning vazifasi (zarurati);
- lug‘at kitobchangizdan o‘rin olgan so‘zlardan namunalar.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 68 21/08/24 12:30

44. **Tayyorlagan lug‘atingizni taqdim eting. Taqdimotingiz 5 daqiqadan oshmasin.**

45. **Guruhlarning taqdimotini kuzating. Quyidagilarga munosabat bildiring.**

- Lug‘at kitobining tanlangan lug‘at turiga mosligi.
- Lug‘at kitobining shakli, dizayni.
- Tanlangan so‘zlarning imlosi.
- Taqdimotda adabiy til qoidalariga qay darajada rioya qilingani.

Qaysi guruhning lug‘ati sizga ko‘proq yoqqani haqida o‘ylab ko‘ring. Ushbu lug‘atni boyitish bo‘yicha takliflaringizni yozib, guruh a’zolariga taqdim eting.

46. **“Uch og‘a-ini botirlar” ertagidan olingan parchani o‘qing.**

– O‘g‘illarim, men boy emasman, mendan qoladigan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi. Mendan ortiq narsa umid qilib o‘tirmanglar, o‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ism qo‘ydim. To‘y qildim, voyaga yetkazdim. Buning ustiga sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog‘lom tanli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, qurol-yarog‘ bilan tanishtirdim – qurol-yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim – qo‘rqoq bo‘lmay, botir bo‘ldingiz. Yana uch narsani aytaman, qulog‘ingizga quyib olib, esingizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 69 21/08/24 12:30

47. Otaning o‘g‘illariga bergan uch tavsiyasiga e’tibor bering. Mazkur gaplar mazmun jihatidan qanday gaplar hisoblanadi?

1. To‘g‘ri bo‘ling. **2.** Maqtanchoq bo‘lmang. **3.** Dangasalik qilmang.

Buyruq gaplar biror ishni bajarish yoki bajarmaslikka da’vat etadi.
Masalan: *She’rni yod oling.*
Buyruq gaplar buyurishdan boshqa ma’nolarni ham bildira oladi.
Masalan: *Har kuni ertalab jismoniy tarbiya bilan shug‘ullaning. (maslahat, tavsiya)*
Kitobingni berib tur. (iltimos)
Elektr hisoblagichga tegmang! (ogohlantirish)
Niyatlaringga yet. (tilak)
Buyruq gaplar oxiriga nuqta, ba’zan undov belgisi qo‘yiladi.

48. Buyruq gap shaklidagi maqollarni ajratib, yozing.

O‘zingga ehtiyot bo‘l,
Qo‘shningni o‘g‘ri tutma!

Izzat tilasang, ko‘p dema,
Sihat tilasang, ko‘p yema.

Qalovini topsang, qor yonar.

O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir!

Yetti o‘lchab, bir kes.

Birovga choh qazigan o‘zi yiqilar.

Hunarli kishi xor bo‘lmas.

Sinalmagan otning sirtidan o‘tma.

49. Quyidagi qoidalarni buyruq gap shaklida yozing.


Kompyuterdan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari

1-qoida. Kompyuterni sozlash ishlarini o‘zbilarmonlik bilan olib bormaslik.
2-qoida. Kompyuter yoqilgan holatda sim va tok ulagichlarga tegmaslik.
3-qoida. Kompyuter yaqinida boshqa elektr asboblaridan foydalanmaslik.
4-qoida. Kompyuter xonasida tez alangalanuvchi buyum va suyuqliklarni ishlatmaslik.
5-qoida. Favqulodda vaziyatlarda tezda kattalarga xabar berish.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 70 21/08/24 12:30


50. Rasmni kuzating. Yer maketini yasash texnologiyasini yozing. Unda buyruq gaplardan foydalaning.

Yerning ichki qismi qatlamli tuzilishga ega. U Yer po‘sti, mantiya va yadrodan iborat.



Bizga kerak:

Turli rangdagi plastilinlar





Turli hajmdagi 2 ta piyola va plastmassa pichoq



Yerning maketini yasash uchun eng avval katta hajmli piyola yordamida jigarrang plastilindan Yer po‘sti hosil qilinadi. Undan so‘ng kichik hajmli piyola bilan qizil plastilindan Yer mantiyasi yasab olinadi. Keyingi bosqichda sariq rangli plastilindan dumaloq shakldagi yadro yasaladi. Ushbu shakllarni o‘zaro birlashtirish orqali Yer maketi hosil qilinadi.

Davom ettiring:

1. Qizil, sariq, jigarrang plastilin, plastmassa pichoq va turli hajmdagi 2 ta piyola tayyorlang.
2. ...

Telefondan foydalanish qoidalarini yozing. Buyruq gaplardan foydalaning.

Masalan:

1. Telefondan uzoq muddat davomida foydalanmang.
2. ...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 71 21/08/24 12:30

1. Kelajak uylarini qanday tasavvur qilasiz?
2. Ular qanday qulayliklarga ega bo‘ladi?





51. “Aqlli” uylar haqidagi videolavha bilan tanishing.

2

1. “Aqlli” uy deganda qanday imkoniyatlarga ega uyni tushunasiz?
2. “Aqlli” uyda qanday xizmatlarni maxsus signallar yordamida boshqarish mumkin?
3. Bunday uylarning paydo bo‘lishi qaysi sohalarning yutuqlari bilan bog‘liq deb hisoblaysiz?
4. “Aqlli” uylar haqida videoda aytilgan ma’lumotlardan tashqari yana nimalarni bilasiz?

52. Ikki guruhga bo‘lining. Birinchi guruh “Aqlli” uylar” mavzusida bolalar ensiklopediyasi uchun, ikkinchi guruh esa o‘zi qurmoqchi bo‘lgan “aqlli” uyni tasvirlab matn yozishga tayyorlansin. Quyidagi bosqichlarga amal qiling:

1-bosqich. Berilgan gaplar bilan tanishing. Har bir guruh a’zosi o‘z matniga mos keladigan gaplarni saralab olsin.

“Aqlli” uy bir-biri bilan simsiz aloqa vositasida bog‘langan va kundalik hayotni yanada qulaylashtiruvchi elektron moslamalar va uzatkichlar tizimiga ega bo‘ladi.

Xonadonda oilaning barcha a’zolari xavfsizligini ta’minlashga mo‘ljallangan bir nechta uzatkich va moslamalar o‘rnatilgan bo‘lishi lozim.

Bu uyimiz to‘rt qavatdan iborat bo‘ladi, bolalar va kattalar yotoqxonalari uning ikkinchi qavatida joylashadi.

“Aqlli” uyimizda katta va keng xonalar bo‘lib, oldingi uyimizdan ko‘plab qulayliklari bilan farq qiladi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 72 21/08/24 12:30

“Aqlli” uyimizga xonalardagi haroratni nazorat qilib turadigan maxsus moslama o‘rnatishni rejalashtiryapmiz.

“Aqlli” uyda resurslarni tejash imkoniyati bor. Unda yorug‘lik, harorat va namlik darajasini ovozli yordamchi va avtomatik sozlanadigan tizim orqali nazorat qilib turish mumkin.

Uy hovlisidagi shlagbaum va domofon bilan uyg‘unlashgan tizim esa barcha tashriflardan xabardor bo‘lib turishga yordam beradi.

Uyimizga yorug‘likni nazorat qiluvchi maxsus avtomatik tizim o‘rnatish ham rejalashtirilgan. Bu tizim energiyani tejash imkonini beradi.

2-bosqich. Quyidagi ma’lumotlardan matningizning qaysi qismida, qanday shaklda foydalanish mumkinligini o‘ylab ko‘ring. Matnni yozish jarayonida ulardan foydalanishingiz mumkin.



1. “Aqlli” uyda deraza oynalaridagi darpardalarni boshqarish tizimi bor. Bu tabiiy yorug‘likni avtomatik ravishda nazorat qilish imkonini beradi.
2. Bunday uylardagi chiroqlar odamni sezadi va xonaga odam kirib kelishi bilan avtomatik ravishda ishga tushadi.
3. “Aqlli” uylarda hatto xona harorati ham avtomatik ravishda boshqariladi. Ya’ni xonada biror kishi bo‘lsa, isitkichlar qulay haroratni ushlashga sozlanadi. Agar hech kim bo‘lmasa, haroratni biroz pasaytirish orqali energiya tejovchi rejimga o‘tadi.
4. Agar xonadonda yong‘in xavfi yuzaga kelsa, gaz va elektr jihozlari avtomatik ravishda o‘chiriladi va bu haqda xonadon egasiga xabar beriladi.
5. Hozir xonadagi namlikni ushlab turish uchun ham maxsus moslamalardan foydalanilmoqda. Ular har bir xonadagi harorat, namlik darajasini o‘lchash va uni normal holatga keltirish uchun maxsus rejimni tanlab, shu asosda ishga tushadi.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 73 21/08/24 12:30

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

3-bosqich. Quyidagilardan o‘zingiz tuzmoqchi bo‘lgan matnga mos sarlavhani tanlang. Istasangiz, umuman boshqa sarlavha topishingiz ham mumkin.

Men orzu qilgan uy

“Aqlli” uylar qanday imkoniyatlarga ega?

“Aqlli” uylar va ularning imkoniyatlari

“Aqlli” uy – XXI asr ixtirosi

Men quradigan “aqlli” uy qanday bo‘lishi kerak?



4-bosqich. 1-bosqichda tanlab olgan gaplaringiz yordamida quyidagi matnni davom ettiring. Yozgan matningizni keyingi darsda boshqalarga o‘qib berish uchun tayyorlaning.

1

XXI asrning eng katta yutuqlaridan biri “aqlli” uylardir. Zamonaviy texnologiyalar asosida qurilgan bunday uylar insonlarning kundalik hayotini yengillashtiribgina qolmay, tabiiy resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanishga ham yordam beradi…

2

Men kelajakda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan “aqlli” uyda yashashni orzu qilaman. Bugun sizlarga o‘sha uyni tasvirlab bermoqchiman…



53. Yozgan matningizni partadoshingizniki bilan almashtiring va quyidagi mezonlar asosida baholang.

Matnga mos sarlavha tanlangan.	**1 ball**
Matn mazmuni belgilangan maqsad (bolalar ensiklopediyasi uchun yozish / o‘zi qurmoqchi bo‘lgan uyni tasvirlab yozish)ga mos kelgan.	**1 ball**
Matnda “aqlli” uy bilan bog‘liq atamalardan foydalanilgan.	**1 ball**
Matnda imloviy xatolar soni kam (3 tagacha xato).	**1 ball**
Matnda ishoraviy xatolar soni kam (3 tagacha xato).	**1 ball**
Jami:	**5 ball**

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 74 21/08/24 12:30



54. **Yozgan matnini tuzatishi uchun partadoshingizga tavsiyalar tayyorlang. Ularni buyruq gap shaklida ifodalang.**

Namuna

1. *Matn uchun tanlangan sarlavhani so‘roq gap shaklida ifodalang.*
2. *...*



55. **Matningizni partadoshingiz tavsiyalari asosida tahrir qilib, qayta yozing.**



O‘z tasavvuringizdagi “aqlli” uy loyihasini chizing. Uning bir qismiga “aqlli” uydan foydalanishning 5 muhim qoidasini yozing.



Mustaqil o‘qish uchun

Maktab

Baxtga narvon, bilimga kon erur maktab,
Zakovat doniga xirmon erur maktab.
O‘g‘il-qizlar, o‘qing ulkan murod ko‘zlab,
Ziyo topmoq uchun imkon erur maktab.
O‘qing, minglab ahli dono kerak yurtga,
Yana Bobur, Ibn Sino kerak yurtga.

Navoiy so‘zni zar etdi ilm istab,
Buxoriy el kezib o‘tdi ilm istab.
Riyoziyot shohi bo‘ldi Xorazmiy,
Ulug‘bek yulduzga yetdi ilm istab.
O‘qing, Farg‘oniy, Huvaydo kerak yurtga,
Beruniy, Termiziy, Kubro kerak yurtga.

Necha yovdan qaqshagan bu aziz tuproq,
Qadim janglar guvohi har dala, so‘qmoq.
Buyuk yurt tarixin anglab g‘urur to‘plang,
Mard bobongiz Temurbekdek turing ogoh.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 75 21/08/24 12:30

O‘qing, idrokli posbonlar kerak yurtga,
Shiroq yanglig‘ pahlavonlar kerak yurtga.

Surib davron, Vatanda xon bo‘ling doim,
Qadoqqo‘l bu elga darmon bo‘ling doim.
Shahar tiklang, oching dunyo sari yo‘llar,
Nomi besh qit’ada doston bo‘ling doim.
O‘qing, ongli qiz-u o‘g‘lon kerak yurtga,
Qodiriy, Nodira, Cho‘lpon kerak yurtga.

Qunt ila qirq hunar olmoqqa shaxt aylang,
Shamoldan ham shakar olmoqqa shaxt aylang.
Zamondan-da yurib ilg‘or, bo‘lib koshif,
Har ilmdan samar olmoqqa shaxt aylang.
O‘qing, qudrat ila shuhrat kerak yurtga,
Ma’rifatga tashna millat kerak yurtga.

Ma’rifatsiz elat maqsadda jam bo‘lmas,
Ma’rifatli o‘lka yotga qaram bo‘lmas.
Agar maktab quyosh ersa, ilm nurdir,
Fikrsiz bosh ichra hattoki sham bo‘lmas.
O‘qing, fikri yorug‘ avlod kerak yurtga
Va ertangi taraqqiyot kerak yurtga.

Anvar Obidjon



Rassom: A. Aliqulov

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 76 21/08/24 12:30

Bob yuzasidan takrorlash

56. **Tasavvuringiz asosida chizgan “aqlli” uyingizni sinfdoshlaringizga ko‘rsating. Undan foydalanish qoidalarini o‘qib bering.**



57. **Xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab, daftaringizga ko‘chiring.**

fotoaparat | kampyuter | direktir | operatr | transpirt | mikraskop

elektron po‘chta | buldiriq | radyo | buziq | moshina | ensiklapediya

58. **Berilgan fe’llarni bo‘lishsiz shaklga keltirib yozing. Bo‘lishsiz fe’l shakllaridan birini tanlab, gaplar tuzing.**

Namuna — ko‘rmoq: ko‘rmagan, ko‘rgan emas, ko‘rgani yo‘q

ko‘rmoq | so‘ramoq | o‘rganmoq | olmoq | aytmoq | ochmoq

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 77 21/08/24 12:30



59. **Ma’nodosh so‘zlar qatori uchun bosh so‘zni aniqlab, nuqtalar o‘rniga yozing.**

… – qutlamoq, muborakbod etmoq;
… – hozirlamoq, taxt qilmoq, shaylamoq;
… – faraz qilmoq, chamalamoq;
… – anglamoq, bilmoq, fahmlamoq;
… – intilmoq, tirishmoq, urinmoq.



60. **Quyida berilgan fe’llardan buyruq gaplar tuzing va yozing.**

hosil qilmoq	tajriba almashmoq	o‘ylab topmoq
tahlil qilmoq	ko‘rib chiqmoq	so‘zlab bermoq



61. **“Maktab” she’ridan chiqargan xulosalaringizni ayting.**

1-xulosa:	…
2-xulosa:	…
3-xulosa:	…
4-xulosa:	…
5-xulosa:	…




Rasmdagi narsa-buyumlar nomini ro‘yxat shaklida yozing. Ro‘yxatdagi so‘zlardan foydalanib kichik matn tuzing.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 78 21/08/24 12:30



1


2


3


4



7


5


6


8


1	…
2	…
3	…
4	…
5	…
6	…
7	…
8	…
9	…
10	…


9


10

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 79 21/08/24 12:30

TIL VA DIL



1. Gapirmasdan, imo-ishoralar orqali bugungi ob-havo, hozirgi kayfiyatingiz haqida bir-biringizga ma’lumot bering.

2. Matnni o‘qing. Adib nima uchun bu holatga tushganini izohlang. Shunga o‘xshash vaziyat sizda ham bo‘lganmi? Javobingizni izohlang.



…Nihoyat Londondan Toshkentga uchadigan bo‘ldik. Havo kemasiga chiqishimiz bilan osoyishta va yoqimli ovoz yangradi: “Assalomu alaykum, xonimlar va janoblar! Sizlarni “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi nomidan muborakbod etamiz!”

Rostini aytsam, ko‘zimdan yosh chiqib ketdi. Bu so‘zlar mening tilimda, ona tilimda jarangladi! Vatanimdan minglab chaqirim narida, tag‘in yuzlab xorijiy yo‘lovchilar o‘tirgan kemada!..

O‘tkir Hoshimov

3. She’riy parchalarni ifodali o‘qing va savollarga javob bering.

1
Ming yillarkim bulbul kalomi
O‘zgarmaydi, yaxlit hamisha.
Ammo sho‘rlik to‘tining holi
O‘zgalarga taqlid hamisha.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman!

Abdulla Oripov

2
…Sen o‘zingsan alla bilan dilga tushgan
Va ilk bora “ona” deya tilga tushgan.
Koshg‘ariydan tortib barcha bobolarim
Menga faqat til hikmatin o‘rgatishgan.

Shu til borki, shu el borki – men ham borman,
Tilin aziz bilganlarga do‘stman, yorman.
Qo‘lga qalam tutdim, demak, ajdodlardan
Avlodlarga so‘z tashuvchi dastyorman!

Orif To‘xtash

3
…Sensiz na ilm bo‘lar,
Na fikr, bilim bo‘lar.
Sen bo‘lmasang, so‘zlarning
Bag‘ri ming tilim bo‘lar.
Onajon, ona tilim,
Mening shohona tilim.

Mirtemir



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 81 21/08/24 12:30

1. Uch she’rni birlashtiruvchi jihat nima deb o‘ylaysiz?
2. Abdulla Oripov she’rida nima uchun to‘ti tilga olingan?
3. “Sen bo‘lmasang, so‘zlarning bag‘ri ming tilim bo‘lar” deganda nimani tushundingiz?
4. Sizningcha, kimga nisbatan “ajdodlardan avlodlarga so‘z tashuvchi dastyor” degan jumla ishlatilgan?
5. Til orqali dilga yo‘l ochiladi deganda nimani tushunasiz?
6. She’rlarga sarlavha toping.

4. So‘zlarni izohlari bilan moslab daftaringizga yozing.

Diqqat, bitta izoh ortiqcha.

1	kalom
2	yaxlit
3	tilim
4	shohona
5	hikmat
6	ajdod
7	avlod
8	dastyor

A	qovun yoki tarvuzning kesilgan bo‘lagi
B	hashamatli, shohlarga xos
D	donolikni ifodalovchi so‘z
E	shoh yashaydigan saroy
F	ota-bobolardan qolgan zurriyot
G	yordamchi, ko‘mak beruvchi
H	ota-bobolar
I	butun, qismlarga bo‘linmagan
J	so‘z, gap, nutq

Harflar zanjiridagi so‘zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

NUTQMNGSHEVAOADABIYEDBAHSIJTIMOIYLAHJA
FAXRNTNOTIQSUHBATTILPOLIGLOTO‘ZBEKQRHF
MAQOMMVATANBFITMADHIYAMUOMALAONA

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 82 21/08/24 12:30

1. Husnixat nima?
2. Yozuvingiz tufayli kimlardan maqtov yoki tanbeh eshitgansiz?

Husnixating bo‘lsa...

1 “Negayam ikkinchi smenaga o‘tdik, hozir maktabda o‘tirgan bo‘lardim-a...”



Shiftga qarab xayol surib yotgan Muhammaddiyorning soati bizning vaqt bilan ertalabki to‘qqizni ko‘rsatmoqda. Hamma nonushta qilib bo‘lgan. Onasining: “Hozir zilzila bo‘lsa ham rozi edim. Balki, shunda turib ketarmiding”, – degan achchiq tanbehi esiga tushdi. Qattiq silkinishdan qo‘rqib uyg‘onishi-yu, qiy-chuvga qaramay, eng muhim narsalari (o‘zi yasagan o‘n beshtacha qog‘oz maket, hamyon, mashinacha, rangli qalamlar, marker, oq qog‘oz, do‘sti sovg‘a qilgan yaltiroq tosh va buterbrod)ni papkasiga solib, deraza oldidagi o‘rikka sakrashini xayol qildi. Aytmoqchi, dadasi ishga ketmagan bo‘lsa, mashina kalitini olvoladi va uyquning qolganini mashinada uraveradi. Xullas, buvisi aytganidek, bari yaxshilikka!

– Turganim bilan mashinaga chiqib uxlayveraman, – deydi ataylab onasining g‘ashiga tegish yo aqlliligini namoyish qilish uchun.

Onasi yarim piyola muzdek suvni yuziga sepib, ishga ketgach, bari xomxayolligi, onasi dunyodagi eng rahmsiz ona ekanini o‘yladi...

2 Nonushtadan keyin chala qolgan darslarini qilishga o‘tirdi. O‘zi uy vazifalarini kecha tugatgan, lekin onasining: “Xating muncha xunuk, ko‘p xato qilibsan”, – degan gapi uchun mashqni qaytadan ko‘chirishi kerak.

Husnixatning o‘zi nima keragi bor, tavba? Onasiga qo‘ng‘iroq qilib, bajarmasligini aytadi.

– Qayta yozmayman, oyi. Chiroyli bo‘lishi shartmas, to‘g‘ri yozilsa bo‘ldi...

– Muhammaddiyor, istasang, bib-binoyidek yozishingni, hatto yozuving husnixat sifatida “Word” dasturiga kiritilishi mumkinligini ham bilaman. Bilmaganimda, talab qilmasdim.

– Tushunmadim, qanday dastur?

– Kompyuterdagi matn bilan ishlovchi “Word” dasturini aytyapman. “Shriftlar” degan joyini bossang, allaqancha husnixat turlari kelib chiqadi, bilasan-a?

– Ha.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 83 21/08/24 12:30

– Ular qayerdan paydo bo‘lgan?

– Bilmasam, kompyuter yozgan bo‘lsa kerak.

– Yo‘q. Bu yozuvlar sendek oddiy odamlarning xati asosida paydo bo‘lgan. Demak, sen ham boshqalarnikiga o‘xshamagan uslubga ega bo‘lsang, husnixatingdan foydalanishlari mumkin. Masalan, reklama, kitob va istalgan boshqa joyda sening xating ishlatilishi mumkin, tushundingmi?

– Qoyil!

– Endi bilyapsanmi qanday iqtidoring borligini? Ishga solmasang, u seni tark etadi. Hammasi xunuk yozishga ko‘nikishdan boshlanadi.

3 “Tavba. Hozirgina yozgim kelmayotuvdi, oyimning gaplari bilan go‘zal yozuv yaratish ishtiyoqi paydo bo‘ldi...”

Qahramonimiz qoralama varaqqa mashq yozdi, suratga olib telefondan onasiga jo‘natdi.

– Yomon emas, lekin bundanam yaxshiroq yoza olasan. Harflaringning bo‘yini o‘stirib, jamalak buramalarga nuqta qo‘y. Qo‘lni uzmay yozish kerak.

– Axir shunisi chiroyli-ku!

– Aytganimdek qilib ko‘rgin.

Yana qoralamaga onasi aytganidek yozdi va shu nusxasi juda chiroyli chiqqanini o‘zi ham payqadi. Daftarga ko‘chirganda yanada tekis va chiroyli yozdi. Shunday qiziqib ketdiki, tamoman yangicha yozuv usullarini ixtiro qilishga tushdi.

Gulgun Usmonova



5. So‘zlarning ma’nosini daftaringizga yozing va izohli lug‘atdan tekshiring.

So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda
maket	...	...
marker	...	...
buterbrod	...	...
xomxayol	...	...
bib-binoyi	...	...
iqtidor	...	...
qoralama	...	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 84 21/08/24 12:30

1. Muhammaddiyor uchun eng muhim narsalar nima?
2. Nima sababdan Muhammaddiyor onasining tanbehlariga qarshi bahona o‘ylab topadi?
3. Sinfdoshlaringizdan kimning xatini chiroyli hisoblaysiz? Nima uchun?

6. Agar Muhammaddiyorning onasi quyidagidek yo‘l tutsa, nima bo‘lar edi? Fikringizni yozing.

Xunuk yozuvli daftarni yirtib tashlasa...	...
O‘qituvchiga shikoyat qilsa...	...
Bolasini o‘z ixtiyoriga qo‘yib, e’tiborsiz bo‘lsa...	...
...	...

Berilgan jumlalardan foydalanib rasm asosida matn tuzing. Hikoyangizga sarlavha qo‘ying.



oltin kuz | ko‘zi tushmoq | qalin dugonalar | shumshaymoq | mehr to‘la ko‘zlar | dag‘-dag‘ titramoq | sharros yomg‘ir | paqqos tushirmoq | xotirjam | mittigina

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 85 21/08/24 12:30

7. “Husnixating bo‘lsa...” matni asosida quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

I. Muhammaddiyor nima uchun onasini dunyodagi eng rahmsiz ona deb o‘yladi?	**A**	Xunuk yozgani uchun tanbeh bergani tufayli
	B	Mashinaning kalitini bermagani uchun
	D	O‘g‘lini uyg‘otgani uchun
	E	Papkasiga muhim narsalarini solib qo‘ymagani uchun

II. O‘g‘lining yozuvini o‘zgartirish uchun ona qanday usulni o‘ylab topdi?	**A**	Rangli qalam va marker sovg‘a qilishini aytdi.
	B	Yozuvi “Word” dasturiga kiritilishi mumkinligini aytdi.
	D	Kompyuter olib bermoqchi ekanini aytdi.
	E	Uy vazifasini qayta yozish kerakligini aytdi.

III. Muallif bu matn orqali nima demoqchi bo‘lgan?	**A**	Darslarni o‘z vaqtida tayyorlash kerak.
	B	Erta turish zarur.
	D	Matn dasturlarini o‘rganish shart.
	E	Inson harakat qilsa, barcha ishni uddalashi mumkin.

8. Matn asosida to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang. Noto‘g‘ri ma’lumotlarni to‘g‘rilang.

1. Hikoya qahramoni do‘sti sovg‘a qilgan markerni papkasiga solib yuradi.
2. Oyisidan tanbeh eshitmaslik uchun mashinada uxlaydi.
3. Hikoya qahramonida yangi yozuv ixtiro qilish ishtiyoqi paydo bo‘ldi.
4. Qoralama varaqqa mashq yozdi va devorga ilib qo‘ydi.
5. Yozuvi chiroyli chiqishi uchun qo‘lni uzmay yozish kerakligini bildi.
6. Muhammaddiyor ham chiroyli, ham xatosiz yozish kerak deb o‘ylaydi.

9. Berilgan so‘zlarni talaffuz qilib ko‘ring. Ularning aytilishi va yozilishida qanday farq bor?

okean kauchuk oila shior


shoira duo maosh muammo

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 86 21/08/24 12:30

Ayrim so‘zlarda unlilar yonma-yon keladi. Ularning talaffuzi va imlosi farqlanishi mumkin.

Imloda:	**Talaffuzda:**
muomala, muallim,doimo, media, badiiy.	*momila, mallim, doyimo, mediya, badiy.*

Sizningcha, so‘roq belgisi o‘rniga qanday atama yozilishi kerak?



Sotiboldining xotini og‘rib qoldi. Sotiboldi kasalni o‘qitdi – bo‘lmadi, tabibga ko‘rsatdi. Tabib qon oldi, betobning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘lib qoldi, baxshi o‘qidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so‘yib qonladi. Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi. Bunday vaqtlarda yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi.

Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va oq imorat: shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor. Chigit po‘choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo‘jayin Abdug‘aniboy omborida qulab ketgan qoplar ostida qolib o‘ladigan bo‘lganida bu doktorxonaga bormay, Simga ketgan edi.

Epigraf – matn mazmunini ifodalaydigan maqol, hikmatli so‘z, she’r yoki biror manbadan olingan parcha. U sarlavhadan keyin, o‘ng tomonda yoziladi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 87 21/08/24 12:30

10. **Sarlavhalarga mos epigraflar topib yozing.**

Til – dil tarjimoni	...
Vatan muqaddasdir	...
Muomala odobi nima?	...
Tabiatni asraymiz	...

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ona tilimiz rivojiga qanday hissa qo‘shgan deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni daftarga yozing.

1.

2.

3.



4.

5.

6.

1. Nima uchun ba’zi bolalar o‘qishni, bilim olishni xohlamaydi?
2. Sizda ham shunday holat bo‘lib turadimi? Javobingizni izohlang.

Qayerdasan, maktabim?

... Meni aldab-suldab ko‘chaga haydab chiqarishdi, ha, shunday qilishdi. Bo‘lmasa, teatrda ish to‘lib yotgan edi. Hech bo‘lmasa, ko‘cha eshik oldida turib bilet yirtay desam, “O‘shanga ham ma’lumot kerak”, – deyishdi. Gapni qarang-a. O‘qing, o‘rganing emish! Nega o‘qir ekanman? Nega?

To‘xtang, nega endi ishim doim ortga ketaveradi? Agronom bo‘ldim – quvildim. Shoir bo‘ldim – nomim yomonga chiqdi. Injener bo‘ldim – arang qochib qutuldim. Nega?

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 88 21/08/24 12:30



… Hoy, ko‘chadagi odamlar, javob bering. Hoy, shumshayib turgan azim daraxtlar, osmondagi erkin uchgan qushchalar, yelib-yugurgan mashinalar, javob bering, sizdan so‘rayapman: nega, nima uchun?!

Yo‘q, hech kimdan sado chiqmaydi. Hamma jim, o‘z ishi bilan band.

Safarga chiqqanimdan buyon ko‘p ajoyibotlarni ko‘rdim, ko‘p g‘aroyibotlarning guvohi bo‘ldim. Xursand bo‘lgan kunlarim bo‘ldi, xafa bo‘lgan kunlarim bo‘ldi. Ammo hech qachon bugungidek ko‘nglim o‘ksimagan, bugungidek xo‘rligim kelmagan. To‘g‘ri, oyijonimni sog‘inganman, singillarim ko‘z o‘ngimdan nari ketmay qolishdi, birga o‘qigan o‘rtoqlarim: malla sochli Ortiqvoy, darsda uxlab o‘tiradigan Shokirjon – hamma-hammasini sog‘indim, ko‘rgim keladi. Ammo nachora. Men o‘qimasdan agronom bo‘lmoqchi edim, shuning uchun ham barcha azoblarga, barcha mashaqqatlarga tishimni tishimga qo‘yib chidagan edim, maqsadimga erisha olmadim, sharmanda bo‘ldim!

Nega?

Ho‘ngrab yig‘lab yubordim. Turtinib-surtinib o‘z uyimga bordim-da, boshimni ko‘rpaga burkab, ko‘zlarimda yosh tamom bo‘lguncha yig‘ladim.

– Qalpoqcham, ey safarlardagi doimiy yo‘ldoshim, maslahatgo‘yim, qani, o‘zing ayt-chi, nega men maqsadga erisha olmadim?

– Chunki ilming yo‘q edi, – dedi qalpoqcham.

– Ilm olish uchun nima qilishim kerak edi?

– O‘qishing kerak edi…

– Nima?!

– Ha, ha, o‘qituvching Qobilov, sevimli direktoring Otajon Azizovning gaplariga quloq solishing kerak edi.

– Demak, sen meni chalg‘itgan ekansan-da, aldabsan-da!

– Yo‘q, aldamadim, chalg‘itmadim. Fikrlaring xato ekanini tushunib olgin deb qo‘limdan kelgancha ko‘maklashdim, yordamimni ayamadim. Och qolsang, ovqat berdim, egningdagi yirtilsa, kiyim-bosh berdim. Faqat sen o‘z xatongni tushunib olgin dedim, – deb so‘zlaydi qalpoqcham.

Yana o‘ylab ketaman, yig‘layman. Xato qilgan bo‘lsam bordir, buni shu paytda o‘zim ham tushunib turibman. Ammo o‘z xatosini bo‘yniga olishdan og‘ir narsa bo‘lmas ekan. Mayli, yigirma gradusli suvga yalang‘och tushay, mayli, jazirama issiqda bir hafta suvsiz yuray, istasangiz, Moskvagacha piyoda boraman, istasangiz, bundan ham og‘irroq ishlarni buyuring, hammasini bajonidil bajaraman. Ammo o‘zim yo‘l qo‘ygan xatoni bo‘ynimga olgim kelmay turibdi. To‘g‘ri, kishi o‘qimasa, yoshligida ilm o‘rganmasa,

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 89 21/08/24 12:30

agronom ham, shoir ham, injener ham, artist ham bo‘la olmas ekan, ha, bo‘la olmas ekan. Ishonmasangiz, mana, qalpoqcham bugundan e’tiboran bo‘shadi, uni kiyib, charchaguningizcha dunyoni aylanishingiz mumkin…

Sekin o‘rnimdan turib, yuz-qo‘limni yuvdim. To‘yib ovqatlandim. Qorning to‘q bo‘lsa, miyang yaxshi ishlaydi, deganlari rost ekan. Qornim to‘ygach, miyam ham yog‘langan motordek ishga tushib ketdi. Darhol sovg‘a-salom olish uchun magazinlarga qarab yugurdim. Qishlog‘imizda yurganimda vazifalarni birovdan ko‘chirib olishni kashf qilganimdan keyin darsliklarimni o‘rtoqlarimga esdalikka deb ulashib bergan edim…

Ketib boryapman, jonajon qishlog‘imga, ona maktabim quchog‘iga qaytyapman…

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanidan

11. So‘zlar va ularning izohini o‘zaro moslab ko‘chiring.

1	agronom		**A**	g‘oyat katta, ulkan
2	injener		**B**	bo‘shashgan, junjikkan holatda
3	o‘ksimoq		**D**	jon-dildan, sidqidildan
4	azim		**E**	biror narsaga alaxsib, asosiy ishni unutmoq
5	shumshaymoq		**F**	qishloq xo‘jaligi mutaxassisi
6	chalg‘imoq		**G**	biror narsaga erisha olmagani yo kamsitilgani uchun xafa bo‘lmoq
7	bajonidil		**H**	texnikaning biror sohasidagi mutaxassis, muhandis

1. Nega asar qahramonining jahli chiqdi?
2. Hoshimjon nega sehrli qalpoqchadan xafa bo‘ldi?
3. Sehrli qalpoqcha Hoshimjonni aldadimi? Fikringizni asoslang.
4. Sizningcha, Hoshimjon maqsadlariga erishish uchun nimalar qilishi kerak edi?

12. Gaplar tarkibidagi ajratilgan jumlalarning ma’nosini izohlang.

Qishlog‘imizda yurganimda vazifalarni birovdan ko‘chirib olishni **kashf qilganimdan** keyin darsliklarimni o‘rtoqlarimga esdalikka deb ulashib bergan edim. ...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 90 21/08/24 12:30

Ammo o‘z xatosini **bo‘yniga olishdan** og‘ir narsa bo‘lmas ekan.	...
Men o‘qimasdan agronom bo‘lmoqchi edim, shuning uchun ham barcha azoblarga, barcha mashaqqatlarga **tishimni tishimga qo‘yib** chidagan edim.	...
Qornim to‘ygach, miyam ham **yog‘langan motordek ishga tushib ketdi.**	...



13. **To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.**

doira
doyra
doyira

tabyat
tabiyat
tabiat

biyologiya
biyalogiya
biologiya

inshoot
inshoat
inshot

soodat
saodat
sodat



“Qayerdasan, maktabim?” matnidagi Hoshimjonga xos sifatlarni davom ettiring. Fikringizni izohlang.

Hoshimjonning sifatlari	Izoh
dangasa	***
o‘zboshimcha	***
...	***



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 91 21/08/24 12:30

14. “Qayerdasan, maktabim?” matni asosida berilgan topshiriqlarni daftaringizda bajaring.

1. “Sariq devni minib” asari qahramoni Hoshimjon o‘z savollariga kimlardan javob so‘raydi? *Bir nechta to‘g‘ri javobni tanlang.*

- qushlardan
- mashinalardan
- o‘simliklardan
- insonlardan
- oyisidan
- o‘rtog‘idan

2. Muallifning Hoshimjon obrazini yaratishdan ko‘zlagan asosiy maqsadi nima?

A. Bolaning qiziqarli sarguzashtlarini tasvirlash
B. Hoshimjonning o‘z aybiga iqror emasligini ko‘rsatish
D. Bolalarni sehrli qalpoqchaning borligiga ishontirish
E. Ilm o‘rganmay turib, yaxshi mutaxassis bo‘la olmaslikni uqtirish

3. Sehrli qalpoqcha asar qahramoniga nimani uqtirgan?

A. Do‘stlarni aldamaslik kerakligini
B. O‘qishi, ilm olishi lozimligini
D. Singillariga mehribon bo‘lishi kerakligini
E. Qarindoshlarini hurmat qilishi lozimligini

15. Matndan olingan parchaga sarlavha va epigraf topishga harakat qiling.

Ho‘ngrab yig‘lab yubordim. Turtinib-surtinib o‘z uyimga bordim-da, boshimni ko‘rpaga burkab, ko‘zlarimda yosh tamom bo‘lguncha yig‘ladim.

– Qalpoqcham, ey safarlardagi doimiy yo‘ldoshim, maslahatgo‘yim, qani, o‘zing ayt-chi, nega men maqsadga erisha olmadim?

– Chunki ilming yo‘q edi, – dedi qalpoqcham.

– Ilm olish uchun nima qilishim kerak edi?

– O‘qishing kerak edi…

– Nima?!

– Ha, ha, o‘qituvching Qobilov, sevimli direktoring Otajon Azizovning gaplariga quloq solishing kerak edi.

– Demak, sen meni chalg‘itgan ekansan-da, aldabsan-da!

– Yo‘q, aldamadim, chalg‘itmadim. Fikrlaring xato ekanini tushunib olgin deb qo‘limdan kelgancha ko‘maklashdim, yordamimni ayamadim. Och qolsang, ovqat berdim, egningdagi yirtilsa, kiyim-bosh berdim. Faqat sen o‘z xatongni tushunib olgin dedim, – deb so‘zlaydi qalpoqcham.


1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 92 21/08/24 12:30

16. **Quyidagi so‘zlarning zid ma’nosini toping. Topgan so‘zlaringiz ishtirokida 4 ta gap tuzib, daftaringizga yozing.**

sekin	...
jimjit	...
yo‘q	...
yoshlik	...

Antonimlar qarama-qarshi ma’noli so‘zlardir.
Masalan: *baland – past, yig‘lamoq – kulmoq, foyda – zarar, kecha – kunduz.*

17. **Berilgan so‘zlarning antonimini variantlar ichidan toping.**



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 93 21/08/24 12:30

Tarkibida zid ma’noli so‘zlar ishtirok etgan 5 ta maqol topib, yozib keling. Zid ma’noli so‘zlarning tagiga chizing.

Namuna

Yaxshi topib gapirar, *yomon* – qopib.

1. Sizni chaqirishganda nima deb javob berasiz?
2. Qanday so‘zlar sizni xursand qiladi, qanday so‘zlar dilingizni og‘ritadi?
3. Nima uchun nutqimizda maqol va iboralardan foydalanamiz?

Ta’zir



Endi men sizlarga o‘sha qishloqda yashayotgan, dangasa desa, dangasaga, quloqsiz desa, quloqsizga o‘xshamaydigan, o‘zi xiyla o‘yinqaroq bo‘lgan Bahromboy degan bir bola haqida hikoya aytib bermoqchiman. Ota-onasi har kuni dalaga ketib, Bahromboy uyda buvijoni bilan yolg‘iz qolardi. Buvijoni:

– Bolam, narigi uydan ko‘zoynagimni olib chiqib ber! – desa, Bahromboy:

– Xo‘p bo‘ladi, – derdi-da, o‘yinchoqlarini o‘ynab o‘tiraverardi.

Biroz fursatdan so‘ng buvijoni:

– Ko‘zoynak deyapman senga, – deb qo‘yardi. Bahromboy boshini ham ko‘tarmay:

– Hozir deyapman-ku, – derdi-da, o‘yinga battarroq berilib ketardi. Oxiri buvijoni o‘rnidan turib, ko‘zoynagini o‘zi olib chiqishga majbur bo‘lardi. Ertasi ham shu, indiniga ham shu – Bahromboyning qulog‘iga hech gap kirmasdi.

– Buvijon! – deb qoldi bir kuni Bahromboy, – qornim juda ochib ketyapti, non olib bering.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 94 21/08/24 12:30

Buvijoni ko‘rpa qaviyotgan edi.

– Xo‘p bo‘ladi, – dedi-yu, o‘rnidan qo‘zg‘almay ishini qilib o‘tiraverdi.

– Non deyapman, – dedi Bahromboy betoqat bo‘lib.

– Xo‘p deyapman-ku, – deb qo‘ydi buvijoni juda beparvo bir ohangda.

Birozdan so‘ng Bahromboy yer tepib:

– Non! – deb qichqirdi.

– Hozir! – dedi-yu, buvijoni ko‘rpaning bu etagini tugatib, narigi etagini qavishga tushib ketdi. Yana biroz fursatdan so‘ng Bahromboy to‘satdan yumshab:

– Buvijon, ignangizga ip o‘tkazib beraymi? – deb qoldi o‘zidan o‘zi. Nega desangiz, shu paytda Bahromboy: “Buvijonimning gapiga kirmay, xato qilgan ekanman, endi bildim”, – deb o‘zicha afsuslanayotgan edi.

Buni sezgan buvijoni o‘rnidan turib:

– Tilingdan o‘rgilay, – deb qo‘ydi.

O‘sha kundan boshlab Bahromboy deganlari ham buvijoni aytgan ishni darrov bajaradigan bo‘lib ketdi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev

So‘zning ma’nosi



Bir kuni maymuncha onasining oldiga yig‘lab kelibdi.

– Meni to‘damizdagi bir maymun xafa qildi.

– U nima dedi? – so‘rabdi onasi hayron bo‘lib.

– “Qo‘ling gul, boshing toshdan bo‘lsin”, – dedi. Qo‘lim gul bo‘lsa, daraxtga chiqolmayman, shoxdan shoxga sakrolmayman. Tosh boshda esa aql bo‘lmaydi. Bu bosh bilan nima qilaman? Yong‘oq chaqamanmi? – yig‘lamsirabdi maymuncha.

– Voy, o‘zimning maymuncham-ey, nahotki shu gapga tushunmagan bo‘lsang?! Axir sen maymunchalarning donosisan-ku. Qo‘ling gul bo‘lsin degani – hunar o‘rgangin, qo‘llaring yasagan buyumlar guldek chiroyli, barchaning havasini keltiradigan bo‘lsin, har bir ishni chiroyli uddalagin degani. Boshing toshdan bo‘lsin degani esa doimo sog‘-omon bo‘lgin degan ma’noni anglatadi. Tushundingmi, o‘yinqarog‘im? – so‘rabdi ona.

– Ha, endi tushundim. Hikmatli so‘zlarda ma’no ko‘p derdingiz. Menga ulardan ko‘proq aytib berasizmi? – yalinibdi mittivoy.

– Ha, aytib beraman. Hikmatli so‘zlar juda ko‘p, bolajonim. Sen doim o‘z aqling bilan fikrlashni o‘rgan, – uqtiribdi ona bolasiga.

Shu kundan boshlab ona maymun kichkintoyiga har kuni hikmatli so‘zlardan aytib, ma’nosini tushuntiradigan bo‘libdi.

Shukrullo Abdullayev

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 95 21/08/24 12:30

18. Quyidagi so‘zlar matnda ifodalagan ma’noni aniqlang va daftaringizga yozing.

So‘zlar	Taxminim	Lug‘atda
xiyla	...	...
qavimoq	...	...
fursat	...	...
hunar	...	...
o‘yinqaroq	...	...
uqtirmoq	...	...

1. Bahromboy nega buvisining ko‘zoynagini olib bermadi?
2. Hikoyaning qaysi o‘rnida Bahromboyning o‘z qilmishidan afsuslanganini ko‘ramiz?
3. Nega to‘dadagi maymun “Qo‘ling gul bo‘lsin” iborasining o‘rniga “Hunar o‘rgangin”, “Boshing toshdan bo‘lsin” iborasining o‘rniga “Salomat bo‘lgin”, deb qo‘ya qolmadi?
4. Maymuncha nima uchun “Qo‘ling gul, boshing toshdan bo‘lsin” degan iboraning ma’nosini tushunmadi?
5. Nima sababdan ona bolasiga: “Sen doim o‘z aqling bilan fikrlashni o‘rgan”, – deb nasihat qildi?
6. Sizningcha, hikoya nega “Ta’zir” deb nomlangan?

19. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. So‘zlarning yozilishiga diqqat qiling.

1. Yo‘lni karvondan so‘ra,
   So‘zni …dan so‘ra.
2. … va kamtarlik – kishining chinakam ma’rifatparvarligidan nishona.
3. Ayrim yoshlar o‘zlarini dag‘al va qo‘pol tutib, buni yana … hol deb biladilar.
4. … – johillik urug‘i.
5. Ilm – baxt-… kaliti.

Foydalanish uchun so‘zlar: *xushmuomalalik, sarbon, saodat, muolaja, shoir, doimiy, beodoblik, tabiiy.*

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 96 21/08/24 12:30

20. **Bulutcha ichidagi so‘zlardan zid ma’noli (antonim) so‘zlar juftligini hosil qiling va daftaringizga namunadagidek yozing.**

kulmoq, xunuk, oz, keyin, bormoq, ahmoq, yig‘lamoq, ko‘p, sog‘, oldin, dono, chiroyli, kelmoq, kasal

Namuna

chiroyli – xunuk
yig‘lamoq – kulmoq

Shevangizga xos bo‘lgan 10 ta so‘zni adabiy tildagi muqobili va izohi bilan yozib keling. Oila a’zolaringizdan yordam olishingiz mumkin.

Namuna

shoti – narvon, yuqoriga chiqib-tushish uchun mo‘ljallangan moslama

21. **Quyidagi so‘zlardan “Ta’zir” hamda “So‘zning ma’nosi” hikoyalari qahramonlarining xarakter-xususiyatlarini ochib beradiganlarini ajrating va daftaringizga yozing. So‘zlar qatorini davom ettiring.**

Berilgan so‘zlar: *dangasa, qiziquvchan, aqlli, qaysar, dono, tadbirli, erkatoy, e’tiborsiz, zukko, bilag‘on, o‘yinqaroq...*

1	2	3	4
Bahromboy	Maymuncha	Bahromboyning buvisi	Maymunchaning onasi
...	...	...	...
...	...	...	...
...	...	...	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 97 21/08/24 12:30

1. Ayting-chi, yaqinlarimizni xursand qilish uchun muloqotda qanday so‘zlarni ko‘proq ishlatib turishimiz kerak?
2. “Tig‘ yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi” maqolini izohlang.

22. “Ta’zir” va “So‘zning ma’nosi” hikoyalarining o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlang.

O‘xshash tomoni	Farqli tomoni
1) tarbiya haqida; 2) ... 3) ...	1) ... 2) ... 3) ...

23. “Ta’zir” hikoyasining qahramoni Bahromboy uchun uchta savol tuzing. So‘roq gaplar qanday hosil qilinganini izohlang.

So‘roq gaplardan biror fikrga aniqlik kiritish yoki nimanidir **so‘rash, bilish, surishtirish** maqsadida foydalaniladi. Yozuvda bunday gaplar oxiriga **so‘roq belgisi** qo‘yiladi.

Masalan: *Azizxon, barcha topshiriqlarni bajarding**mi**?*

So‘roq gaplarni *-mi, -chi, -a (-ya)* kabi qo‘shimcha yuklamalar hamda so‘roq so‘zlar yordamida hosil qilamiz.

Masalan: *Uy ishini bajarding**mi**? O‘zing**-chi**? Mehmonlar **qachon** keladi?*

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 98 21/08/24 12:30

24. **“Ta’zir” hamda “So‘zning ma’nosi” hikoyasidagi so‘roq gaplar qanday vositalar yordamida hosil qilinganini aniqlang.**

So‘roq gap	So‘roq gapni hosil qilgan vosita
– Buvijon, ignangizga ip o‘tkazib beraymi?	...
– U nima dedi?	...
– Tosh boshda esa aql bo‘lmaydi. Bu bosh bilan nima qilaman? Yong‘oq chaqamanmi?	...

25. **Darak gaplarni so‘roq gaplarga aylantirib yozing.**

Darak gap	So‘roq gap
Haqiqiy do‘st birodaridan xavotir oladigan, u haqda qayg‘uradigan bo‘ladi.	Haqiqiy do‘st qanday bo‘ladi?
Xonaga eng yaqin do‘stlarim – Nodir, Jasur, Akmallar kirib keldi.	...
Oyoq qo‘yishga joy yo‘qligidan qariyalar chiqqan yerida turib qolishdi.	...
Odamlar bilan liq to‘la sariq avtobus noiloj navbatdagi bekatda to‘xtadi.	...

Diqqat, “O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasi!
Loyiha 5 bosqichdan iborat. Har bir bosqichda o‘rtog‘ingizga muayyan tavsiyalaringizni yozib borasiz. Loyiha yakunida yondaftarchani o‘rtog‘ingizga taqdim etasiz. Buning uchun dastlab yondaftarcha yasab oling.
1-bosqich. Yondaftarchaning 1-sahifasiga kundalik muloqotda amal qilish lozim bo‘lgan 5 ta tavsiya yozing.

1	Salomlashganda tabassum qiling!
2	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 99 21/08/24 12:30

26. **O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridan olingan parchani tinglang va savollarga javob bering.**

3



27. **Jadvalda berilgan so‘zlarning zid ma’nosini toping va daftaringizga yozing.**

So‘zlar	Zid ma’nosi
qattiq	...
to‘xtamoq	...
yosh	...
tajang	...
yangi	...
yig‘lamoq	...
issiq	...

1. Ona o‘g‘lidan nega mashinani to‘xtatishni so‘radi?
2. Bola nega yig‘layotgan edi?
3. Haydovchi nega ona va bolaning mashinaga chiqishini xohlamadi?
4. Bolaning onasi nimadan xijolat bo‘ldi?
5. “Onalarning bizning o‘lchovimizga sig‘maydigan olami bor” deganda nimani tushundingiz?

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 100 21/08/24 12:30

28. **Ayting-chi, O‘tkir Hoshimovning onasi sizda qanday taassurot qoldirdi? Hikoyani quyidagi tartib asosida gapirib bering.**

Opamnikiga ketayotgan edik. › yig‘layotgan bola › “issiq manoj” › _____

29. **Asardan olingan gaplarni yozing va o‘qituvchingiz yordamida sharhlang.**

Onam chumchuqdek chirqillab juvonga yopishdi.	...
Bola endi yig‘lamas, ammo o‘pkasi to‘lib, to‘xtovsiz hiqillar edi.	...
Qovog‘imdan qor yog‘ayotganini o‘zim ham sezib turardim.	...
Uning shunchalik jahlini chiqargan “sovuq manoj” oqib, ko‘ylakchasining oldini shalabbo qilgan, boshdan oyog‘igacha loy edi.	...

30. **Audioni qayta tinglang. Matnni kirish, asosiy va xulosa qismlariga ajrating. Ularni ifodalovchi kalit so‘zlarni daftaringizga yozing.**

Kirish	Asosiy qism	Xulosa
...	...	...

Diqqat, “O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasi davom etadi!
2-bosqich. Tengdoshlaringiz nutqida muomala odobidan chetga chiqish holatlarini kuzating. Kuzatishlar davomida aniqlaganlaringizni yozib boring. Kamchiliklarni tuzatish uchun tavsiyalar ishlab chiqing va yondaftarchaga yozing.

Kuzatish davomida aniqlangan kamchiliklar	Kamchiliklarni tuzatish uchun tavsiyalar
***	***

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 101 21/08/24 12:30



31. Quyidagi savollarga javob yozing.

1. Ayol nega trolleybusda ketishni istab qoldi?
2. Onaning “Yig‘lab turgan bolaning begonasi bo‘ladimi?” degan gapidan muallif qanday xulosa chiqardi?
3. Xuddi shunday holatda siz ham yig‘layotgan begona bolani ovutarmidingiz? Javobingizni izohlang.



32. Quyidagi gaplarni so‘zlovchi so‘zlayotgan paytga nisbatan qachon sodir bo‘lganiga ko‘ra tasniflang.

Gaplar	Oldin	Hozir	Keyin
Onamning jahli chiqqanini kamdan kam ko‘rardim.	...	...	...
Olib bersam, bunaqa qilyapti.	...	...	...
Birovning bolasi bo‘lsa… Yig‘lasa, sizga nima? Yig‘lab-yig‘lab ovunadi.	...	...	...



Harakat va holat nutq so‘zlanayotgan paytda, undan oldin yoki keyin sodir bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra fe’l zamonlari uch turga bo‘linadi:

1. **O‘tgan zamon** nutq so‘zlanayotgan paytdan oldingi ish-harakatni bildiradi. **Masalan:** *kel**di**m, ayt**ib**san, bahslash**gan.***
2. **Hozirgi zamon** nutq so‘zlanayotgan paytdagi ish-harakatni bildiradi. **Masalan:** *ket**yap**man, ayt**moqda**, uxla**yotir.***
3. **Kelasi zamon** nutq so‘zlanayotgan paytdan keyingi ish-harakatni bildiradi. **Masalan:** *kel**adi**, o‘qi**y**di, bor**moqchi.***

Ba’zan bir zamon qo‘shimchasi boshqa zamonni ifodalashi mumkin. **Masalan:** *Ertaga buvimnikiga ket**yap**man.* Bu gapda hozirgi zamon qo‘shimchasi (-yap) kelasi zamonni ifodalaydi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 102 21/08/24 12:30

33. **Tushirib qoldirilgan fe’llarni qo‘yib, gaplarni daftaringizga ko‘chiring.**

1. Konstitutsiyani “hayotimiz xaritasi” deb ... .
2. Teleko‘rsatuvlar orqali huquqiy savodxonlikka oid dasturlarni ko‘p bora … .
3. Asosiy qonunimizning 50-moddasida yoshlarning bepul ta’lim olishi qat’iy … .
4. Tengdoshlarimga ham konstitutsiyani nafaqat o‘qib, balki uqib o‘rganishlarini ... .

34. **Kichik guruhlarga bo‘lining. “Bola yig‘isi” audiomatni asosida quyidagi vositalardan foydalanib so‘roq gaplar tuzing. Ulardagi fe’l zamonlariga e’tibor bering.**

-mi qanday? kim? qachon? qayer?

Diqqat, “O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasi davom etadi!
3-bosqich. Yondaftarchaga o‘zga tilni o‘rganish uchun o‘rtog‘ingiz amal qilishi lozim bo‘lgan 5 ta tavsiya yozing.

1	Har kuni 6 ta yangi so‘zning talaffuzi ustida mashq qil!
2	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 103 21/08/24 12:30

35. **She’rni ifodali o‘qing.**

Oyim bilan arazlashdim

Men haddimdan biroz oshdim,
Oyim bilan arazlashdim.
Hech kim meni ovutmadi,
Choyimni ham sovitmadi.
Mana endi tilim kuydi,
Dadam asta kulib qo‘ydi.
O‘ynagim ham kelmayapti,
So‘ylagim ham kelmayapti.
Nahot endi menga oyim
Gapirmasdan yurar doim?
Birdan o‘pkam to‘lib ketdi,
Ko‘zlarim nam bo‘lib ketdi.
Oyim tomon uchib bordim,
Uni mahkam quchib oldim:
– Yarashaylik, oyi, keling,
Meni tezroq yaxshi ko‘ring!



Kavsar Turdiyeva

36. **Ajratib ko‘rsatilgan jumlalarning ma’nosini izohlab, daftaringizga yozing.**

Men **haddimdan biroz oshdim,**
Oyim bilan arazlashdim. ?

Birdan **o‘pkam to‘lib ketdi,**
Ko‘zlarim nam bo‘lib ketdi. ?

Mana endi **tilim kuydi,**
Dadam asta kulib qo‘ydi. ?

Oyim tomon **uchib bordim,**
Uni mahkam quchib oldim. ?

37. **Ish-harakat so‘zlovchi gapirayotgan paytga nisbatan qachon sodir bo‘lganini aniqlang va yozing.**

Arazlashdim, ovutmadi, sovitmadi, kuydi, kelmayapti, yarashaylik, yaxshi ko‘ring.

O‘tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon
...	...	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 104 21/08/24 12:30

38. Quyidagi xulosalarning qaysilari to‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. Bolaning choyini oyisi doim sovitib berar edi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

2. Ona va bola arazlashgani uchun dadasi darg‘azab bo‘ldi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

3. Bola oyisi arazlab olgani uchun yig‘ladi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

4. Oyisi qanchadir vaqt bola bilan gaplashmay qo‘ydi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

39. Berilgan so‘zlarga namuna asosida tavsif yozing.

So‘z	Oddiy ifoda	Badiiy ifoda
til	Til – odamlar o‘rtasida aloqa vositasi.	Til – qalb tarjimoni, chunki har bir so‘z eng avval qalb torlarida chertiladi.
kitob	...	...
vatan	...	...
ona	...	...
ustoz	...	...

Diqqat, “O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasi davom etadi!
4-bosqich. Ifodali o‘qish uchun 3 ta she’r tavsiya qiling.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 105 21/08/24 12:30

Diqqat, “O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasi taqdimoti!
5-bosqich. “O‘rtog‘imga yondaftarcha” loyihasiga oid ijodiy ishingizni taqdim eting.

- Yondaftarchaga yozgan tavsiyalaringizdan namunalar o‘qib bering.
- Yondaftarchani o‘rtog‘ingizga taqdim qiling.



Bo‘sh o‘rinlarga yonma-yon kelgan unlilar ishtirok etgan so‘zlardan qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. So‘zlarni topishda boshqotirmadan foydalaning.

1. Oltin olma, ... ol.
2. Xorijlik mehmonlar o‘zbek milliy ...larini sevib iste’mol qiladilar.
3. ...ni asrash barchamizning burchimizdir.
4. ... o‘zi yozgan she’rni ta’sirli qilib o‘qib berdi.
5. Abdulla Avloniy “Birinchi muallim” asarining ...idir.

1	d	*	*				
2	*	*	o	*			
3	*	*	*	i	*	*	
4	*	*	*	r			
5	*	*	a	*	*	*	*

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 106 21/08/24 12:30

Mustaqil o‘qish uchun

Ona tilim o‘lmaydi

Notiq dedi:
“Taqdir shul,
Bu – jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda”.

“Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan?!”
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.

Kim darg‘azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.

“Va’zingni qo‘y, birodar,
Sen aytganing bo‘lmaydi”.
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim o‘lmaydi”.

– Hey, bu qanday aqida?! –
Qo‘lida tabarruk jom,
Go‘zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.



Navoiy – o‘zbek shoiri



Pushkin – rus shoiri



Dante – italyan shoiri



Shiller – nemis shoiri



Bayron – ingliz shoiri



Firdavsiy – fors shoiri



Balzak – fransuz yozuvchisi



Tagor – bengal va hind adibi



Xayyom – fors shoiri

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 107 21/08/24 12:30



Beranje – fransuz shoiri



Neruda – chililik shoir



Lorka – ispan shoiri



Servantes – ispan yozuvchisi



Fuzuliy – ozar shoiri

Ehtirosli, otashdil
Beranje so‘rdi nolon:
– Nahotki, farangi til
Yo‘qolgusi bir zamon?!

Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:
– Kim qasd etib tig‘ urdi
Ona tilim joniga?!

Fuzuliy yondi:
– Ozar
Tili guldek so‘lmaydi.
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim o‘lmaydi!”

Kamalakdek rango-rang
Bo‘lsin deb san’at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.

Beqadr bo‘lsa nahot
Tillardagi tarovat!
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!

“Faust” yondi gurullab,
“Xamsa” o‘tga tutashdi.
Bir sado jahon bo‘ylab
Taraldi, tog‘lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
– Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!

Erkin Vohidov



Gyote – nemis shoiri, “Faust” muallifi

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 108 21/08/24 12:30

Bob yuzasidan takrorlash


40. **Antonim so‘zlar juftligini hosil qiling.**

T/r	Belgi bildiruvchi		Harakat bildiruvchi	
1	katta	kichik	sotmoq	xarid qilmoq
2	...	...	...	...

41. **Jadval asosida fe’llarga 3 tadan misol topib, yozing va ular ishtirokida bittadan gap tuzing.**

O‘tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon
bordim	boryapman	boraman
...	...	...

42. **Qiyofalarda qanday kayfiyat aks etgan? Ular ishtirokida og‘zaki hikoya tuzing.**




Matn va epigraflarni moslashtiring.

1. Vatan – kindik qonimiz to‘kilgan muqaddas tuproq. Vatan – ajdodlar maskani, avlodlar voyaga yetadigan, xalqning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, kamol topib boradigan zamindir.
2. U hayot saboqlarini beruvchi jonkuyar, mehribon zot. Katta-yu kichikka doimo birday yordam bera oladigan, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata oladigan murabbiy. Oilada hammaning ko‘ngliga yo‘l topadigan mehribon ona.
3. Atrofingizdagi odamlar turlicha. Fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashadigan va sizni tushuna oladigan kishingiz bo‘lsa, juda omadlisiz. Bunday do‘sti bor inson yolg‘izlikdan qo‘rqmasa ham bo‘ladi.

A. Do‘st bilan obod uying… *(E. Vohidov)*
B. Jannat onalar oyog‘i ostidadir. (*Hadis)*
D. Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi. (*Oybek)*
E. Til – ko‘ngil tarjimoni. (*Maqol)*

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 109 21/08/24 12:30

SO‘ZLAR TILSIMI





1. Ismingiz qanday ma’noni bildiradi? Uni kim qo‘ygan? Shu haqda sinfdoshlaringizga quyidagi namunalardan biri asosida ma’lumot bering.

Namuna

1. Mening ismim – Azizbek. Aziz, qadrli inson bo‘lsin deb shunday ism berishgan. Ismimni bobom qo‘ygan.
2. Mening ismim – Hulkar. Ma’nosini bilmayman. “Chiroyli” degani bo‘lsa kerak. Lekin keyingi darslarga anig‘ini bilib kelaman. Ismimni dadam qo‘ygan.
3. Mening ismim – Temur. Amir Temurday mard bo‘lishimni istab shunday ism berishgan. Ismimni yo ota-onam, yo buvim qo‘ygan.



2. Jadval bilan tanishing va savollarga javob bering.

...	...
Kuchli, qo‘rqmas	Botir, Jasur
Chiroyli	Oysuluv, Zebo, Shahlo, Dilbar
Aql-zakovatli	Oqil(a), Zakiy(ya), Olim(a)
Baxtli, shod	Sevinch, Baxtiyor, Xushnud, Dilshod, Iqbol
Chidamli	Sobir, Iroda
O‘zgacha	Durdona, Nodira, Yagona
To‘rtinchi	Robiya, Chori
?	G‘olib, Zafar, Muzaffar
?	Sarvar, Sardor, Sulton, Ma’mur(a)



1. Sizningcha, jadvalning 1- va 2-ustunlarini qanday nomlash to‘g‘ri bo‘ladi?
2. Jadvalning 2-ustuniga yana qanday ismlarni qo‘shish mumkin?
3. 1-ustunning so‘nggi ikki qatoriga qanday so‘zlar yozilishi kerak?

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 111 21/08/24 12:31



3. Quyidagi ismlar imlosiga e’tibor qarating. Juftliklardan imlosi to‘g‘rilarini tanlang va daftaringizga yozing.

Navro‘z Navruz	Bekzod Bekzot	Sonobar Sanobar	Hilola Xilola
Komila Kamila	Parida Farida	Shohrux Shoxruh	Murod Murot



Atoqli otlar kishi nomlari, joy nomlari, korxona-tashkilot nomlari, mahsulot nomlari, bayram nomlari kabi bir necha turga bo‘linadi. Ular doim bosh harf bilan yoziladi.

Kishi nomlari deganda familiya, ism, otaism tushuniladi va doim bosh harf bilan yoziladi. Shu uch nom hujjatlarda **F. I. O.** deb (qisqartirib) ham beriladi.

Familiyalarda odatda *-ov(a), -ev(a) / -yev(a)* qo‘shimchalari bo‘ladi.

Masalan: *Alisherov(a), Ergashev(a), Aliyev(a).*

Familiyalar bu qo‘shimchalarsiz ham bo‘lishi mumkin.

Masalan: *Sevinch Omonova – Sevinch Omon.*

Otaismlar tarkibidagi qo‘shimchalar asosga qo‘shib, ***o‘g‘li, qizi*** so‘zlari esa ajratib (kichik harf bilan) yoziladi:

Masalan: *Ulug‘bekovich / Ulug‘bek o‘g‘li*, *Ulug‘bekovna / Ulug‘bek qizi*.



4. Quyidagi misollarga qarab familiyalar uchun qanday holatlarda *-ov(a), -ev(a) / -yev(a)* qo‘shimchalari tanlanishi haqida xulosa chiqaring.

Familiyalar	Xulosa
Yo‘ldosheva, Ergashev, Qilicheva	...
Sheraliyeva, Ro‘ziyev, Hamroyeva	...
Hasanov, Sobirov, Sultonova	...

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 112 21/08/24 12:31



5. **Familiya hosil qilishda qaysi qo‘shimchadan foydalanish kerakligini aniqlang va daftaringizga yozing.**

	-ov(a)	-ev(a)	-yev(a)
Oybek	...	...	...
Baxtiyor	...	...	...
Yo‘lchi	...	...	...
Bektosh	...	...	...
Egamberdi	...	...	...



Kun.uz **saytida e’lon qilingan ma’lumot bilan tanishing. Undan namuna sifatida foydalanib matn yozib keling.**

O‘g‘il bolalar				Qiz bolalar			
T/r	**Ism**	**Yil**	**Jami**	**T/r**	**Ism**	**Yil**	**Jami**
1	Muhammadali	2023	9806	**1**	Soliha	2023	9241
2	Mustafo	2023	7898	**2**	Muslima	2023	5990
3	Abdulloh	2023	6591	**3**	Yasmina	2023	4705
4	Muhammad	2023	6008	**4**	Imona	2023	3639
5	Muhammadyusuf	2023	4915	**5**	Shukrona	2023	3525
6	Muhammadamin	2023	4202	**6**	Xadicha	2023	3345
7	Nurmuhammad	2023	3186	**7**	Sumayya	2023	2810
8	Muhammadjon	2023	3109	**8**	Ifora	2023	2508

Namuna


Muhammadamin hozir ko‘p qo‘yilayotgan ismlardan biridir. 2023-yilda tug‘ilgan 4202 nafar o‘g‘il bolaga shu ism berilgan. Ko‘p qo‘yilishi bo‘yicha 6-o‘rindan joy olgan. 7-o‘rindagi ismdan 1016 taga ko‘p. Shunga asoslanib aytish mumkinki, bu ism joriy yilda ham o‘z o‘rnini boshqa ismga berib qo‘ymaydi.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 113 21/08/24 12:31

1. Uyingizdagilar sizni ismingizdan tashqari yana qanday chaqirishadi? *Shirinim, oppog‘im, erkatoyim* kabi so‘zlarni ishlatishganmi?
2. Ota-onangiz yo bobo-buvingiz sizni hech *qo‘zichog‘im, toychog‘im* deb erkalashganmi?
3. Kattalar ba’zan bolalarga nisbatan *xumpar* deb qo‘yishadi. Xumpar nima ekanini bilasizmi?

Xumpar, xo‘tik, qulun: uy hayvonlari o‘zbekchada qanday ataladi?




Xumpar

O‘zbek xalqi mushukning bolasini *xumpar* deb atagan. Xumpar rasmana mushukka aylansa, mov bo‘ladi. Bahor kelib, kunlar isiy boshlaganda mushuklar g‘alati ovozlar chiqara boshlaydi. Buni eshitgan odamlar: “Mushuk mov bo‘libdi”, – deyishi shundan.

Hozir ko‘pchilik xumpar so‘zi mushuk bolasining nomi ekanini bilmaydi. Har bir xalqda bolasini turli jonivorlar nomi bilan erkalab chaqirish odati bor. Masalan, yoshi katta odamlar kichik yoshli o‘g‘il bolalarni erkalab *xumpar* deyishadi. Bu so‘z katta yoshli o‘g‘il bolalarga nisbatan ishlatilganda “qurg‘ur”, “shumtaka” ma’nolarini bildiradi. ***Xumpar*** so‘zi qiz bolalarga nisbatan qo‘llanmaydi.

Bo‘taloq

Tuyaning yangi tug‘ilgan bolasi shunday ataladi. O‘zbeklarda yosh bolalarni erkalab *bo‘talog‘im* deyish odati bor: “Bo‘talog‘im, endi yotib uxla, kech bo‘ldi”. Bo‘taloq biroz katta bo‘lgach, *bo‘ta* deyiladi. ***Bo‘ta*** so‘zi ham “tuyaning bolasi” ma’nosini bildiradi. Kattalar o‘g‘il bolalarni *bo‘tam* deb erkalab, suyib qo‘yadilar.



Bo‘tam so‘zi keksalar nutqida katta yoshli yigitlarga nisbatan ham qo‘llanadi va bu paytda “o‘ziga yaqin olish” ma’nosini bildiradi. Masalan: “Bo‘tam, otangizning ismi nima edi?”

Qo‘zichoq

Qo‘yning yangi tug‘ilgan bolasi. Bu so‘zdagi *-choq* qo‘shimchasi “kichkina” degan ma’noni bildiradi. Qo‘zichoq to‘rt-besh oylik bo‘lgach, to bir yoshga yetguncha *qo‘zi* deyiladi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 114 21/08/24 12:31

www.idum.uz saytidan yuklab olindi



Qo‘zichoq va ***qo‘zi*** so‘zlari kishilar nutqida bolalarni erkalab suyishda qo‘llanadi.

Hozircha orom ol,
Yolg‘izim, qo‘zim.
Tun uzoq, uxlay qol,
Ko‘zlaringni yum.


Erkin Vohidov

Qulun

Otning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi *qulun* deyiladi. O‘zbeklar yosh bolalarni *qulunim* deb erkalashi shundan. Qulun biroz katta bo‘lgach, toychoq bo‘ladi. Ko‘pincha ota-onalar o‘g‘illarini *toychog‘im* deb erkalaydilar. Masalan: “Kela qol, toychog‘im, ovqating sovib qoldi”. Bunday deyilishiga otning chopqir ekani sabab bo‘lgan.

Otning erkagi – “ayg‘ir”, urg‘ochisi – “baytal”, ona bo‘lgani “biya” deyiladi.






Buzoq

Sigirning bir yoshga yetmagan bolasi. Buzoq bir yoshga to‘lgandan keyin o‘zbek adabiy tilida *tana*, ayrim o‘zbek shevalarida *tanacha* deyiladi. Ikki yoshga yetgan va hali bolalamagan urg‘ochi qoramolga nisbatan *g‘unajin* so‘zi qo‘llanadi.

Uloq

Echkining bolasi. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”dagi ma’lumotga ko‘ra, bugungi tilimizdagi ***uloq*** so‘zi qadimgi turkiy tilda *ulag‘* shaklida bo‘lgan, keyinchalik *a – o* tovushiga, *g‘ – q* tovushiga o‘zgargan. ***Ulag‘*** so‘zi tilimizning qadimgi davrida “echki bolasi” ma’nosini emas, voyaga yetgan har qanday miniladigan hayvonni bildirgan.





Xo‘tik

Eshakning bolasi. Bundan tashqari, ayrim o‘zbek shevalarida *kudung* va *qudung* so‘zlari ham eshakning bolasini bildiradi. Buxoro shevasida esa eshakning bolasi *kurra* deb yuritiladi.

Yorqinjon Odilov

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 115 21/08/24 12:31



6. Matn asosida quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

1	Qaysi so‘z yangi tug‘ilgan jonzotni anglatmaydi?	**A**	xo‘tik
		B	toychoq
		D	bo‘taloq
		E	qo‘zichoq

2	Xumparning mov bo‘lganini odamlar nimaga qarab aniqlaydi?	**A**	mushukcha rangining to‘q tus olishiga qarab
		B	mushukchani onasi yakkalab qo‘yganiga qarab
		D	mushukchaning ovozidagi o‘zgarishga qarab
		E	mushukchaning o‘zi ov qila boshlaganiga qarab

3	Etimologik lug‘atga ko‘ra, “uloq” so‘zi o‘tmishda qanday hayvonlarga nisbatan qo‘llangan?	**A**	sher, yo‘lbars, qoplon
		B	echki, qo‘y, kiyik
		D	it, bo‘ri, sirtlon
		E	ot, eshak, tuya

4	Qaysi jonzot bolasining nomi katta yoshli yigitlarga nisbatan ham qo‘llanadi?	**A**	tuya
		B	qo‘y
		D	ot
		E	echki



7. Matn asosida quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

1. Kattalar o‘g‘il va qizlarni erkalab “xumpar” deb chaqirishadi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

2. Bolasini turli jonivorlar nomi bilan erkalab chaqirish faqat o‘zbeklargagina xos noyob hodisadir.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

3. “Kela qol, toychog‘im, ovqating sovib qoldi” deganda kattalar odatda bolani tezroq harakat qilishga undaydi.

A. To‘g‘ri B. Noto‘g‘ri

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 116 21/08/24 12:31

8. Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi so‘zlarni aniqlab, gaplarni ko‘chiring.

1. Kungay taraflarda yerdan taft kela boshlaganda ... bilan biyani yetaklab olib chiqaman. *(“Jimjitlik”)*
2. Voybo‘y, tirikmisan, … , Toshkentga qachon kelding? *(“Shum bola”)*
3. Sabr qilsang, tuyaning yukini … ko‘tarar. *(Maqol)*
4. Osimbek …ni birinchi marta ko‘rishi, shekilli, soqolchasidan ko‘z uzolmay qoldi.

Foydalanish uchun so‘zlar: *qo‘zi, bo‘ta, qulun, uloq, xo‘tik, xumpar, buzoq.*
(Diqqat! 3 ta so‘z ortiqcha)

Uyingizdagi kattalar bilan ismlar haqida suhbatlashing. Oila a’zolaringiz va qarindoshlaringizning ismlari qanday ma’noni anglatishi, qanday niyat bilan qo‘yilganini aniqlang. Sinfdoshlaringiz uchun qiziq ma’lumotlarni daftarga yozing.



9. Shoir Abdulla Oripovning *“Ba’zan g‘aliz jumla ustida Soatlab bosh qotirganim bor”* degan satrlari bor. *“Jumlalaringiz g‘aliz ekan”*, *“G‘aliz jumla tuzibsiz”* kabi gaplar ham quloqqa chalinib qoladi. Xo‘sh, *“g‘aliz jumla”* nimani anglatadi? Buni quyidagi jadval asosida tushunishga harakat qiling.

G‘aliz jumla	Ravon jumla
Xonadagi eski barcha jihozlarni chiqarib tashlang.	Xonadagi barcha eski jihozlarni chiqarib tashlang.
Sen haqingda sendan yaxshiroq biladigan kishi yo‘q.	Sen haqingda o‘zingdan yaxshiroq biladigan kishi yo‘q.
Qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketdilar.	Qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketdi.
Ikkita semiz kitob sotib oldim.	Ikkita qalin kitob sotib oldim.
Yelkamga qo‘li bilan asta turtdi.	Yelkamga asta turtdi.
Do‘stligimiz mangu va abadiy bo‘lsin.	Do‘stligimiz mangu bo‘lsin. / Do‘stligimiz abadiy bo‘lsin.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 117 21/08/24 12:31



10. **G‘aliz jumlalarni to‘g‘rilab yozing.**

1. Har bir Navoiyning g‘azalida olam-olam ma’no yashirin.
2. G‘olibga o‘nta kitoblar topshirildi.
3. Onajon, men sizni, ya’ni aziz onajonimni tabriklayman.
4. To‘pni oyog‘im bilan qattiq tepdim.
5. Chavandoz otning yolini qo‘llari bilan siladi.



11. **Gaplardagi qaysi so‘z ortiqcha, o‘rinsiz ekanini aniqlang.**

Do‘stimning ijobiy fazilatlari haqida gapirib beraman.	...
Ishlab topgan pulimizning teng yarmi seniki.	...
Tekin sovg‘a kimga ham yoqmaydi.	...



K bilan tugagan so‘zga ***-ga*** qo‘shilsa, bu qo‘shimcha ***-ka*** tarzida aytiladi va shunday yoziladi. **Masalan:** *etik**ka**, ko‘zoynak**ka**.*

Agar egalik qo‘shimchasi (**-im**, **-ing**, **-i**, **-imiz**, **-ingiz**) qo‘shilsa, **k** undoshi **g** deb aytiladi va shunday yoziladi. **Masalan:** *varra**g**im, erma**g**i.* Lekin ayrim so‘zlarda talaffuzda ham, yozuvda ham **k** saqlanadi. **Masalan:** *idro**k**ing, ishtiro**k**imiz*.

G (**ng**) undoshi bilan tugagan so‘zlarga ***-ga*** qo‘shilsa, asos va qo‘shimchalar qanday aytilishidan qat’i nazar, o‘zgarmaydi. **Masalan:** *barg**ga**, ohang**ga**.*



12. **Qaysi holatda *-ga* qo‘shimchasi *-ka* tarzida yozilishini aniqlang.**

ertak + ga | hotdog + ga | barg + ga | kichik + ga | piching + ga | ish + ga

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 118 21/08/24 12:31

13. Bo‘sh o‘rinlarga mos harflarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1. Akmal tog‘a gapimizni eshitib miyi…ida kulib qo‘ydi.
2. Sizga tila…im: hech qachon kasal bo‘lmang.
3. Qushcha shoxdan shox…a sakrab yuribdi.
4. Hamma o‘z haq-huqu…ini bilishi kerak.
5. Xalq o‘z ozodligi, er…ini boy berishi – haqiqiy fojia.

Jadvalda berilgan ismlarga ikkinchi va uchinchi ustundagi qo‘shimchalarni qo‘shib chiqing. So‘ng bu so‘zlar quyidagi guruhlardan qay biriga mosligini aniqlang va yozing.

A. Faqat talaffuzida o‘zgarish bo‘lgan so‘zlar.
B. Ham yozuvida, ham talaffuzida o‘zgarish bo‘lgan so‘zlar.
D. O‘zgarish bo‘lmagan so‘zlar.

	-im	*-ga*
Oybek	...	...
Sodiq	...	...
Qutlug‘	...	...

1. Sinfingizda adashlar bormi? Bo‘lsa, kimlar?
2. Nima uchun bir oila vakillariga odatda bir xil ism qo‘yilmaydi?
3. Tanishlaringiz orasida adashi yo‘q yo ismi kam uchraydiganlar bormi? Misollar keltiring.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 119 21/08/24 12:31



Adash – ismi bir xil ekanligini bildiruvchi so‘z. Aslida “otdosh” (oti, ismi bir xil) shaklida bo‘lgan, keyinchalik o‘zgarib, “adash” ko‘rinishini olgan.



Dard
(hikoyadan parcha)

“Ismlar niyatdir”, – deydi bobolar. Do‘stmurod ota ham to‘ng‘ichiga yaxshi niyat bilan Komron ismini qo‘ygan edi. Komron o‘qidi, ishga kirdi, uylandi. Hozir ikki farzandning otasi. Do‘stmurod ota bugun uch muchal yoshini qarshilayotgan o‘g‘liga qarab: “Shukrki, Komronim ismi jismiga monand bo‘ldi. Baxtli bo‘lsin, hamma baxtiga havas qilsin deb shu ismni qo‘ygandim. Niyatimga yetkazdi”, – dedi ichida. “Lekin Noilam bu kunlarni ko‘rolmadi-da”, – deb cho‘ntaklariga bir-bir qo‘l solib chiqdi. “Balki, kelinim yuvgani olgandir”, – deb o‘ng qo‘lini ko‘zlariga olib bordi…

Nasim rulni ikki qo‘li bilan mahkam tutgan ko‘yi boshini o‘ngga burib so‘z qotdi:

– Boyagi oq sochli, lunji osilgan kishi kim edi, tanimadingizmi, dada?

Do‘stmurod ota chap lunjini qimirlatib qo‘ydi. Bu uning “yo‘q” degani edi.

Nasim boshqa savol bermadi. Do‘stmurod otaning javob ishorasidan hammasi ma’lum edi…

Fozil Kattabek



1. “Ismlar niyatdir” deganda nima tushundingiz?
2. Do‘stmurod otaning “*Shukrki, Komronim ismi jismiga monand bo‘ldi*” degan gapi nimani anglatadi?
3. *“Lekin Noilam bu kunlarni ko‘rolmadi-da”, – deb cho‘ntaklariga bir-bir qo‘l solib chiqdi. “Balki, kelinim yuvgani olgandir”, – deb o‘ng qo‘lini ko‘zlariga olib bordi…”* Ushbu parchadagi Do‘stmurod otaning xatti-harakatlarini tushuntirib bering: u nega cho‘ntak kovlagani, nima uchun qo‘lini ko‘ziga olib borganini izohlang.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 120 21/08/24 12:31

14. **Hikoya qahramonlarining qarindoshlik darajasini (bir-biriga kim bo‘lishini) aniqlab, quyidagi jadvalni to‘ldiring.**

	Do‘stmurod otaga	Komronga	Noilaga	Nasimga
Do‘stmurod ota		...	...	...
Komron	...		...	...
Noila	...	...		...
Nasim	...	...	...	

15. **Berilgan so‘zlardagi d tovushiga e’tibor qiling: u qaysilarida *[d]*, qaysilarida *[t]* tarzida talaffuz etilishini aniqlang.**

Do‘stmurod	uylan**d**i	yetkaz**d**i
Do‘stmuro**d**	qo‘l solib chiq**d**i	so‘z qot**d**i
niyat**d**ir	qo‘ygan**d**im	ohangi**d**an

[d] tarzida

[t] tarzida

D tovushi ba’zan **d**, ba’zan **t** tarzida talaffuz qilinsa ham, doim **d** yoziladi.
d tarzida: bor**d**i, bora**d**i, kul**d**ir, o**d**am, **d**avom…
t tarzida: ket**d**i, yurt**d**an, mar**d**, ozo**d**, odamzo**d**…

16. **Bo‘sh o‘rinlarga *d* yoki *t* harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.**

bunyo…kor | ijo… | es…alik | ijoba… | o‘s…ir

daroma… | davoma… | kelish…i | murojaa…

Azama… | Abdusama… | Po‘la… | Risola… | Farho…

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 121 21/08/24 12:31

Hikoyadan olingan parcha asosida test topshiriqlarini bajaring. Savollar va to‘g‘ri javoblarni daftaringizga ko‘chiring.

1	“Komron” bilan ma’nosi o‘xshash ismni aniqlang.	**A**	Sodiq
		B	Baxtiyor
		D	Nasim
		E	Kamol

2	Matnga tayanib Komronning yoshini aniqlang.	**A**	30
		B	27
		D	36
		E	40

3	*“Lekin Noilam bu kunlarni ko‘rolmadi-da”, – deb cho‘ntaklariga bir-bir qo‘l solib chiqdi. “Balki, kelin yuvgani olgandir”, – deb o‘ng qo‘lini ko‘zlariga olib bordi…* Do‘stmurod ota cho‘ntagidan nimani izladi?	**A**	ro‘molcha
		B	pul
		D	xat
		E	hamyon


Lug‘at va uning turlari

1 Lug‘atlar turli maqsadlarda tuziladi. Masalan, izohli lug‘atlardan so‘zning bosh va ko‘chma ma’nolarini, imlo lug‘atlaridan so‘zning imlosi (to‘g‘ri yozilishi)ni, tarjima lug‘atlardan esa so‘zning boshqa tilda qanday ifodalanishini bilish maqsadida foydalaniladi. Izohli va ko‘p tilli lug‘atlardan farqli ravishda imlo lug‘atlarida asosiy so‘zdan keyin hech qanday sharh keltirilmaydi.

2 XXI **asr**ga kelib lug‘at kitoblar o‘rnini elektron lug‘atlar, dastur va ilovalar egallay boshladi. Endi siz kitob izlab yo ko‘tarib yurishingiz shart emas. Smartfon, planshet, noutbuk orqali yuzlab kitoblardagi ma’lumotni osongina topa olasiz. Elektron lug‘atlarning yana bir afzalligi shundaki, ularni doimiy boyitib borish imkoni bor. Har 10–15 yilda, ba’zan undan ham uzoqroq davrda chop etiladigan lug‘atlar yangi so‘zlarni biroz **kech** “hazm qiladi”.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 122 21/08/24 12:31

3 Lug‘atlarda so‘zlar alifbo tartibida beriladi. Qanday so‘zlarimiz **borligi,** ular qanday ma’no anglatishini bilish uchun lug‘atlarga murojaat qilish mumkin.



4 **Til**dagi so‘zlar jamlanmasi lug‘at bo‘lib, uning tarkibi yildan yilga boyib boradi. Bu tildagi so‘zlarning **ortib** borishini anglatadi. Masalan, **qirq** yil oldin o‘zbek tili lug‘atlarida 70 000 ga yaqin so‘z bo‘lgan bo‘lsa, hozir ularning soni 100 000 atrofida.



5 So‘zlarning kelib chiqishi ko‘rsatiladigan etimologik, iboralar izohlanadigan lug‘atlar, shuningdek, omonimlar, sinonimlar, antonimlar va paronimlarga doir maxsus lug‘atlar ham mavjud.

17. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday ma’noda qo‘llanganini aniqlab, yozing.

til	muloqot vositasi
	odam va hayvon a’zosi
ortib	ustiga joylab, yuklab
	oshib, ko‘payib
qirq	kes, bo‘lakla
	ikki xonali son

bor	mavjud
	marta, karra
asr	yuz yilga teng vaqt
	tushdan keyingi payt
kech	yuz o‘gir, bahridan o‘t
	kerak vaqtdan keyin

18. Quyidagi test savolining to‘g‘ri javobini aniqlang.

Matnning qismlari qaysi javobda to‘g‘ri tartiblangan?	**A**	1, 3, 4, 5, 2
	B	3, 5, 2, 4, 1
	D	2, 4, 5, 3, 1
	E	4, 3, 1, 5, 2

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 123 21/08/24 12:31

1. Matnning kirish qismi boshqa qismlardan nimasi bilan farq qiladi?
2. “5” raqami bilan ko‘rsatilgan qism matnning boshlanishi – kirishi bo‘la olmaydi. Buni shu jumladagi birgina so‘z bilan ham isbotlash mumkin. Bu qaysi so‘z?
3. Matn qismlarini to‘g‘ri tartiblashda nimaga asoslanish kerak?

19. Matnda *lug‘at* so‘zi qanday ma’nolarda qo‘llangan? Ikkita to‘g‘ri variantni topib yozing.

- ○ insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi
- ○ bir tilda mavjud so‘zlar yig‘indisi
- ○ tildagi yozilishi yoki talaffuzi bir xil so‘zlar
- ○ so‘zlar muayyan tartibda jamlangan qo‘llanma
- ○ qog‘oz yo elektron shakldagi har qanday kitob

20. *Askiya* so‘zining izohli lug‘atdagi sharhi bilan tanishing. *Asosiy so‘z*, *izoh*, *misol*, *manba* va *so‘z etimologiyasi* qaysi harf bilan belgilanganini aniqlang. Bo‘sh kataklarga qaysi harf mos kelishini toping.

asosiy so‘z	izoh	misol	manba	etimologiya

A B D

ASKIYA– [a. – ziyraklar, zakiylar] 1. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining bir janri bo‘lib, unda so‘z o‘yiniga, qochiriqlarga asoslangan holda ikki yo undan ortiq kishi musobaqalashadi.

Muhiddin qiziq askiyaga usta bo‘lishi bilan birga atrofiga qiziqchilikka ishqiboz yoshlarni ham yig‘a bilgan ustoz edi.

Rahimjon Do‘sanov. “O‘zbek askiyachiligi sardori” kitobidan

E F

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 124 21/08/24 12:31

21. Berilgan namunalar lug‘atning qaysi turiga mansub ekanini aniqlab, jadvalning quyi qismiga mos raqamlarni qo‘ying.

1. **OYDIN** – “oy” so‘ziga “tun” qo‘shilib, dastlab “oytun” bo‘lgan. Keyinchalik tovush o‘zgarishiga uchrab, hozirgi ko‘rinishga kelgan.
2. **OYDINDA OYOG‘IM QILADI** – “bu ish menga juda oson”, “ko‘zimni yumib ham qila olaman” ma’nolarida.
3. **OYDIN** – *sft.* Oy chiqib, hamma yoq oy nuri bilan yorigan, yorug‘. ***Oydin kecha.***
4. **OYBOLTA**
   OYDA-YILDA
   OYDIN
5. **OYDIN** – nurli, yorug‘, charog‘on, ravshan, nurafshon.
6. **OYDIN** – lunar, moon

imlo lug‘ati	izohli lug‘at	sinonimlar lug‘ati	ko‘p tilli lug‘at	etimologik lug‘at	frazeologik lug‘at

Quyidagi omonim (shakldosh) so‘zlarning ma’nosini aniqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzib, yozing.

karam I
karam II

bo‘sh I
bo‘sh II

belamoq I
belamoq II

palla I
palla II

shama I
shama II

xayr I
xayr II

yarashmoq I
yarashmoq II

1. Nima uchun lug‘atlarda so‘zlar alifbo tartibida joylashadi?
2. “Lug‘at va uning turlari” matnida aytilishicha, qirq yil oldin o‘zbek tili lug‘atlarida 70 000 ga yaqin so‘z bo‘lgan bo‘lsa, hozir ularning soni 100 000 atrofida. Yangi so‘zlar qanday paydo bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 125 21/08/24 12:31

22. **Izohli lug‘atda so‘zning bosh va ko‘chma ma’nolari beriladi. Quyidagilardan qay biri shu fikrga misol bo‘la oladi?**

KIRMOQ –
1. Uyga kirmoq.
2. Qo‘liga tikan kirmoq.
3. Ishga, o‘qishga kirmoq.

OVQAT – odam va hayvonlar yemishi;
TAOM – faqat odam yemishi.

TO‘R I – futbol darvozasining to‘ri.
TO‘R II – uyning to‘ri.

DAVO – shifo.
DA’VO – arz, shikoyat.

23. **Quyida berilgan gaplarda “botmoq” so‘zi qanday ma’noda kelganini aniqlang.**

1	Dushman kemasi suvga botdi.	**A**	hazm bo‘lmoq
2	Mushukning tirnog‘i bilagimga qattiq botmoqda.	**B**	xafa qilmoq
3	Ali akaning gapi menga botdi.	**D**	cho‘kmoq
4	Birovni norozi qilib olingan non bizga botmaydi.	**E**	yurolmay qolmoq
5	Oq ko‘ylagi botdi qizil qoniga.	**F**	sanchilmoq
6	Botib qoldik. Mashina siljimayapti.	**G**	belanmoq

24. **“Lug‘at va uning turlari” matnidan olingan quyidagi jumlani sharhlab yozing.**

Har 10–15 yilda, ba’zan undan ham uzoqroq davrda chop etiladigan lug‘atlar yangi so‘zlarni biroz kech “hazm qiladi”.

25. **“Lug‘at va uning turlari” matnidan olingan quyidagi jumlani qanday tushunasiz? Fikringizni ayting.**

Izohli va ko‘p tilli lug‘atlardan farqli ravishda imlo lug‘atlarida asosiy so‘zdan keyin hech qanday sharh keltirilmaydi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 126 21/08/24 12:31

Qarg‘a, tarsaki, shippak, paqildoq, shiqildoq, sharshara, qahqaha, qultum, ho‘ngramoq, jizza so‘zlaridan ikkitasini tanlang va namuna asosida sharhlab, daftaringizga yozing.

Namuna

SHARSHARA

Ma’nosi: balanddan shovullab tushadigan suv.

Misol: tog‘dan tushayotgan sharsharaning ovozi uzoqdan eshitilib turar edi.

Yasalishi: bu so‘z *shar* yoki *shar-shar* so‘zidan kelib chiqqan. *Shar* yo *shar-shar* suv tepadan sharillab tushganda chiqadigan tovushdir. *Shar-shar* so‘ziga *-a* qo‘shimchasi qo‘shilib, *sharshara* so‘zi yasalgan.

26. “G‘aroyib so‘zlar” audiomatnini tinglang va savollarga javob bering. 4



O‘zbekiston xalq shoiri **Erkin Vohidov**ning **“So‘z latofati”** kitobida tilimizdagi ayrim so‘z, ibora va maqollarning kelib chiqishi – etimologiyasiga doir mulohazalar keltirilgan.



1. “Kamina” so‘zi o‘zbek va hind tillarida qanday ma’nolarda qo‘llanadi?
2. Nima uchun Hindistonda “Muxbirman” deyish xavfli?
3. “Sizga taklifim bor”, desak, hindlar buni qanday tushunadi?
4. “Zimiston” so‘zini bobolarimiz “qish” ma’nosida qo‘llagan. Bu so‘zning “qorong‘i” degan ma’nosi qanday paydo bo‘lgan?
5. Qaysi iboraning qisqarishi natijasida “xunuk” so‘zi “badbashara” ma’nosini olgan?
6. “Birpas kutib turing” deganda aslida qancha vaqt haqida gap boradi?

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 127 21/08/24 12:31

27. **Audiomatn asosida quyidagi fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.**

to‘g‘ri	*Bog‘iston, guliston* so‘zlari “chiroyli”, “yorug‘” ma’nolarini bildiradi.	noto‘g‘ri
to‘g‘ri	Tilimizdagi *zimiston* va ruscha *zima* so‘zlari bir-biriga “qarindosh”.	noto‘g‘ri
to‘g‘ri	Qisqartirishga o‘chligimiz bois *xunuk, zimiston* so‘zlari boshqa ma’noda qo‘llana boshlagan.	noto‘g‘ri
to‘g‘ri	*Birpas* so‘zi *bir nafas* so‘zining o‘zgarishidan hosil bo‘lgan.	noto‘g‘ri

28. **Audiomatnni qayta tinglang. Qismlarga nom bering.**

Kalit so‘zlar

kamina, muxbir, taklif	* * *
tabaka	* * *
zimiston	* * *
xunuk	* * *
birpas	* * *

Quyidagi so‘zlar imlosini to‘g‘rilang va ular ishtirokida 5 ta gap tuzing.

jurnalis zinhorba-zinhor paskash Hindistonlik ustamizku

qopqorong‘i egizag qovirilgan tushinavering

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 128 21/08/24 12:31

1. *Muallif: “Tilshunos olimlarimiz baraka topsinlar, xaloyiqning aytgani bo‘la qolsin deb lug‘atlarda zimistonga “qop-qorong‘i kecha” deya izoh berdilar”,* – deydi. Bu yerda muallif olimlarimizni olqishlayaptimi yoki ularga kinoya qilyaptimi?
2. Audiomatnda qaysi so‘zni muallif “o‘zimizning bolamiz” deb ataydi? Nega?
3. Muallifning bolalikda bitgan *“Shabboda, to‘xta birpas”* degan satrini gazeta muharriri nega qizil qalam bilan to‘g‘rilagan? Axir bu gapda xato yo‘q edi-ku! Fikringizni bildiring.

29. Audiomatndan olingan gaplarda bittadan so‘z ajratib ko‘rsatilgan. Uning o‘rniga qo‘yish mumkin bo‘lgan sinonimini aniqlang.

1. Bizga tanish hamma so‘zlar ham biz tushungan ma’noni **anglatmaydi**.

tasdiqlamaydi | bildirmaydi | izohlamaydi

2. *Tobaki* degan so‘zimiz bor. Uning qismati **ajoyib**.

tushunarsiz | achinarli | hayratomuz

3. *Bog‘iston, guliston* so‘zlari kabi chiroyli, yorug‘ **kalima**.

so‘z | maskan | xona

4. Avvallari uni *sovuq* ma’nosida to‘g‘ri **ishlatganmiz**.

foydalanganmiz | qo‘llaganmiz | gapirganmiz

5. Demak, **taxminan** bir soatga teng tungi muddat – pos.

chamasi | salkam | qisqasi

Istak gaplar ikki muhim belgiga ega:
1. Istak-xohishni bildiradi. **2.** Gap kesimi ***-sa*** qo‘shimchasini oladi.
Masalan: *Qani edi katta kutubxonam bo‘l**sa**.*
Istak gap bo‘lishi uchun yuqoridagi ikki talab bajarilishi shart. “*Uyga qaytishni istayman*” gapining kesimida ***-sa*** yo‘qligi uchun, “*Kelsa, meni chaqiringlar*” gapida esa istak mazmuni bo‘lmagani uchun ular istak gap hisoblanmaydi.
Istak gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 129 21/08/24 12:31

30. Berilganlar orasidan istak gaplarni topib, yozing.

1. Kelasi yili Qatarga sayohat qilmoqchimiz.
2. Koshki shu kunlarni ko‘rmasam edi.
3. Nahotki sen meni sotgan bo‘lsang?
4. Qaniydi hozir bir lagan osh bo‘lsa.
5. Istagim shu: doim kulib, xursand bo‘lib yuring.
6. Zora biz tomonlarga ham qor yog‘ib qolsa.

31. Berilgan gaplarni istak gapga aylantirib yozing.

Namuna

Bugun jamoamiz yutarmikan? – Qani edi bugun jamoamiz yutsa.

1. Beshinchi sinfni ham “5” bahoga tamomlashni xohlayman.
2. Ukam hali ham “r”ni aytolmaydi.
3. Havo sovishini kutamiz-da endi.

Bog‘iston, guliston so‘zlari kabi chiroyli, yorug‘ kalima. **Ushbu gapda muallif nima uchun “kalima” o‘rniga “so‘z”ni qo‘llamagan?**

Oshxonangizga kiring va u yerda ko‘p ishlatiladigan 20 ta narsa (idish, jihoz va mahsulotlar)ning nomini qoralamaga yozing. Keyin imlo lug‘atidan ularning to‘g‘ri shaklini ko‘rib oling va daftarga ko‘chiring. Qoralamada xato yozib, keyin to‘g‘rilagan so‘zlaringiz ostiga chizing.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 130 21/08/24 12:31

Joy nomlarining kelib chiqishi

Joy nomlarining kelib chiqish tarixi qiziq. Ba’zi joy nomlari tasavvur qilganimizdan tamoman boshqacha ma’noga ega. Yurtimizda bunday sirli nomga ega shahar va qishloqlar talaygina.

G‘azalkent g‘azallar shahrimi?

Kent qadimgi sug‘d tilida *kand, kant* shakliga ega bo‘lgan va *devor, uy, xonadon, qo‘rg‘on, qishloq* kabi ma’nolarni anglatgan. Kent shahar ma’nosida bo‘lsa, G‘azalkent g‘azallar shahri bo‘ladimi? Toponimik adabiyotlarda yozilishicha, shahar nomi hazar qabilasi nomidan kelib chiqqan. Hazarlar – qadimgi turkiy qavm. Hazarkent – hazarlar qishlog‘i. Hazar so‘zi keyinchalik tovush o‘zgarishiga uchragan.



Sariosiyo va Osiyo

Sariosiyo so‘zini talaffuz qilganda dastlab kishining xayoliga *sari* va *Osiyo* so‘zlari keladi. Osiyo sari deganimikan deb o‘ylash ham mumkin. Biroq etimologiyadan xabardor kishi bunday emasligini oson payqaydi. Sariosiyo Osiyo qit’asidagi minglab qishloqlardan biri xolos, uning Osiyoga hech qanday aloqasi yo‘q.

Bu joy nomi forscha ***sar*** – *bosh* va ***osiyo*** – *tegirmon* so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Sariosiyo tegirmonboshi, tegirmon yuqorisidagi qishloq demakdir. Surxondaryodagi tumandan tashqari o‘lkamizda *osiyo* tarkibli toponimlar talaygina: Galaosiyo, Qo‘shosiyo, Tagiosiyo.

Ulug‘nor va katta anor


Ulug‘nor – Andijon viloyatidagi tuman. Shakl-u shamoyiliga qarab ulug‘ va nor so‘zlaridan yasalgan bo‘lsa kerak, oldin bu yerlarda biror katta anor bo‘lgan, nom ham shundan kelib chiqqan degan xayolga borish mumkin. Biroq taxminimiz bu safar ham bizni aldaydi.

Andijonda Ulug‘nor nomli kanal bor. Tumanga ana shu kanalning nomi berilgan. Uni 1868–1871-yillarda Qo‘qon xoni Xudoyorxon qazdirgan. Nom tarkibidagi *nor* aslida arabcha ***nahr*** – *daryo, anhor* so‘zining talaffuzda o‘zgargan shaklidir. Ulug‘nor *ulug‘ nahr,* ya’ni *katta anhor* demakdir.

Chiroqchida chiroq yasalganmi?

Qashqadaryoda Chiroqchi tumani bor. Xo‘sh, bu nom nimani anglatadi? Suvchi ekinlarni sug‘oruvchi, o‘tinchi o‘tin teruvchi, temirchi temirga ishlov beruvchi bo‘lganidan

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 131 21/08/24 12:31



keyin chiroqchi chiroq yasovchi bo‘ladi-da, deb xulosa qilishimiz mumkin. Yuz-ikki yuz yil narisida ko‘cha chiroqlarini yoqish bilan shug‘ullanuvchi kishilar *chiroqchi* deyilgan. Balki, shundan kelib chiqqandir bu nom?

Milliy ensiklopediya toponimni chiroq yasovchi hunarmandlarga bog‘lagan. Biroq etimologik adabiyotlar bunga qo‘shilmaydi. Bu fikrning asosli emasligini chiroqchi so‘zi lug‘atlarda chiroq yasovchi sifatida izohlanmagani ham isbotlaydi.

Chiroqchi nomi uzoq tarixga ega. Manbalarda yozilishicha, *sirakchi* yoki *siroqchi* – qadimgi turkiy qabila-urug‘ning nomi. Bu maskanda ana shu urug‘ jamoasi yashagan. Joy nomi urug‘ nomidan kelib chiqqan.

Orif Tolib

1. Matnda qaysi viloyatlardagi joy nomlari izohlangan?
2. G‘azalkentning oldingi va hozirgi nomlari qaysi tovushlariga ko‘ra farq qiladi?
3. G‘azalkent va Chiroqchi nomlarining kelib chiqishida qanday o‘xshashlik bor?
4. Qaysi nom o‘zbekcha va arabcha so‘zlar qo‘shilishidan hosil bo‘lgan?

32. Matn asosida quyidagi test savollarining to‘g‘ri javoblarini belgilang.

1	Matnda qanday joy nomlari izohlangan?	**A**	Yurtimizning sharqiy, g‘arbiy, shimoliy va janubiy mintaqalaridan tanlab olingan bittadan joy nomi
		B	O‘zbekistonda joylashgan, biroq kelib chiqishi o‘zbekcha bo‘lmagan joy nomlari
		D	Nomi hozirgi so‘zlarimizga o‘xshash, biroq ma’nosi butkul boshqacha joy nomlari
		E	Shu kungacha olimlar e’tiboridan chetda qolgan, o‘rganilmagan joy nomlari

2	Qaysi hudud nomini ayrim olimlar bir soha kishilari bilan bog‘lagan?	**A**	G‘azalkent
		B	Sariosiyo
		D	Ulug‘nor
		E	Chiroqchi

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 132 21/08/24 12:31

3	Qaysi hudud nomini “bir qancha tegirmon”, “tegirmonchilar guruhi” deb talqin qilish mumkin?	**A**	Sariosiyo
		B	Galaosiyo
		D	Qo‘shosiyo
		E	Tagiosiyo



33. So‘zlarni izohlari bilan moslab, daftaringizga yozing.

1	tamoman		**A**	joy nomi
2	toponim		**B**	katta ariq
3	qavm		**D**	qarindoshlar jamoasi, urug‘
4	anhor		**E**	ma’lumot olingan kitob, film va boshqalar
5	manba		**F**	butunlay, to‘liq




O‘z tuman/shahringiz yoki viloyatingizdagi biror joy nomi haqida ma’lumot toping. Uni tanlashda oila a’zolaringizdan yordam so‘rashingiz, tahlili uchun esa internetga murojaat qilishingiz mumkin. Matnni daftarga yozing.
Matn mavzusi: Joy nomlari siri.
Matn hajmi: 40–60 ta so‘z.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 133 21/08/24 12:31

1. Uyingizga pochtadan xatjild (konvert) kelganmi? Yoki o‘zingiz kimgadir xat jo‘natganmisiz?
2. Xatjild ustiga qanday ma’lumotlar yoziladi?

34. Xatjildning tuzilishiga diqqat qiling. Unga yana qanday ma’lumot qo‘shish kerak deb hisoblaysiz? Nima uchun?



Manzil yozishda hududlar kichrayib borish tartibida ko‘rsatiladi.
Masalan: Toshkent shahri Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi 21-uy.
Ko‘p qavatli uyda yashovchilarning manzilida xonadon ham ko‘rsatiladi.
Masalan: Toshkent shahri Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi 220-uy 31-xonadon.

35. Partadoshingizdan yashash manzilini so‘rang. Pochta xatjildining jo‘natuvchi (o‘zingiz) va qabul qiluvchi (partadoshingiz)ga tegishli qismlarini (indeksdan tashqari) daftaringizga yozing.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 134 21/08/24 12:31



Joy nomlari imlosida *viloyati, shahri, tumani, qishlog‘i, okeani, daryosi* kabi so‘zlar kichik harfda, davlat nomi yonida kelgan *respublikasi, qirolligi* kabi so‘zlar esa bosh harfda yoziladi. **Masalan:** Navoiy viloyati, Navbahor tumani, O‘zbekiston Respublikasi, Ispaniya Qirolligi.

Bir necha so‘zli joy nomlari quyidagicha yoziladi:

1. Agar ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lsa, ajratib, har bir qismi bosh harf bilan boshlanadi. **Masalan:** Katta Farg‘ona (kanal), Quyi Chirchiq (tuman).
2. Agar ikkinchi qismi turdosh ot bo‘lsa, qismlar qo‘shib yoziladi. **Masalan:** Surxondaryo (viloyat), Yangiyo‘l (tuman).
3. Agar materik, davlat, mintaqa kabilar nomi bo‘lsa, ajratib, har bir qism bosh harf bilan boshlanadi. **Masalan**: Janubiy Amerika (materik), Birlashgan Arab Amirliklari (davlat), Markaziy Osiyo (mintaqa).



36. Joy nomlaridagi xatolarni to‘g‘rilab yozing.

Zomin Shahri | Yaqin sharq | Turkiya respublikasi | Yangi yer shahri

yuqori Chirchiq tumani | Shimoliy Amerika Materigi | yangi Namangan tumani

Norin Daryosi | Hind Okeani | Katta qo‘rg‘on tumani



Ota-onangizga xat yozing. Maktubda ularni yaxshi ko‘rishingizni aytishingiz, qaysidir ishingiz uchun uzr so‘rashingiz, sizga g‘amxo‘rliklari uchun tashakkur bildirishingiz va shu kabilarni yozishingiz mumkin. Darsda maktubni xatjildga solib, ustozingiz yordamida yashash manzilingizga yuboring.



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 135 21/08/24 12:31

37. **Rasmlar asosida og‘zaki hikoya tuzing va aytib bering. Qahramonga ism tanlang, barcha jihatlariga ahamiyat bering. Hikoya voqeasi lavhalar ketma-ketligi bo‘yicha rivojlansin. Rasm va hikoyaga nom bering.**



38. **Quyidagi rasmlarni nomlang. Nega shunday ataganingizni izohlang.**



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 136 21/08/24 12:31

Mustaqil o‘qish uchun

Milliy oshxonaga sayohat



Osh so‘zi hozir asosan quyuq taom nomi sifatida qo‘llanadi va palovni anglatadi. Avvallari bo‘lsa, pishirib tayyorlanadigan har qanday yegulik tushunilgan, ya’ni *osh* so‘zi orqali suyuq ovqatlar ham nazarda tutilgan. “Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich!” maqolidagi *ich* so‘zi *osh* so‘zining “suyuq ovqat” ma’nosida qo‘llanganini ko‘rsatadi.



Mastava – guruch, go‘sht, poliz ekinlari va sabzavotlar qo‘shib pishiriladigan suyuq ovqat. *Mastava* so‘zi ikki qismdan iborat: “qatiq” ma’noli tojikcha *most* va “suv” ma’nosidagi *ob* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Mastava yengil taom bo‘lgani sababli uni ko‘proq shahar aholisi yaxshi ko‘rib iste’mol qilgan.

Hozir, masalan, Namangan shahrida ertalabdan oshxonalarda mastava tayyorlanadi, namanganliklar esa nonushtada bu taomni sevib ichadilar.



Do‘lma – tok yoki karam bargini, behi, bulg‘or qalampiri, baqlajon kabilarning ichini qiyma bilan to‘ldirib tayyorlanadigan tansiq taom. Qiyma qaysi sabzavot yoki mevaning ichiga solinishiga qarab ovqat nomi *karam do‘lma, behi do‘lma, qalampir do‘lma, sholg‘om do‘lma, piyoz do‘lma* deb atalaveradi. *Do‘lma* so‘zi asli *to‘lmoq, to‘ldirmoq* so‘zlaridan kelib chiqqan. Ya’ni *to‘l* so‘ziga *-ma* qo‘shimchasining qo‘shilishidan yasalgan. *-ma* qo‘shimchasining ko‘plab taom va ichimlik nomlarida uchrashidan xabaringiz bor: *dimlama, qovurma, bosma, siltama, suzma, damlama* kabi. Do‘lma tayyorlashda sabzavot yoki mevaning ichi qiyma va boshqalar bilan to‘ldirilgani uchun *to‘lma* yoki *do‘lma* deyilgan.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 137 21/08/24 12:31



Shashlik/kabob – go‘shtni sixga tortib, cho‘g‘da toblab pishiriladigan taom. Shashlik insoniyatning eng qadimiy va eng oson pishiriladigan taomlaridan biridir. Hozirgi *shashlik* so‘zi avval *shishlik* shaklida bo‘lgan va eng to‘g‘ri shakli ham shu. *Shish* so‘zi hozirgi o‘zbek tiliga *six* tarzida, *shishlik* so‘zi esa *shashlik* shaklida o‘zgarib yetib kelgan. Qrimtatar, tatar tillarida hozir ham *shishlik* tarzida to‘g‘ri qo‘llanadi.

Kabob so‘zi asli forscha bo‘lib, “qovurilgan go‘sht” ma’nosini anglatadi. Demak, *shashlik* turkiy**,** *kabob* forsiy so‘z ekan.

Manti – to‘g‘ralgan go‘sht va piyozni xamirga tugib, qasqonda pishiriladigan ovqat. O‘zbek oshxonasiga xitoy oshxonasidan o‘tgan. *Manti* so‘zi xitoycha bo‘lib, “xamir” ma’noli “man” so‘ziga “go‘sht” ma’noli “ti” so‘zini qo‘shib yasalgan.



Yorqinjon Odilov



1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 138 21/08/24 12:31

Bob yuzasidan takrorlash



39. G‘aliz jumlalarni tuzatib ko‘chiring.

Senga bir so‘m tugul, ming so‘m ham bermayman.	...
Taxminimcha, siz bu o‘yinda aniq g‘alaba qozonasiz.	...
Ovqatlar tayyor bo‘ldilar, suzaveraymi?	...
Do‘kondan bitta qurt olib, og‘ziga soldi.	...
U asta va sekin harakat qilardi.	...



40. Berilgan jumlalarda qaysi so‘z(lar) ortiqcha ekanini aniqlang.

Xalqimiz orasida ildiz otgan yomon illatlar haqida gaplashsak.	...
Ahmadjon bilan 2019-yilda ilk bor tanishganmiz.	...
Jadvalda birinchi o‘rindan pastga quladim.	...




41. Bo‘sh o‘rinlarga *d, t, g, k* harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.

ijo…kor	ta…qiqot	ket…ani	ijoba…	matona…
oma…	qurut…ek	ket…ik	hayvono…	idro…im
ochlik…an	uch…acha	go‘sht…an	tort…irish	loqay…

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 139 21/08/24 12:31

42. **Ushbu bobda o‘rganilgan so‘zlar asosida tuzilgan krossvordni yeching.**



Eniga (gorizontal):

1. Hindlar “tuban”, “pastkash” ma’nosida tushunadigan so‘z. **4.** “Tegirmon” ma’nosini bildiruvchi tojikcha so‘z. **7.** So‘zlarning kelib chiqishi … lug‘atlarda beriladi. **10.** Sigirning bir yoshga to‘lgan bolasi. **11.** Otning erkagi. **13.** Aslida “qish” ma’nosini bildirgan, hozirda “qorong‘i” ma’nosida qo‘llanadigan so‘z. **14.** Ona ot. **15.** “Payt” yoki “tarozi taqsimchasi”.

Bo‘yiga (vertikal):

1. “Baxtli” ma’nosidagi ism. **2.** Hindlar “ayg‘oqchi”, “josus” deb tushunadigan so‘z. **3.** “Daryo” ma’nosidagi arabcha so‘z. **4.** “Oytun” so‘zining hozirgi o‘zgargan ko‘rinishi. **5.** So‘zlarning to‘g‘ri yozilishini … lug‘atidan qarab bilamiz. **6.** “Chappa”, “zid” so‘zlarining sinonimi. **8.** Mushukning bolasi. **9.** Otning urg‘ochisi. **12.** “To‘rtinchi” ma’nosidagi qizlar ismi.

Bob yuzasidan o‘rgangan yangi so‘zlaringizni alifbo tartibida yozing.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 140 21/08/24 12:31

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

1. O‘ZBEKISTON – VATANIM MANIM! 3

1-dars 4
2-dars 6
3-dars 9
4-dars 11
5-dars 13
6-dars 16
7-dars 19
8-dars 22
9-dars 24
10-dars 26
11-dars 27
12-dars 30
13-dars 32
14-dars 34
15-dars 36
16-dars 38

2. FAN VA TEXNOLOGIYALAR 40

1-dars 41
2-dars 44
3-dars 47
4-dars 49
5-dars 51
6-dars 53
7-dars 56
8-dars 58
9-dars 61
10-dars 64
11-dars 66
12-dars 69
13-dars 69
14-dars 72
15-dars 74
16-dars 77

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 141 21/08/24 12:31

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

3. TIL VA DIL 80

1-dars 81
2-dars 83
3-dars 86
4-dars 88
5-dars 92
6-dars 94
7-dars 97
8-dars 100
9-dars 102
10-dars 104
11-dars 106
12-dars 109

4. SO‘ZLAR TILSIMI 110

1-dars 111
2-dars 114
3-dars 117
4-dars 119
5-dars 122
6-dars 125
7-dars 127
8-dars 129
9-dars 131
10-dars 134
11-dars 136
12-dars 139

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 142 21/08/24 12:31

O‘quv nashri

Mavlonova Klaraxon Mahmudovna
Qo‘ldosheva Sanobar Hayotovna
Hakimova Nilufar Sobirjonovna
Siddiqov Mansur Rahimjonovich

Ona tili
5-sinf
I qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2024

Muharrir:	*O. Madvaliyev*
Badiiy muharrir:	*M. Zaimbetov*
Musahhih:	*X. Ibrohimov*
Rassomlar:	*V. Frolov, L. Zatulovskaya*
Kompyuterda sahifalovchi:	*D. Konoplich*

Nashriyot litsenziyasi AI №158.
26.07.2024-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60×84/8. Kegli 12 n/shponli.
“Arial” garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo‘rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m^2 qog‘oz.
Shartli b.t. 16,74. Hisob-nashriyot t. 13,18.
Adadi 635 186 nusxa. Buyurtma raqami 24-285.
“O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 143 21/08/24 12:31

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining F. I. O.	O‘quv yili	Darslikning olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli darajada tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklashning iloji yo‘q.

1 MOTHER LANGUAGE SCHOOLBOOK G5 P1 UZB 205x290 144PG.indd 144 21/08/24 12:31